

Zamonaviy o`zbek she'riyatda suv bilan bog`liq

Istiqloq yillarida Yurtboshimizning tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan da'vati xalq donishmandligi xazinasini o`rganishga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Chunki xalqimizning eng qadimiy ma'naviy an'alarini o`zida mujassam etgan bu qadriyatlar boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik turmush tarzini, madaniyatini, e'tiqodiy qarashlarini o`ziga singdirib, mukammal tizim sifatida shakllangan. Shu silsilada suv bilan bog`liq marosimlar va tushunchalarning ham o`z o`rni bor. Ular xalqimizning mifologik tasavvur-tushunchalari, suvga aloqador e'tiqodiy qarashlari, qadimgi turmush tarzi, o'tmish madaniyati haqida o`ziga xos badiiy shaklda ma'lumot bera olishi jihatidan qimmatlidir. Ushbu monografiyada suvga aloqador mifologik tasavvur-tushunchalar tahlilga tortilgan.

NIZOMOVA SHOXISTA SHODIYEVNA
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Globe
EDIT

Nizomova Shoxista Shodiyevna

Globe
EDIT



Nizomova Shoxista Shodiyevna

Zamonaviy o`zbek she'riyatda suv bilan bog`liq

Obrazlar tahlili

Nizomova Shoxista Shodiyevna
Zamonaviy o`zbek she'riyatda suv bilan bog`liq

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

Nizomova Shoxista Shodiyevna

Zamonaviy o`zbek she'riyatda suv bilan bog`liq

Obrazlar tahlili

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L
Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-613-8-25757-8

Copyright © Nizomova Shoxista Shodiyevna

Copyright © 2022 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

NIZOMOVA SHOXISTA SHODIYEVNA

**ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RİYATDA SUV BILAN BOG'LIQ
OBRAZLAR TAHLILI**

FOR AUTHOR USE ONLY

Istiqlol yillarida Yurtboshimizning tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan da'vati xalq donishmandligi xazinasini o'rganishga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Chunki xalqimizning eng qadimiy ma'naviy an'alarini o'zida mujassam etgan bu qadriyatlar boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik turmush tarzini, madaniyatini, e'tiqodiy qarashlarini o'ziga singdirib, mukammal tizim sifatida shakllangan. Shu silsilada suv bilan bog'liq marosimlar va tushunchalarning ham o'z o'rni bor. Ular xalqimizning mifologik tasavvur-tushunchalari, suvga aloqador e'tiqodiy qarashlari, qadimgi turmush tarzi, o'tmish madaniyati haqida o'ziga xos badiiy shaklda ma'lumot bera olishi jihatidan qimmatlidir. Ushbu monografiyada suvga aloqador mifologik tasavvur-tushunchalar tahlilga tortilgan.

Mas'ul muharrir:

S.S.Avezov

Filologiya fanlari doktori

S.S.Avezov

Taqrizchilar:

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, Filologiya fanlari
nomzodi.

M.F.Fozilova

Toshkent davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Monografiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnik kengashining 2022-yil 30-maydagi 5-sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan

MUNDARIJA

Kirish	4
I bob. Zamonaviy she'riyatda suv bilan bog`liq obrazlarning ifodalanishi	9
1-fasl. Suv obrazlarining hayotiy va mifologik asoslari.	
2-fasl. Suvga marosimiy munosabatning she'riyatdagi tasviri.	
II bob. Zamonaviy she'riyatda suv va uning analoglari	27
1-fasl. Suv hafzalari talqini	
2-fasl. Suv inshootlari talqini.	
3-fasl. Suvga aloqador tabiat hodisalari talqini.	
III bob. Suv bilan bog`liq obrazlar va aniqlovchilarning poetik mohiyati .	54
1- fasl. Suv bilan bog`liq obrazlarning turlari va badiiy vazifalari.	
2- fasl. Suv aniqlovchilari va suv bilan bog`liq xalq iboralari talqini.	
Umumiy xulosalar	97

KIRISH

Folklor ma'naviyatning tarixiy asosi va zamini sifatida bugungi zamonaviy adabiyotni ham boyituvchi va rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbaidir. Chunki mustaqillik sharoitida jamiyat etukligi, ijtimoiy ong teranligi va inson ma'naviy dunyosi boyligini ta'minlashda badiiy madaniyatning, jumladan, folklorning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda. Zeroki, folklor asarlari ajdodlar va avlodlar jonli aloqasi va vorisligini o'zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langani tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa, yuksak axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun ham undagi yuksak g'oyalarga ergashish hamisha dolzarb bo'lib kelgan.

Istiqloq yillarida Yurtboshimizning tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan da'vati xalq donishmandligi xazinasini o'rganishga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Chunki xalqimizning eng qadimiy ma'naviy an'alarini o'zida mujassam etgan bu qadriyatlar boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik turmush tarzini, madaniyatini, e'tiqodiy qarashlarini o'ziga singdirib, mukammal tizim sifatida shakllangan. Shu silsilada suv bilan bog'liq marosimlar va tushunchalarning ham o'z o'rni bor. Ular xalqimizning mifologik tasavvur-tushunchalari, suvga aloqador e'tiqodiy qarashlari, qadimgi turmush tarzi, o'tmish madaniyati haqida o'ziga xos badiiy shaklda ma'lumot bera olishi jihatidan qimmatlidir. Qolaversa, ular haqidagi ilmiy ma'lumotlar hozirgi yosh avlodga ajdodlarimizning boy madaniy tarixini o'rgatishda, ularning tarbiyasiga ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatib, qalbida xalq an'alariga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda qulay vosita bo'lib xizmat qila oladi.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir".¹ Shunday ekan, asrlar davomida yaratilib, avloddan-avlodga o'tkazib kelingan barcha folklor namunalari qatori suv bilan aloqador xalq tushunchalarini, marosim va ayimlarini o'rganish, ayniqsa, ularning zamonaviy she'riyatda ham folklorga xos an'alar asosida talqin qilinayotganining

¹ Каримов И.А. Истиклол ва маънавият. – Т., 1994. – Б.7.

boisini tadqiq qilish, ijtimoiy-tarixiy ildizlarini tekshirish hozirgi adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Monografiyada o'zbek adabiyotshunosligi va she'rshunosligida birinchi marta suv bilan bog'liq obrazlarning analoglari, badiiy-semantik tiplari va o'ziga xos estetik vazifalari, tarixiy-folkloriy ildizlari yaxlit tizim ko'rinishida monografik jihatdan tadqiq qilinmoqda.

O'zbek folklorshunosligida ham suvga aloqador qarashlar, u asosda o'tkaziladigan marosimlar, suv obrazlarining badiiy talqinlari masalasi alohida tadqiq qilinmagan. Faqat bu borada xalq qo'shiqlari va marosimlari poetikasi tadqiq qilingan ayrim ishlarda yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tilganining guvohi bo'lish mumkin. Bu jihatdan Muzayyana Alaviyaning "O'zbek xalq qo'shiqlari", "O'zbek marosim qo'shiqlari", A.Musaqulovning "O'zbek xalq lirikasi" monografiyalari² hamda S.Ro'zimboev hamda D.O'raevalarning xalq qo'shiqlarida parallelizmni hosil qiluvchi qiyosiy manbalar to'g'risidagi,³ shuningdek, B.Sarimsoqov, M.Jo'raevlarning "Sust xotin marosimi" haqidagi maqolalarini⁴ misol keltirish mumkin.

Suv kulti bilan aloqador ilmiy qarashlar, etnografik ma'lumotlar taniqli elshunoslarning asarlarida ham uchraydi. Jumladan, A.Ashirov o'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari xususida to'xtalar ekan, ularning suv kultiga ishonch g'oyalari bilan bog'liq qirralariga ham alohida e'tibor berib o'tadi.⁵

Umuman aytganda, respublikamiz mustaqillikka erishgach, ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri bo'lmish turli rituallarni ham o'rganishga nisbatan ilmiy qiziqish paydo bo'ldi. Shu qiziqish asosida o'z tadqiqotimizda suv bilan aloqador qarashlarning xalqona talqinlar asosida zamonaviy she'riyatda obrazlantirishini o'rganishni ko'zda tutdik.

Mazkur monografiya Buxoro davlat universiteti o'zbek adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar dasturi doirasida bajarildi.

² Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1959. – 316 б. Яна: Ўзбек маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

³ Рўзимбоев С. Халқ кўшиқларида параллелизмларни юзага келтирувчи манбалар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1972. – № 1. – Б.81-85.

⁴ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 316 б.; Жўраев М. Наврўз байрами. – Т.: Фан, 2009. – 230 б.

⁵ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.199-205.

Monografiyada zamonaviy she'riyatda suv bilan bog'liq obrazlarning badiiy talqinini ilmiy tadqiq qilish bosh maqsad qilib belgilandi.

- zamonaviy she'riyatda suv bilan bog'liq obrazlarni ifodalash an'anasi bilan tanishish;

- suv obrazlarining hayotiy va mifologik asoslarini belgilab ko'rsatish;

- suvga marosimiy munosabatning she'riyatdagi tasvirini kuzatish;

-zamonaviy she'riyatda suv obrazining o'rni va badiiy-semantik tiplarini aniqlash;

- zamonaviy she'riyatda suv obrazining badiiy-estetik vazifalari va ramziy ma'nolarini ochib berish;

- zamonaviy she'riyatdagi suv anologlari (suv hafzalari, suv inshootlari, suvga aloqador tabiat hodisalari) talqinini tadqiq qilish;

- suv bilan bog'liq obrazlarning poetik mohiyatini yoritish;

- suv jonivorlari va o'simliklari, suv transport vositalari va idishlari talqinini tekshirish;

- suv va uning aniqlovchilari, suv bilan bog'liq xalq iboralarini aniqlash va hokazolar.

Zamonaviy she'riyatda suv bilan bog'liq obrazlar tasviri va talqini tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Monografiyaning manbalari. Monografiyani yozishda zamonaviy shoirlarning she'riy to'plamlaridan manba sifatida foydalanildi.

1. Suv bilan aloqador marosimlarni, qadimiy e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan obrazlarni tadqiq qilish orqali epik tafakkur an'analarning yozma ijod bosqichidagi badiiy takomili xususiyatlarini o'rganish mumkin. Bu esa ham folklorshunosligimiz, ham adabiyotshunosligimiz uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

2. Suv bilan aloqador obrazlar o'ziga xos tarixga va tadrijga ega. Ularning kelib chiqishiga asos bo'lgan tarixiy-folkloriy jarayonni maxsus tadqiq qilish o'zbek adabiyotshunosligida badiiy so'z taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni o'rganishga keng yo'l ochadi.

3. Suvga e'tiqod asosida kelib chiqqan an'anaviy ramziy obrazlarning tarkibini, ularning har biriga xos xususiyatlarni maxsus tadqiq qilish o'zbek she'riyatidagi obrazlar olamini yanada yaxlit tasavvur qilish imkonini kengaytiradi.

4. Monografiyada suv analoglari, suv bilan bog`liq real va ramziy obrazlarning turlari, ma`no-mazmun ifodasi folkloriy bilimlar asosida muqoyasa qilinib o`rganilishi orqali xalqimizning suvga e`tiqodi azaliy va an`anaviy ekanligini bilib olishda yordam beradi.

5. Suvga aloqador obrazlarni o`rganish vositasida yoshlarning ekologik bilimi va madaniyatini ham kengaytirish mumkin.

Monografiyaning ilmiy yangiligi. Ushbu monografiyaning xulosa va umumlashmalari she`riyatimizdagi obrazlar olami haqidagi mavjud nazariy qarashlarni yanada boyitishga xizmat qilishi shubhasiz. Ishning o`ziga xos **asosiy ilmiy yangiligi** bevosita shu jihat bilan belgilanadi. **Ikkinchidan**, ishda suv obrazlari va suv analoglarining o`ziga xos badiiy tasviri va talqini, ayniqsa, ularni ifodalashda xalq e`tiqodiy qarashlariga asoslanishi birinchi marta ilmiy jihatdan o`rganildi. **Uchinchidan**, suv bilan bog`liq an`anaviy marosimlar, e`tiqodiy qarashlarning zamonaviy she`riyatdagi ifodasi tadqiq qilindi. **To`rtinchidan**, zamonaviy she`riyatda suv obrazining o`rni va badiiy-semantik tiplari tasniflanib, uning o`ziga xos badiiy-estetik vazifalari va ramziy ma`nolari ochib berildi. **Beshinchidan**, zamonaviy she`riyatdagi suv analoglari (suv hafzalari, suv inshootlari, suvga aloqador tabiat hodisalari), shuningdek, suv jonivorlari va o`simliklari, suv transport vositalari va idishlari obrazining talqini, suv va uning aniqlovchilari, suv bilan bog`liq xalq iboralari birma-bir o`rganildi.

Mamlakatimizning 1- Prezidenti I.A.Karimovning ma`naviy qadriyatlarini tiklash va milliy an`analarni takomillashtirish g`oyalarini qo`llab-quvvatlashning nazariy asoslari haqidagi qarashlari mazkur tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Zamonaviy she`riyatda suv obrazining o`rni va uning o`ziga xos badiiy-estetik vazifalarini, mazmuniy tiplarini ilmiy tadqiq qilishda B.Sarimsoqov, S.Ro`zimboev, M.Jo`raev, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, D.O`raeva kabi folklorshunos hamda U.Normatov, U.Jo`raqulov, N.Rahimjonov, U.Hamdammov, L.Sharipova, D.Quvvatova singari adabiyotshunos olimlarning asarlari asosiy ilmiy-nazariy manba vazifasini o`tadi.

Zamonaviy she`riyatda suv obrazlarining g`oyaviy, ramziy-badiiy xususiyatlarini yaxlit tadqiqot holida tadqiq etayotgan ushbu magistrlik dissertasiyasining asosiy

tahliliy xulosalari va umumlashmalari xalq tushunchalari asosida shakllangan obrazlarni qiyosiy-tarixiy aspektda o'rganishda o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi.

Monografiyada keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan oliy o'quv yurtlarida xalq og'zaki badiiy ijodiyoti fani bo'yicha maxsus kurslar o'tishda va ma'ruzalar o'qishda, akademik listey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, o'rta umumiy ta'lim tizimida adabiyot fanidan dars mashg'ulotlari olib borishda, ayniqsa, zamonaviy shoirlar ijodi yuzasidan usuliy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Ushbu monografiya Buxoro davlat universitetining Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim kafedrasida yig'ilishida muhokama etilib, tugallangan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya qilingan.

Monografiya, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

I BOB

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA SUV BILAN BOG`LIQ OBRAZLARINING IFODALASHI

I.1. Suv obrazlarining hayotiy va mifologik asoslari

Suvga e'tiqodning hayotiy asoslari shundaki, inson – tabiatning bir bo'lagi. U suvsiz yashay olmaydi. Suv inson tirikligining garovi hisoblanadi. Suv tabiatdagi to'rt muhim unsurning biri. Buni buxorolik shoir Sadриддин Salim Buxoriy she'rdа shunday ta'riflab ko'rsatadi:

To'rt unsurdan biri suv erur,
O'zgasidir xoku el, otash.
Ildiz suvga yetgani zahot
Bo'lgay hayot unsuri tutash.⁶

Darhaqiqat, suv – hayotiy quvvat manbai. Suvsiz tiriklikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Barcha mavjudotning hayoti suv bilan bog'liqdir. Suv – non kabi inson uchun aziz. Suvsizlikdan, tashnalikdan inson organizmi o'lim topishi aniq.

Bir burda non bilan to'yadi odam,
qultum suv qondirar chanqog`ni.⁷

Suv – tiriklik manbai. Usiz nafaqat inson, boshqa tirik jonzotlar ham yashay olmaydi. Insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi tirikligi uchun, albatta, suv zarur. Ana shu sabab uni “obi hayot” deya ta'riflaydilar:

Bu zamin **obi hayot** birla to'lug` paymonadir,
Maskanim Farg'onadir, Farg'onadir, Farg'onadir.⁸

Suv chanqoqni bosadi. Tashna qalblarga orom va huzur, kuch-qudrat bag'ishlaydi. Xususan, issiqdan bo'g'riqqan, ichi kuyib borayotgan inson muzday suv ichsa, tanasi rohatlanadi:

Men keldim alamning dashtidan kuyrab,
Beg`ubor so'zlar de – bir muzday suv tut.⁹

⁶ Sadриддин Salim Buxoriy. Buxoroning ёши / Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.40.

⁷ Икром Отамурод. Тағазул. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2008. – Б.48.

⁸ Вохидов Э. Масканим Фарғонадир / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарк, 2010. – Б.55.

Yoki:

Hovuch-hovuch ichadi qizcha,
Serob bo'lib ketar tashna lab.
She'rim o'qib bir hovuch suvcha
Bahra olarmikan biron qalb? – ¹⁰

Ko'rinadiki, shoirlar suv tashna qalbni nechog'lik qondira olgani kabi o'z she'rlari ham suvdek insonlarning ezgulikka tashna yuraklariga, ko'ngillariga sizib kirib borishini va unda ma'naviyat chechaklarini undirishini xohlaydilar. Ana shu sabab Ikrom Otamurod ham inson ko'nglini suvga tashna joyga o'xshatib yozadi:

Kanglum – sog'inchlarning siniqqan rangi,
kanglum – sog'inchlar-a suv tutgan tashna.¹¹

Qadimdan dehqonchilik madaniyati bilan shug'ullanib kelgan xalqimiz suvsiz ekin-tikin qilolmaydi. Ildizi suv ichgan har bir giyoh unib-o'sadi, aksincha, qurib, yo'q bo'ladi:

O'z qo'yniga olibtimi, bas,
Sening tomir – ildizingni suv,
Demak, ildiz suvga etdimi
Umr boqiy deganlari shu!¹²

Yoki:

Balandga yugurgan qiyoflar kuydi,
Suvdan olisdagi giyohlar kuydi.¹³

Anglashiladiki, bog'-rog'lar, ekin dalalarini bunyod etish uchun dehqonga, albatta, suv zarur.

Gulu niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.¹⁴

Ekinni o'z vaqtida sug'orish uni parvarish qilishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi she'riy parchada ana shu hayotiy haqiqatga ishora kuzatiladi:

Avval shudgor, keyin esa ekish kechikdi.
Suv kechikdi. Ishlov berish, o'g'it kechikdi.¹⁵

⁹ Рахимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.42.

¹⁰ Зулфия. Рашк / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.45.

¹¹ Икром Отамурод. Тағазул, 46-бет.

¹² Садриддин Салим Бухорий. Бухорининг ёши / Ўша китоб. – Б.40.

¹³ Рахимбоева Қ. Чорлов / Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.5.

¹⁴ Воҳидов Э. Бир ниҳол / Орзули дунё: Шейрлар. – Т.: Шарқ, 2010. – Б.11.

¹⁵ Рахимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.50.

Qadim zamonlarda suvni ifloslantirganlar jazolangan va jarimaga tortilgan. Musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'on va Hadisi Sharifda suv hayot manbai sifatida qadrlangan. Suvga oyoqlarni tiqib o'tirish, tupurish yoki oqayotgan suvga axlat tashlash ta'qiqlangan.

Qadimgi ajdodlarimiz suvni Ollohning ko'zgusi deb bilishgan. Bunga ishora zamonaviy shoirlar ijodida ham kuzatiladi. Jumladan, Erkin Vohidovning "Majnunतो" she'rida shunday misralar uchraydi:

– Yo'q, fikrim band etgan oqqushlar emas,
Sabo yo parivash boqishlar emas,
Na suv ko'zgosida ko'ringan hilol,
Na chehrasi ol!¹⁶

Yana shoir "Qubbon ko'liga" she'rida shunday yozadi:

Sado deydi: Sochlaring yoyib,
– Nechun quyosh kezar parishon?
Tong chiqar-u kech bo'lar g'oyib.
Ne izlab u kezadi jahon?
Aks-sado der: Bunda bir zamon
Yo'qotmish u oynasini...
Quyosh hamon izlaydi seni.¹⁷

Qadimda suvdan oyna o'rnida foydalanilgan. Shu tarixiy dalilga ishora shoir she'rlaridan birida quyidagicha talqin etilgan:

So'ng aftini ko'rib suvda
Loyqalating, dedi shoh,
Ariqdagi tiniq suvni, –
Tiniq suvdadir gunoh.

Alqissa, so'ng evin topib
Shohni qo'ydilar go'rga,
Oyina yo'q, tiniq suv yo'q,
Shoir yo'q, ya'ni go'rga.¹⁸

¹⁶ Vohidov Э. Ишк савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарк, 2000. – Б.23.

¹⁷ Vohidov Э. Ишк савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарк, 2000. – Б.26.

¹⁸ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.53.

Sabr dovonin o'tdim,
Go'yo bo'ldi dil.
Ko'z yoshlarimni yutdim,
Daryo bo'ldi dil.¹⁹

Suv – olovga zid unsur. U orqali olov o'chadi. Bu haqiqat quyidagi misralar qatida aks ettirilgan:

Bu erlarga behuda keldim,
Suvga cho'kkan cho'g'dek so'zlarim.²⁰

Suv ustida og'ir narsalar cho'kib ketadi. Xususan, suv toshni ko'tara olmaydi. Tosh suvga tushishi bilan cho'kib, ko'zdan yo'qoladi:

Suvga tushgan tosh kabi beg'am,
Beparvoman, koshki desam dod.
Qismatimiz shu ekan, jo'ram,
Qoq ikkiga bo'lingan hayot.²¹

Xullas, shu kabi hayotiy asoslar qadimdan ajdodlarimizning suvni o'ziga yaqin ko'makdosh, homiy deb anglashiga, uni ulug'lashiga olib kelgan. Natijada suv kulti bilan aloqador ko'pgina an'analar vujudga kelgan. Insoniyatning juda ko'p an'analari, marosim va bayramlari, hayotiy tushunchalari bevosita suv bilan bog'liqdir.

Suvga e'tiqodning mifologik asoslari shu bilan belgilanadiki, insonlarning, umuman, tirik mavjudotning suvga bo'lgan hayotiy ehtiyoji uni muqaddaslashtirishga va ilohiylashtirishga olib kelgan. Odamlar uning hech qachon tugamasligini, abadiylikni xohlab, “obi hayot”, “mangu hayot suvi” haqidagi mifologik talqinlarni yaratganlar. “Mangu hayot suvi” timsolida suvning va tabiatning, inson hayotining boqiylikni orzu qilganlar. Ana shu sabab xalq og'zaki ijodiga xos asotir, afsona va ertaklarda suv mangu hayot vositasi sifatida talqin etiladi. Hatto suv dunyosi o'ziga xos sirli olam sifatida tasvirlanadi.

Obihayot haqidagi afsonaviy qarashlar bevosita mangu barhayot payg'ambar – Xizr nomi bilan bog'lab talqin etiladi. Hatto bunga ishora zamonaviy shoirlar ijodida ham uchraydi:

Sharqqa hijrat erur vojib,

¹⁹ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.86.

²⁰ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.55.

²¹ Мухаммад Али. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.93.

Unda ishq mayu mutrib
Hamda Xizr suvi bordir,
Boqiy umr senga yordir.²²

Qadimgi insonlar suvning belgilarini, harakatlarini bevosita kuzatib, uni jonli kuch sifatida timsollashtirishga harakat qilganlar. Ana shu asosda haligacha badiiy ijodda suvni jonlantirish kuzatiladi:

Qo'shiq aytib daryo shovullar
Ta'zim ila go'zal bahorga.²³

Yoki:

Ko'lmak der: "Sokindir dengiz ham!"
Shabnam der: "Bevafo kunduz ham!"²⁴

Yana:

Tovoning o'padi ariqdagi suv,
Ko'ylaging etagin o'padi maysa²⁵

Ushbu she'riy misralarda "qo'shiq aytayotgan daryo" va "gapirayotgan ko'lmak va shabnam", "yor tovonini o'payotgan suv" timsollarida suvning jonlantirilayotganini, uning odamlarga xos xususiyatlarini kuzatish mumkin.

Suvning ovozini ko'pchilik xush ko'radi. Uning sharqirab yoki mildirab ovoz solib oqishi dillarga yoqadi. Inson ana shu ovozga quloq solib turar ekan, undan ma'no izlashga harakat qiladi, ammo suv shevasini baribir tushunmaydi:

Ariqda tip-tiniq, mildir-mildir oqqan suv
Shevasi dilimga xush.²⁶

Shavkat Rahmonning "Suvlar ila mulqot" she'ri mavjud. Shoir unda dil hasratlarini suvdan o'zga tinglaydigan hamfikir topolmaganidan zorlanadi.

Shilliqqurtday to'lg'anar ariq,
Suyanaman badburush tolga.²⁷

Ushbu misralarda ariq suvining to'lg'anib-to'lg'anib, sekin oqishi shilliqqurtning ohista yurishiga o'xshatilmoqda.

²² Садриддин Салим Бухорий. И.В.Гётенинг "Фарбу Шарк девони"дан. Хижрат / Ўша китоб. – Б.87.

²³ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.34.

²⁴ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.76.

²⁵ O'sha kitob, 136-bet.

²⁶ Зулфия. Лавха / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.159.

²⁷ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.35.

Qadimda suvni jonlantirish asosida suv ma'budlari, suv parilari, suv devlari haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalar shakllangan. "Suv dunyosi", "suv olami", "suv osti mamlakati", unga eltuvchi "suv yo'li" haqidagi epik talqinlar vujudga kelgan.

Ibtidoiy insonlar tasavvuriga ko'ra yaratilgan asotir va afsonalar, ertaklarda tasvirlanishicha, insonlar dunyosi kabi suv dunyosi ham mavjud. Uning o'z hukmdorlari va qonun-qoidalari bor. Ana shunday tasavvur-tushunchalar asosida suv va insonlar dunyosini o'zaro o'xshatish, tenglashtirishdan iborat metaforik ko'chimlar paydo bo'la borgan. Bunday obrazlantirish esa hozirgacha saqlanib kelayotganligi alohida e'tiborni tortadi.

Turli mifologik tushunchalar asosida insonlar o'rtasida suvga magik (sehrli) kuch sifatida qarab, unga munosabatda magik xarakterdagi ramziy harakatlarga e'tibor qaratish an'anasi yuzaga kela boshlagan.

Suv obrazlari badiiy ijodda o'z va ko'chma, -ijobiy va salbiy ma'nolarda qo'llanishi bejiz emas. Sababi shundaki, xalq azaldan suvga ikki xil munosabatda bo'lgan. Xalq nazdida oqib turuvchi, harakatlanuvchi suvlar "tirik suv" sifatida pok, halol bo'lib, ular iste'molga yaroqli hisoblanadi. Oqmaydigan, bir joyda turib qolgan, zax, ko'lmak, loyqa suvlar esa "o'lik suv" sifatida nopok, ya'ni iste'molga yaroqsiz deb qaraladi. Shundan kelib chiqib, xalq she'riyatida daryo, soy, chashma, buloq, ariq, jilg'a, quduq suvlari ijobiy ottenkada, dengiz, ko'l suvlari salbiy ottenkada talqin etilishi kuzatiladi. Aynan shu an'ana zamonaviy she'riyatda ham davom ettirilgani alohida e'tiborni tortadi.

Ibtidoiy insonlar suvning "yaxshi" va "yomon", ya'ni ichishga, foydalanishga, cho'milishga yaroqli toza va pok suv hamda aksincha, nopok, xavfli, zararli suv bo'lishini aniqlagach, ularni yaxshi va yovuz ruhlar bilan bog'lab talqin eta boshlaganlar. Jumladan, oqib turgan suvni ichish va undan xo'jalikda foydalanish mumkin, deb qaraganlar. Oqmaydigan suvni nopok deb bilib, imkon qadar undan foydalanmaganlar.

Odanning paydo bo'lishiga aloqador tasavvurlar ham qisman suvga bog'lanadi. Bu haqdagi afsonalarda aytilishicha, inson tanasi to'rt unsurdan tarkib topgan: tuproq, suv, olov (nur), havo. Shuning uchun inson bularsiz yashay olmasligi aytiladi. Shoir Shavkat Rahmon bir she'rida bunga ishora qilib shunday yozadi:

Kim edim-u,

kim bo'ldim endi,
ko'rib turar quyosh, suv, tuproq.
Ko'zlarimdan ko'ra hayotni
elkalarim ko'ribdi ko'proq...

Yoki:

Adib istagi-la to'xtaymiz. Birdan
Er, quyosh, suv, havo bizni quchadi.
Daryo qo'shig'idan, el shiviridan
Tandan yo'l hordig'i tunday ko'chadi.²⁸

Demak, inson tanasi suvsiz yashay olmaydi. Aksincha, u suvdan yanada kuch va bahra oladi. Ayniqsa, suv orqali inson ruhiyati bardamlashadi. Ana shuning uchun inson qachonki, toliqsa, zeriksa, suv bo'yiga borishni qo'msaydi. Suvning sharqiroq ovozidan, jo'shqinligidan kuch oladi. Suvning inson ruhiyatiga ta'siri zamonaviy shoirlar she'rlarida ham alohida e'tirof etib o'tilganini kuzatish mumkin:

Shoir sohilda tik...
Xayolin zabt etar munis sehrgar
Suvdan kelayotgan fusunkor sado.
Shoir sohilda tik. Daryo nur ichra,
Bahor toshmoq bo'lar qirg'oqlaridan.
Oqindan to'ldirib qo'shoq hovuchda
To'yib suv shimirar barmoqlaridan –
Tog'likdan tushganday to'kiladi suv,
Ola chalpoq nurda gavharday yonib,
Keng peshana, yuzga yoyilar kulgu,
Go'yo ilhom ichdi hayotdan qonib.
Daryo o'z kuychisin to'lqin qo'yniga
Olib ketmoq bo'lib jo'shqin oqadi.
Kuychi maftun turar suv o'yiniga,
Mag'rur aksi undan bizga boqadi.²⁹

²⁸ Зулфия. Яратиш дарди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.192.

²⁹ Зулфия. Яратиш дарди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.192.

Ertaklarda suv o'rnida sut oqishi motivi beriladi. Jannat haqidagi diniy-mifologik afsonalarda ham shunday motiv uchraydi. Quyidagi misralarda esa bunga ishorani kuzatish mumkin:

Saxovat momosi – tog`ning ko`ksidan
Ko`pirib, hayqirib suti to`kilmish,
Zarrasi sochilgan muzlar ustida
Shoshqaloq g`unchalar choki so`kilmish,
Demak, bahor keldi.³⁰

Ajdodlarimiz, odatda, suv rangi bilan bog`lab ham xilma-xil ramziy-majoziy ma`nolarni ifoda etishga urinishgan. Bunda ular, avvalo, suvdan emas, shu rangdan anglashilgan ramziy ma`noga e`tibor qaratishgan. Jumladan, qizil suv – qon, sariq suv – hijron, judolik ma`nosini ifodalagan.

Qadim zamonlardan buyon suv, yomg`ir katta boylikka qiyoslangan. Hayot manbai hisoblangan suvni ilohiy mo`jiza, deb qarashgan. Ayniqsa, yomg`irni “obi rahmat” deya ulug`lashgan.

Bilmayman, savobmi yo koni gunoh,
Zinhor shakkoklikka yo`ymang tilagim.
Jasadim daryoga tashlang, ruhim pok,
Obi rahmatlarda sovusin tanim...³¹

Qadimgi insonlar suvni, avvalo, o`zga olamga borish yo`li, deb qarashgan. Bunday qarashlarning badiiy talqini ko`proq folklor asarlarida uchraydi. Ammo ayrim zamonaviy badiiy asarlarda ham folklorga xos shu talqinning saqlangani kuzatiladi. Jumladan, shoir Abdulla Oripovning “Jannatga yo`l” dramatik dostonida Yigit bir qizaloqni soydagi toshqindan qutqarib, o`zi cho`kib vafot etadi. Demak, uning tiriklar dunyosidan o`liklar dunyosiga o`tishiga suv sabab (vosita) bo`ladi. Shunday bo`lsa-da, u dunyoda Yigit hayotda qabih, ig`vogar kimsalarga qarshi kurasholmagani, ular tufayli ojjiz odamlarning azob chekishiga yo`l qo`yib bergani sabab gunohkor deb topilib, jannatga kiritilmaydi. Biroq Yigitning do`stiga sadoqati gunohlarini kamaytirib, jannatga kirishiga yo`l ochadi.

Xullas, olis o`tmishda ajdodlarimizning suv bilan bog`liq bunday dastlabki tajribalari va tasavvurlari ularga nisbatan hozirgi munosabatlarning shakllanishida

³⁰ Зулфия. Демак, баҳор келди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.157.

³¹ Зулфия. Хотирам синиклари. Достон. / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.218.

o'ziga xos asos vazifasini o'tagan. O'zbek oilalarida suvga e'tiqod qadimdan shakllangan bo'lib, qator an'analarda hamon davom etib kelayotir.

I.2. Suvga marosimiy munosabatning she'riyatdagi tasviri

Qadimgi insonlar suvni inson ruhini poklovchi va unga mangu hayot bag'ishlovchi magik vosita deb qarab, turli marosimlar bilan bog'liq udumlarni ado etib kelishgan. Qizig'i shundaki, bunday udumlarning ayrimlari haligacha saqlanib kelayotir. Shuni hisobga olib, davrimizning atoqli shoiri Abdulla Oripov "Suv" she'rida shunday yozadi:

Juda ajoyibdir inson udumi,

U suvni juda ham, juda ham suyar.

Suvga marosimiy munosabatlar – alohida e'tiborni tortadigan hodisa. Chunki unda xalqimizning suvga aloqador qadimgi mifologik qarashlari bo'y ko'rsatadi.

Suv marosimlari va bayramlari dunyoda keng tarqalgan an'analardan biridir. Ko'pgina mamlakatlarda suvga bag'ishlangan qator ritual tadbirlar mavjud. Ammo bunday tadbirlar qaerda o'tkazilmasin, ularning mohiyati va mazmuni bir-biriga yaqin. Faqat ular har bir millatning o'ziga xos urf-odatlar va folkloriga uyg'un holatda tashkil etilishi kuzatiladi. Suvga aloqador marosimlarni ikki tipga ajratib o'rganish mumkin:

1) Suvga aloqador mavsumiy marosimlar.

2) Suvga aloqador oilaviy-maishiy marosimlar va udumlar

Suvga aloqador mavsumiy marosimlardan eng mashhuri va an'anaviysi "Sust xotin" marosimidir. Qadimda odamlar qurg'oqchilik yuz bersa, suv tangrisi borligiga ishonib, uning sha'niga shu marosimni tashkil qilganlar. Sust xotin "Avesto"dagi suv ma'budasi Tishtriya timsolini ifoda etadi. Suv hosildorlik tushunchalari bilan bog'liq hodisa bo'lgani sabab suv tangrisi Tishtriya ham "bolalash, ko'payish" tushunchasi bilan bog'liq ayol jinsi bilan bog'lab tassavur qilingan.

Sust xotin bahor mavsumi qurg'oqchilik bilan kelsa o'tkaziladigan "Yomg'ir chaqirish" marosimidir. Bunday marosim juda ko'p xalqlarda bor. Ammo u har bir xalqda o'ziga xos o'tkazilishi kuzatiladi. Har bir xalqning yomg'ir chaqirish marosimi bir-biridan farq qiladi. Shunday bo'lsa-da, ularning barchasi yagona

maqсад va yagona mavzuga, ya'ni suvni muqaddaslashtirish va e'zozlash, unga muhtojlik tuyish g'oyasiga qaratilganligi bilan umumiylik kasb etadi.

“Sust xotin” marosimini o'tkazish orqali odamlar suv tangrisidan yog'in-sochin bo'lishini va ekilgan ekin-tikinga zarar etmasligini so'rashgan.

Arxeolog olimlarning aniqlashicha, yomg'ir chaqirish marosimining kelib chiqishi neolit va bronza davriga borib taqaladi. Chunki qadimda odamlar yada (jada) toshi vositasida yomg'ir chaqirish marosimini o'tkazganlar. Bu yomg'ir chaqirishning ilk ko'rinishi bo'lib, keyinchalik uning boshqa yana bir ko'rinishi sifatida “Sust xotin” marosimi kelib chiqqan.

Sust xotin suv yoki yomg'ir tangrisi obrazini o'zida ifoda etadi. Xalq Sust xotinga iltijo qilish orqali suv va yomg'ir tilashgan. Bu marosim yurtimizning turli go'shalarida turlicha ko'rinishlarda, hatto turlicha nomlar bilan o'tkazilgan, lekin marosim jarayonida, albatta, “Sust xotin” qo'shig'i kuylanishi ularni bir-biriga bog'lab turadi.

Taniqli o'zbek folklorshunosi B.Sarimsoqov o'zbek yomg'ir chaqirish marosimi haqida ma'lumot berar ekan, avvala, uning tarixan qadimiyligini, turli joylarda turlicha atalishini bildirib, bu marosim Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarida “Chala xotin” deb, turkmanlarda “Syuyt xatym”, tojiklarda esa “Sust momo” yoki “Ashaglen” deb yuritilishini aytib o'tadi. “Sust xotin” – osmon suvlari tangrisi Tishtriyaning xalq o'rtasida fonetik o'zgarishlarga uchrab Tishtriy, Tushtr, Sustr va nihoyat Sust xotin shaklini olgan namunasidir.³²

Sharqiy Evropadagi Bolqon xalqlari orasida yomg'ir chaqirish marosimi Peperuda (Kapalak) nomi bilan qizlar o'rtasida o'tkazilgan. Qizlar yig'ilishib, bitta qizni Peperuda qilib tayinlashgan va uni yam-yashil barglar, shoxalar bilan bezashgan. So'ngra qizlar kapalak atrofida qo'shiq kuylab, bir uydan ikkinchi uyga borishgan va xudodan yomg'ir so'rashgan. Ular qaysi uy oldida to'xtashsa, xonadaon egasi shirinliklar va suv bilan siylagan.

Sibirda ham shunga o'xshash marosimlar mavjud. Faqat unda kapalak qiz atrofini o'rab olgan qizlar, ajdodlaridan madad so'rab qabristonga borishadi va qabrlar ustiga suv sepishadi.

Germaniyaning turli tumanlarida, o'g'il bolalar suv qushiga o'xshab kiyinishgan. Ba'zida bolalar botqoq barglari va shox-shabbalaridan suv qushi

³² Саримсоков Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – Б.65.

yasashib, keyin uni ko'chalarda ko'tarib yurishgan. Qushni ko'tarib olgan bolani suv bilan siylashgan.

Kavkazda yomg'ir xudosi obrazida chiqqan kishining ustidan suv quyiladi. Ular bir uydan ikkinchi uyga qo'shiq kuylab borishadi va ularni turli ovqatlar berishadi.

O'zbek "Sust xotin" marosimining o'tkazilish tartibi ham turli joylarda turlichadir. B.Sarimsoqov uning to'rt variantini, M.Jo'raev esa olti variantini aniqlab izohlagan.³³ Ammo ularning mushtarak jihati hamma joylarda ham ayollar tomonidan o'tkazilishidir.

Navoiy va Buxoro viloyatlarida yomg'ir chaqiruvchilar qo'g'irchoq yasashgan. Ular har bitta uyga shu qo'g'irchoqni baland ko'targan holda "Sust xotin" qo'shig'ini kuylagancha kirib borishgan. Xonadon egalari esa ularning ustiga suv sepib, sadaqa berishgan. Shu marosimdan boshqa holatlarda odamlarning bir-biri ustiga suv sepishi yomon irim qilingan. Bu narsa shu odamlar orasiga sovuqchilik tushishiga olib keladi, deb qaralgan.

B.Sarimsoqov ma'lumotlarida "Sust xotin" marosimi o'ndan ortiq ayollar tomonidan belgilangan kunda va soatda qo'g'irchoq bilan o'tkazilishi aytiladi. Ayollar qo'g'irchoqqa qari ayol ko'ylagani kiydirib, ulardan biri bu qo'g'irchoqni balandroq ko'tarib olgan holda oldinda yurib, boshqalari unga ergashganib qishloq yoki mahalla bo'ylab xonadonlarga birma-bir kirib chiqa boshlashgan. Ular qaysi xonadonga kirmasin, albatta, yomg'ir chaqirishga aloqador marosim qo'shiqlarini kuylashgan. Odamlar ularni xush kayfiyat bilan kutib olib, olqishlashgan. Yomg'ir chaqiruvchilarga uy egalari bug'doy berishgan yoki suv sepishgan. Keyin shu yig'ilgan bug'doydan halisa va halim pishirib, odamlarga tarqatilgan.

Umuman aytganda, yomg'ir chaqirish marosimi ibtidoiy insonlarning tabiat kulturariga ishonchini o'zida ifoda etuvchi azaliy udumlardan biridir.

"Neptun" bayrami – suv bilan bog'liq zamonaviylashtirilgan ko'ngilochar bayramlardan biri. U yoz paytida suvga cho'milishdan oldin o'tkazilgan. Negaki, yozda suvga cho'milish bahonasida g'arq bo'lib, bu yorug' dunyoni tark etishdek ko'ngilsiz holatlar ham bo'lib turadi. Shuning uchun, odatda, suvga cho'milish mavsumidan oldin "Neptun" bayrami o'tkazilgan. Neptun suv xudosi timsolini o'zida ifoda etadi. Bayram tadbirida uning sha'niga "ramziy qurbonlik" uyushtiriladi. Bir

³³ Жураев М. Ёмғир ёғдириш маросимлари // Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008. – Б.160-185.

yoki bir necha bola suvga itariladi. Bu bolalar Neptunga qilingan qurbonliklar ramzini ifodalaydi.

Folklorshunos A.Musaqulov aytganidek: “Jahonning deyarli barcha xalqlarida go’daklar va kelinchaklarni ritual cho’mltirish, marhumni yuvish odati borki, bu ham suv kulti va uning magik kuchiga inonch bilan bog’liq. Bu cho’mltirish va yuvishlar parstial magiya qonuniyatiga ko’ra, suvdan o’tish bilan teng bo’lib, go’dak, kelinchak, marhumning mohiyati o’zgarganligi, bir dunyodan ikkinchi olamga o’tayotganligini anglatadi”.³⁴

Odatda, chaqaloq tug’ilib, 10-12 kunga to’lgach, uni birinchi marta ritual (marosimiy) cho’mltirish tashkil qilingan. Bu marosim orqali bolani shunchaki ozoda tutishgina emas, balki chaqaloqning butun umri davomida dard-alam ko’rmay, rohat farog’atda yashashi ko’zda tutilgan. Bu orzu-istak shu marosim ijrosi jarayonida aytiladigan aytim-olqishlarda ham o’z tajassumini topgan:

Suv log`ar, bacha-farbeh,
Bolaning taniga malham bo`lsin suv,
Bolaning tanidan nopoklikni yuv.
Hamma vaqt rohatlikda bo`lsin shu bolam,
Ko`rmasin sirayam hech dardu alam.

Yoki:

Suv-pok, sen pok;
Pok suv senga bo`lsin.
Seni nopokliging,
Amiru xonlarga bo`lsin.

Xullas, bunday aytim-olqishlarda chaqaloqning kun sayin semirib, shiddat bilan sog`lom o’sishi orzusi etakchi motivdir.

Yakshanba-bir man go`sht,
Dushanba-ikki man go`sht,
Seshanba-uch man go`sht,
Chorshanba-to`rt man go`sht,
Payshanba-besh man go`sht,
Suv-log`ar, bacha-farbeh.

³⁴ Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

Chaqaloqni cho'miltirish ko'p hollarda beshik to'yiga muqaddima bo'lib, aslida bola ana shundan keyin beshikka solingan. Bolani beshikka bog'lash marosim sifatida tantanali nishonlanadi. Uning o'ziga xos an'analari bo'lib, hamon davom etib kelmoqda.

«Chilla quvdi» (Buxoroda «Chilla gurezon») deb ataluvchi marosimdan oldin ham ona-bola hammomda maxsus yuvinishgan. Buning uchun ona yuvinish supasida shipga qarab cho'ziladi. Irimni amalga oshirayotgan ayol chaqaloqni ona qorni tepasiga dast ko'targan holda uning ustidan qirqqacha sanab, suv tomchilatadi: suv maxsus obigardonda olingan bo'lib, u «tosi chil kalit»-qirq kalitli tos deyiladi. Suv har gal tomchilaganda «bachchasining chillasi ochasiga ketsin» deb takrorlanadi. Ona ham o'sha qirq kalitli obigardonda boshidan qirq marta suv quyadi. Shu xilda yuvinilgandan so'ng ona-bola chillalaridan qutilgan hisoblanadilar. Nihoyat, chilla quvish chaqaloqni qarindosh-urug'lariga tanishtirish bilan nihoyasiga etadi. Buni ham ona-bolani hammomda cho'miltirib kelgan doya (enaga) yoki vakila amalga oshirgan.

Ko'p xalqlar qatori o'zbeklar orasida ham bo'lg'usi kelinni hammomda maxsus ritual cho'miltirish odati mavjud. Bu kelinning qizlik olamidan ayollar olamiga o'tishini bildirgan. O'zga olamga suv yo'li orqali boriladi degan ibtidoiy mifologik qarashlar asosida shakllangan bu udumdan, asosan, ikkita maqsad ko'zda tutilgan: 1) qiz unib o'sgan uyidan ketish oldidan hammomda ajdodlar ruhi bilan uchrashadi va suv uni magik poklaydi;³⁵ 2) shu yo'l bilan qiz o'zga olam vakiliga aylanadi.

Qadimgi slavyanlarda qiz ritual hammomga tushgan suvdan kuyovga ichirishar, shunda kuyov xotinini yaxshi ko'radi, deb ishonishar ekan. Bu odatda suv kulti va magiyaga inonch uyg'unlashib ketganligi kuzatiladi.

Nikoh marosimida suv yana nikoh ramzi hisoblanadi. Shuning uchun kelin-kuyovga nikoh suvi ichiriladi. Turkiylarning an'anaviy dunyoqarashida kelin-kuyov nikohgacha bir dunyo, nikohdan so'ng boshqa dunyo vakillari hisoblangan.³⁶ Qolaversa, nikoh suvi kelin-kuyovning ahil, farovon va serfarzand yashashiga magik ta'sir qiladi, deb ishonilgan.

³⁵ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

³⁶ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

Shu kabi tasavvur-tushunchalar asosida xalq she'riyatida ham, zamonaviy shoirlar ijodida ham suv muhabbat tuyg`usi bilan bog`lanadi.

O`tmishda qiz ovlovchi sovchilar qizi bor xonadonlarga suv so`rash bahonasida kirib borishga urinishgan. Agar borgan joylarida ularni sovuq suv bilan qarshi olsalar – yoqmaganlarini, issiq choy bilan qarshi olsalar ma`qul bo`lishganini ilg`ashgan. Bu odat o`zbek xalqining qadimiy turmush tarzini, o`ziga xos urf-odatlarini yorqin jilolantirgan “Alpomish” dostonida ham tasvirlangan. Unda etti qalmoq bahodirlaridan biri bo`lgan Ko`kaman tilidan shunday deyiladi: “Bular yotgan eliboy, bu qizlarga burilib borayin, borib bulardan qimiz so`rayin. Qimiz bersa, shu qizning birovini olaman, suv bersa, quruq qolaman, peshonamni shu erdan sinab ko`raman”. Shunday deb Ko`kaman alp eliboyning qizlaridan qimiz so`rab keladi. Uning gapini eshitgan Barchin esa kaniziga aytdi: “Bu qalmoq qimizni bizdan irim bilan so`rayapti. Bir jom suv bergin, bizdan suvday soviy ketsin, umidini uzib ketsin”, – deydi. Suqsur kaniz bekasining gapini qilib, jomni tiniq suvga to`ldirib Ko`kaman alpga uzatadi. Ko`kaman alp jomdagi qimiz emas, suv ekanini ko`rgach, achchig`i kelib, kanizning bilagiga qamchi bilan soladi. Jom jingirlab erga tushib ketadi. Suqsur kaniz Ko`kaman alpdan bu zulmni ko`rganiga ko`ngli buziladi.

Yodga olinsa, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida ham “qiz tanlash”ga chiqqan ayol Solih maxdumning xonadoniga kirar ekan, ishni suv so`rashdan boshlaydi.

Qadimda yoshlar bir-biriga sevgi dil izhorlarini, oila qurish taklifini, albatta, daryo yoki soy bo`yida aytishi udumi amal qilgan.³⁷ Xalqning suv bilan bog`liq bunday betakror qadimiy udumlaridan xabardor bo`lgan ayrim shoirlar o`z she`rlarida ularga ishora qilib o`tishi kuzatiladi. Jumladan, shunday ishoralardan biri A.Oripovning “Otello” she`rida uchraydi:

Sayr etib hovliqma soyning qo`shini.

Otello sha`niga salom aytaman.

Ziyorat qilaman mozorboshini.³⁸

Adabiyotda Otello – eng rashkchi er timsoli. Chunki u o`ta rashkchiligi sabab suyukli yoridan ayrilib, shirin turmushiga o`z qo`li bilan chek qo`yadi. Shu jihatdan u boshqa shunday erkaklarni hushyorlantiruvchi obrazdir. Shoir o`zbek teatr san`atida

³⁷ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

³⁸ Орипов А. Отелло / Ўша китоб. – Б.27-28.

mazkur obrazni mahorat bilan jonlantirgan Abror Hidoyatov xotirasiga she'r bag'ishlar ekan, uni "Otello" deb ataydi. Bu bilan shoir aktyor nomining elga tanilishiga, avvalo, shu roli sabab bo'lganligini nazarda tutadi. Darhaqiqat, Otello roli Abror Hidoyatov aktyorlik faoliyatining cho'qqisi edi. Demak, A.Oripov "Sayr etib hovliqma soyning qo'shini" misralari ohangida nafaqat o'z hislarini bayon etishni, balki she'rxonni yor, umr yo'ldoshi tanlashda hushyor bo'lishga undashni ham ko'zlagan deyish mumkin.

Motam marosimida ham suv kultiga inonch izlari ko'p kuzatiladi. Avvalo, jon talvasasidagi kishining oson jon berishi va bu jarayondagi qiyinchiliklarni engishi uchun yordam berish maqsadida atrofidagi yaqinlari uning og'ziga paxta bilan suv tomizib turishgan. Bu odatning kelib chiqishini G.P.Snesarev zardushtiylik dafn marosimlari bilan bog'lab izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, bu odat zardushtiylarning og'ir yotgan odam og'ziga tetiklik bag'ishlovchi obi hayot (muqaddas xaoma) sharbatini tomizib turish tasavvuri bilan bog'liq tarzda kelib chiqqan.³⁹ Shunga asoslanib, folklorshunos D.O'raeva o'zbek xalq motam qo'shiqlarida "ajal sharbati" birikmasi hamda shu udum tasviri aks etgan qo'shiqlarni aniqlagan:

Boshim yostiqa etganda,

Suyab suv bermadi hech kim.⁴⁰

Motam marosimida marhumni yuvish udumi ham bevosita suvga aloqador tushunchalarni o'zida ifoda etishi bilan e'tiborni tortadi. Marhumni yuvish marosimi uni dafn qilishdan oldin o'tkaziladi. Qadimgi insonlar o'likka – jonsiz tanaga nisbatan "nopok" deb qaraganlar. Shuning uchun poklik timsoli bo'lgan suv orqali uni yuvib poklash ko'zda tutilgan. Bu "poklik suviga solish" deb yuritiladi. Kishilar o'rtasida alohida o'lik yuvuvchilar bo'lib, murdasha'y, poksho'y, yuvg'uch, shustagar yoki g'assol degan nomlar bilan ataladi.⁴¹

Marhumni poklik suviga solgandan so'ng uni hech kimga ko'rsatmaydilar. Bu qattiq taqiqlanadi. Shundan so'ng o'lik butunlay o'zga olam vakili hisoblanadi.

Qadimda murdalarni maxsus yuvish xonalarida yuvib poklaganlar. Hozir esa bu ish uyda, marhum xonadonidagi biror-bir bo'sh xonada bajariladi. Ko'pincha

³⁹ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.132.

⁴⁰ Ўраева Д. Ўзбек motam marosimi folklori. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.; Бўзлардан учган газал-ай. – Бухоро, 2004. – Б.100.

⁴¹ Ўраева Д. Ўзбек motam marosimi folklori. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

musulmon xonadonlarida yuvish va yuvinish uchun mo'ljallangan maxsus kichik xonacha – tashnob qurib qo'yiladi.

Marhumni yuvishga kirishishdan avval yuvish xonasi va joyi tayyorlanadi. Qozonda suv isitiladi. Oq matodan maxsus qo'lqop tikiladi. Oq paxta hozirlanadi. Kafan bichiladi. O'lik yuvaladigan taxta, bo'ya, o'lik olib ketiladigan tobut keltirib qo'yiladi.

O'lik yuvish taxtasiga yotqizilgach, bir kishi kosa bilan uning tanasiga suv quyib turadi. Uni obandoz (suv quyuvchi) deydilar. O'lik yuvuvchi-murdasho'y esa qo'lga maxsus qopcha (qo'lqop) kiyib, oq toza paxta (poklik ramzi sifatida) bilan mayitni yuvintiradi. O'likni qo'lga qo'lqop kiyib yuvish odatining kelib chiqishiga ham marhumga nisbatan «motoza», «nopok» deb qarash aqidasi asos bo'lganligi shubhasiz.

Yuvish harakati uch kosadan suv bilan marhumning avval o'ng elkasidan boshlanadi va so'ng chap elkasiga o'tiladi. Keyin bosh qismi, so'ngra butun tana qismi yuviladi. Mayitga suv solib turilgan kosa yuvish marosimi tugashi bilan o'choq boshiga keltirilib sindirib tashlanadi. Bu xarakat asosida kontagioz magiyaga ishoq yotadi. Chunki o'likka ishlatilgan narsani tiriklar uchun ishlatish qattiq irim qilinadi. O'lik yuvintirilgan suv biror mevali daraxt tagiga shaloplatmasdan sekin to'kiladi.

Marhumni yuvish marosimining kelib chiqishiga ibtidoiy insonlarning suvni o'liklar va tiriklar dunyosini birlashtirib turuvchi magik vosita deb qarashlari hamda «obi hayot», ya'ni «tiriklik suvi» haqidagi mifologik tasavvurlari asos bo'lgan. Buning asosida marhumni yuvish bilan uni qayta tiriltirish maqsadi yotadi.

Ibtidoiy insonlar tasavvuriga ko'ra, marhum suv yo'li orqali u dunyoga-o'liklar saltanatiga kirib boradi. U o'lim ummonidan suzib o'tib, abadiy hayotga erishadi. Shunday tasavvur-tushunchalar asosida qadimda marhumlarni suvga tashlaganlar. Qizig'i shundaki, bu odat ba'zi joylarda hozirgacha saqlangan. Lekin marhumlarni suvga tashlash odati O'rta Osiyoda bo'lmagan. Bunga mahalliy an'analar «suvni murdor qilish» ma'nosida yo'l bermagan. Ammo suv u dunyo bilan bu dunyoni tutashtiruvchi yo'l, ularni bir-biridan ajratib turuvchi chegara degan tushunchalar bo'lgan. Buni Farg'onadan topilgan qayiq yoki sol ko'rinishini eslatuvchi qadimgi tobutlar ham tasdiqlaydi. O'liklar ruhi u dunyoga etib borishi uchun ariqda suzishi lozim deb tushunish marhumlarni daryoga, dengizga tashlash, kulini suvga sochish, baliqlarga em qilish odatlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan.

Suv yo'li orqali o'liklar mamlakatiga kirib borish haqidagi tasavvurlar xalq epik asarlarida qahramonning quduqqa tushishi orqali o'zga olamga kirib borishi yoki qahramonning kallasini tanasidan judo qilib, murdasini suvga tashlaganda, uning o'lmasligi motivlari shaklida saqlanib qolganligi bilan e'tiborni tortadi.

Qadimgi odamlar er osti dunyosida o'lgan kishilarga abadiy hayot baxsh etadigan afsonaviy manba bor deb tasavvur qilganlar va bu «suv» deb o'ylaganlar.

Xalq tiriklik suvi baxsh etgan mangu hayot haqidagi qarashlarini o'z ijodida Xizr, Ilyos kabi mifologik obrazlar timsolida mujassamlashtirgan bo'lsa, o'limdan so'ng hayotning davom etishi haqidagi qarashlarini quduq tubidan to qiyomatgacha makon tutgan Shohi Zinda haqidagi afsonalarda umumlashtirgan.

Mangu tiriklik suvi va uni er osti yoki suv osti saltanatidan izlab topish haqidagi mifologik motivlar o'zbek xalq afsonalari syujetida alohida o'rin tutadi.⁴²

M.Rahmonovanning fikricha, qahramonning obi hayot suvini axtarib er osti yoki suv osti dunyosiga safar qilishi haqidagi afsonalar, obi hayotning o'liklar olamida mavjud bo'lishi haqidagi mifologik tasavvurlar IV-III asrlarda Yunon-Baqtriya madaniyatining shakllanishi jarayonida O'rta Osiyo xalqlari folkloriga kirib kelgan.

Shumerlar folkloriga oid miflardan birida hikoya qilinishicha, Ishtar marhumlar makoniga safar qiladi. U marhumlar saltanatiga etib borgunicha etti darvozadan o'tadi. Har bir darvoza oldiga kelganida, u birorta kiyimini echganidan keyingina yo'lida davom etadi. Ettinchi darvozadan o'tgach, Ishtar o'limga duch keladi. O'lgan Ishtarni ma'bud Eyya Asushunamira Erishkigal ko'magida tiriltirishga erishadi. Ya'ni uning iltimosi bilan Erishkigal o'z saltanatidan bir mesh tiriklik suvini Ishtarning jonsiz tanasiga sepish uchun maslahatchisi Namtar bilan berib yuboradi. Tanasiga hayot suvi sepilgandan keyin tirilgan Ishtar er yuziga qaytib keladi.

Xullas, miflarga xos «jonsiz tanaga tiriklik suvini sepish orqali unga yana qayta hayot baxsh etish» motivi xalq marosimlariga ko'chib o'tib, marhumlarni u dunyoga kuzatishdan avval yuvib, poklash va shu orqali ularga abadiy hayot in'om etish e'tiqodining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatgan. Marhum tanasi yuviladigan suv magik kuchga ega deb qaraladi. Shuning uchun murdasha'ylar marhum yuvintirilgan suvning qolgan qismiga o'z yuz-qo'llarini yuvishadi. Ularning fikricha, bu suv odamni tetiklashtirar va yuvg'ichini marhum ruhi ta'qibidan asrar ekan.

⁴² Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-жилд. – Т.,1990. – Б.94-95.

Yuvish marosimi nihoyasida marhum yuvilgan joyga piyolada suv va oqqand, suprada un qo'yib qo'yadilar.

Murdasho'y o'lik egalari yuziga oftobani teskari tutgan holda sovuq suv sepib «Endi ko'ngillaringiz sovusin» deb aytadi. Bu bilan oraga tushgan ayriliqni badiiy ifoda etadi.

O'lik yuvishda, odatda, yangi paqir ishlatiladi va marosimdan so'ng u qabriston yoki mahalla machitiga berib yuboriladi.

Xullas, hayot bevosita suv bilan bog'liqligini yaxshi anglagan qadimgi odamlar uni tiriklik tushunchasi bilan bog'lab izohlaganlar. Shuning uchun suv nafaqat tirikka, balki o'likka ham jon baxsh etadigan mo'jizakor kuch sifatida tushunilgan. Bu kabi qadimiy tushuncha va tasavvurlar esa marhumlarni yuvib, ularga qayta hayot baxsh etish udumining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Oq buklamdan senga ko'ylak tikildi,
Buni ko'rib maning bo'ynim bukildi,
Etti qumg'on suvlar senga to'kildi,
Man yig'lamay endi kimlar yig'lasin?(B.u.g'.,82)

Ba'zi joylarda o'lik o'lgan kunning oqshomida agar uni kun kech bo'lib qolganligi tufayli ko'mishga ulgurmasalar, (masalan, avarlar) marhumni sovuq suvga solib saqlaganlar va bu suvni «jon suv» deb ataganlar.

Aytaylik, xotini o'lgan yosh erkaklar yoki eri vafot etgan yosh beva ayollar qayta turmush qurmoqchi bo'lganda, yonida ikki yoki uch kishi bilan birga qabristonga borib, marhumning qabri ustiga sovuq suv sepib: «Endi mendan ko'nglingiz sovusin, mening sizdan ko'nglim sovudi» deb qaytishgan. Go'yo shu yo'l bilan marhumning dilidagi muhabbat olovi o'chirilgan, o'z ko'ngli ham sovutilgan. Aks holda marhum go'r ichida yonib, azoblanadi-yu, yangi qurilgan oilaga ozor etkazadi, deya tasavvur qilingan.

Tushlarimda topib akam jasadin,
Otamning yoniga qazitdim qabr.
O'zim yonganimda ruhlar yondi deb
Xokiga suv sepib, tiladim sabr.⁴³

⁴³ Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.216.

Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” dostonidan olingan ushbu misralarda shoira qatagʻon qilingan begunoh akasining qabriga borib suv sepib, sabr tiladim deyishi orqali shu anʻanaga ishora qilayotganini anglash mumkin.

Xullas, qadimgi insonlar olovni, suvni, tuproqni inson ruhini oʻzga olamga koʻchirish vositalari deb sanagani hamda daryo va dengizlarni, togʻ va choʻllarni, oʻrmonlarni ruhning makon topadigan manzillari sifatida tasavvur qilgani uchun suv marosimiy mohiyat kasb etib, uning muhim vtributiga aylanib qolgan.

II BOB

ZAMONAVIY SHEʼRIYATDA SUV VA UNING ANALOGLARI

II.1. Suv hafzalari talqini

Xalqimiz orasida qadimdan suvga va u bilan bogʻliq joylarga, narsalarga nisbatan inonch va irimlar vositasida munosabatda boʻlib kelingan. Qizigʻi shundaki, bunday talqinlar zamonaviy sheʼriyatda ham folklorizm, postfolklor hodisasi sifatida uchraydi. Shu nuqtai nazardan oʻzbek sheʼriyati nazardan oʻtkazilsa, ayrim shoirlar ijodida suv va uning okean (**ummon**), **dengiz (bahr)**, **daryo (nahr)**, **koʻl**, **soy**, **irmoq**, **ariq**, **hovuz**, **quduq**, **buloq**, **chashma**, shabnam, shudring, tomchi (qatra), qor, muz, yomgʻir, halqob, girdob, koʻlmak, sharshara, favvora va boshqa analoglari obrazlantirilganligi kuzatiladi.

Zamonaviy shoirlar makoniy va tabiiy hodisalarni ruhiy talqinlar uchun obrazlantirishga harakat qilishar ekan, bunda bevosita suv va uning analoglariga ham keng murojaat qilganliklarini kuzatish mumkin.

Hatto ayrim shoirlarning suv havzalariga bagʻishlangan alohida sheʼrlari mavjud. Bunga Zulfiyaning “Okeanda”, “Balxash oqshomi”, E.Vohidovning “Qubbon koʻliga”, “Buloq”, “Chashma”, “Daryo oqshomi”, Omon Matjonning “Hovuz” Muhammad Alining “Irmogʻ”, “Tinch okean sohilida Choʻlponni oʻylaganim”, “Vashington koʻlida” singari sheʼrlarini misol qilish mumkin.

Okean suv havzalari orasida eng ulkani va qudratlisidir. Sheʼrlarda u oʻz maʼnosida ham, koʻchma maʼnoda ham talqin etilgani kuzatiladi. Quyida u oʻz maʼnosida – ulkan suv havzasini anglatib kelmoqda:

Okean, kema, qardosh, do'st,
Xurmolarida maymunlar.
Kun dengizda ming-ming ko'z,
Nurday ravshan ko'ngillar.⁴⁴

Ummon okean so'zining uslubiy ma'nodoshi bo'lib, she'riy asarlarda ko'pincha "ummon" so'zi uchraydi:

Siz – **ummon**, mehrda misli yo'q **dengiz**,
Bir so'z bilan aytсам, "Ona!" edingiz.⁴⁵

Muhammad Alining "O'zbekiston" she'ridan olingan ushbu misralarda ona-yurtning turfa boyliklarga kon keng bag'ri ko'chma ma'noda ummonga o'xshatilgan.

Ko'pchilik shoirlar sirlarga to'la hayotni sinoatlarga to'la ummonga o'xshatishadi:

Vatanim kemasini dolg'alardin omon qil,
Bu poyonsiz ummonda o'zing qo'lla, Oллоhim.⁴⁶

Xayol va orzu-umidlarning cheksizligini hududsiz ummonga o'xshatuvchi misralarga ham duch kelish mumkin:

Ummonday xayoling aylayman e'zoz,
Orzu-umidlaring xo'p avaylayman.
Dilingda junbushga tushsa ehtiros,
Men ham yuragimni shunga shaylayman.⁴⁷

Ayrim shoirlar ilm-ma'rifat olishning cheki-chegarasi yo'qligini inobatga olib, uni bevosita ummonga mengzashadi:

Ul Vatan elkanlarini
Ma'rifat ummonida
Qiblai imon sari
Burmoqni istaydir ko'ngil.⁴⁸

Dengiz yiriklikda ummondan keyin turuvchi ulkan suv havzalaridan biridir. Xorazmlik shoir Sotim Avaz "Huquq" deb nomlangan to'plamiga kiritgan "Chol va dengiz" she'rida "Orol" muammosiga nisbatan munosabatini badiiy aks ettirish

⁴⁴ Зулфия. Оксанда / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.148.

⁴⁵ Муҳаммад Али. Ўзбекистон / Сайланма. – Т.: Шарк, 1997. – Б.65.

⁴⁶ Воҳидов Э. Янги йил муножоти / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарк, 2010. – Б.35.

⁴⁷ Муҳаммад Али. Сенга бағишланган сонетлар / Сайланма. – Т.: Шарк, 1997. – Б.97.

⁴⁸ Воҳидов Э. Ватан истаги / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарк, 2010. – Б.21.

maqsadida zaminimizdagi bu ko'hna suv havzasi nomiga talmeh sifatida murojaat qilib yozadi:

Odamlar suvsiz,
ular ilojsiz,
kim beradi
ularga suvni..."
deya qurib bormoqda Orol.⁴⁹

Orolning quriy boshlashi nafaqat yurtimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasida sodir bo'layotgan eng yirik ekologik xavf, katta fojia edi. O'tgan asrning 60-yillari boshidan Amudaryo va Sirdaryoning suvini paxta va boshqa ekinlarga hisobsiz sarflayverish tufayli Orol dengiziga bu daryolarning suvi kelib quyilishi keskin kamayib ketdi. Oqibatda katta dengiz qurib, kichraya boshladi. Orol qurishi suv tarkibida zararli kimyoviy moddalar miqdorining ko'payishiga olib keldi. Bu esa odam sog'lig'iga ham zarar edi. Yuqoridagi misralarda aynan shu hayotiy haqiqatga ishora qilinayotir.

Bahr so'zi dengiz so'zining uslubiy ma'nodoshidir. She'riyatda bu so'z juda ko'p qo'llanadi. Dengiz obrazi ummon obrazi singari ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda uchraydi. Bu jihatdan quyidagi misralar fikrimiz dalili bo'la oladi:

Yotib yuvosh qayg'u komida
Yurak bildim, kichrayding cheksiz.
"Dengizman" deb o'yla kamida,
Dovullarni yutguvchi dengiz.⁵⁰

A.Oripov "Ruhim" she'rida dengiz obrazini "dayr dengizi" deya ko'chma ma'noda qo'llasa, "O'zbekiston" she'rida uni hududdagi yagona dengiz, qomusiy olim Beruniy tug'ilib o'sgan yurtdagi "Orol" suv havzasiga nisbatan o'z ma'nosida qo'llaydi.

Shoirlar ko'pincha ijodni dengizga o'xshatishadi:

Ijod dengizimning ma'sud jo'shqinin
Qo'msab, dil bisotin ochayotirman.⁵¹

She'riyatda **daryo (nahr) obrazi** ham eng ko'p qo'llanuvchi suv havzalari timsollaridan biridir.

⁴⁹ Сотим Аваз. Чол ва денгиз / Хуқук. Шеърлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б.4.

⁵⁰ Раҳимбоева Қ. Инсон / Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.33.

⁵¹ Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.164.

Har bir hududdagi suv havzalari o'sha hududning faxri va iftixoriga, milliy boyligiga aylanadi. Hatto ularning nomidanoq, she'r nima va qaer haqida ekanligini oson ilg'ab olish mumkin.

Nil qudratin jo'shib kuylar bir shoir,
O'zgasi Gang misol qilar zamzama.⁵²

Nil va Gang daryosi Hindiston hududiga tegishli. Shundan she'rdagi Hindiston haqida so'z yuritilayotganini payqash mumkin.

Muhammad Yusufning "Mahalliychilik" she'rida O'zbekistondagi yirik daryolar nomi sanab o'tiladi:

Jayhun katta daryo, **Sir** katta daryo,
Erkin daryo edi, hur katta daryo.
Ming irmoqqa ko'chgan bir katta daryo –
O'zbekni qiyratar mahalliychilik.⁵³

She'rdagi katta ulug' bir xalqning mahalliychilik oqibatida bo'linib ketishi "ulkan daryoning irmoqlarga bo'linib, asta-sekin o'z kuch-qudratini yo'qotishiga va qurib qolishga yuz tutishiga" o'xshatilmoqda. Qolaversa, buning tagida yana xalqimizning ardoqli daryolari: Jayhun (Amudaryo) va Sirdaryo nomining talmeh sifatida tilga olinishi bejiz emas. Shoir ularni o'zbek xalqining timsoli sifatida obrazlantirilmogda. Bunda shoir erkin va hur sifatlashlarini qo'llash orqali mazkur qudratli daryolar kabi toshqin qalbli xalqimizning mustabid tuzum davrida orzu-intilishlari bo'g'ib qo'yilganligini bildirmogda. Darhaqiqat, o'sha davrlarda paxta yakkahokimligi siyosati oqibatida Amudaryo va Sirdaryodan quvvat oladigan Orol dengizi asta-sekin qurib, o'lkamizda ekologik muammolar ortdi.

Sadriddin Salim Buxoriyning "Millat" she'rida tabiat hodisalari inson uchun Yaratgan tomonidan in'om etilgan ne'matlar ekanligi tilga olinadi. Aytish mumkinki, bu she'r MDH davlatlarining o'tgan asr oxirida sobiq ittifoq tasarrufidan asta-sekin chiqib, har biri mustaqil davlatga aylana boshlagan kezlarda ulardan ayrimlarining o'z hududidan oqib o'tuvchi suv hafzalarini xususiy lashtirishga harakat qilgani voqealariga tanqidiy munosabatni ifoda etadi. Jumladan, shoir yozadi:

Qaydan aniqlaysan
Havoning millatini?

⁵² Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.178.

⁵³ Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз, 21-бет.

Quyoshning millatini,
Daryoning millatini?⁵⁴

Shavkat Rahmon ijodida fikrning daryoga o'xshatilishi kuzatiladi. Fikrning daryoga o'xshashi oqim, dolg'alarni (xotira, tarix, munosabat, ishq, nafrat, muhabbat va h.k.) qa'riga olib, "berkitib" yurishi – o'ta nafis topilma. Insonning "daryoga aylanishi" ham uning qadimdan mavjud bezovtaligi, shiddati, qudrati, sokinligi, bu sokinlik ichidagi yashirin imkoniyatga ishora".

Daryoga aylandim,
o'ychan daryoga,
ruhimda qadimgi osoyishtalik.
Qa'rimga berkitdim dolg'alarimni
ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari.

Shoir daryoni o'zining xayolchan yuziga o'xshatgan. Zero, irmoqlar jildirab, shildirab oqib kelib, sokin va "xayolchan" daryoga qo'shiladilar.

Sho'rolar davrida paxta yakkahokimligi siyosati, markazga xomashyo sifatida ko'p miqdorda paxta etkazib berish maqsadi sabab O'rta Osiyo hududidagi barcha respublikalar qatori O'zbekistonda ham suv tanqisligi avj oldi. Zarafshon daryosi deyarli qurib bitdi. Orol ham halokatga yuz tutdi. Amudaryo va Sirdaryoning suvi kamayib, Orol atrofida ekologik vaziyat nihoyatda murakkablashdi. Bu fojia Shavkat Rahmonning "Orolga savol" she'rida yorqin o'z aksini topgan.

Holimiz ne? Chekibmiz qayg'u
Zarafshon suv bermasa agar.
Keltiribmiz Amuni majbur
Bizlar ushbu suvdan bexabar.⁵⁵

Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryo azaldan O'zbekistonning ko'rki va boyligi bo'lib kelgan. Ana shu sabab Hamid Olimjon "O'zbekiston" she'rida bu ko'hna o'lkani ta'riflar ekan, ular haqida shunday faxr bilan kuylagan edi:

Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan.

Yoki:

Chiroylidir go'yo yosh kelin,

⁵⁴ Садриддин Салим Бухорий. Миллат / Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.31.

⁵⁵ Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг ёши / Ўша китоб. – Б.40.

Ikki daryo yuvar kokilin.

Zulfiya Zarafshon haqida shunday yozadi:

– Zarafshon! Ey ona tuproqqa ko'krak,
Shohu gadoga teng ko'ksini ochgan,
Tuproq tirikligi, inson to'qligi,
Vodiy go'zalligi bo'lib zar sochgan.⁵⁶

She'rdagi daryoni insonga tenglashtirish, ayniqsa, odamning orzu-intilishlarini daryoga mengzash azaldan an'ana tusini olib kelayotgan holatdir. Shu an'anaga tayanib taniqli shoir Shavkat Rahmon bir she'rida "bo'g'ilgan daryo" obrazini tasvirlaydi:

Bir daryo,
tepadan bo'g'ilgan daryo...
shashtini sindirgan metin to'siqlar,
sanoqsiz toshlarni oralab oqar
elning tilidagi o'lmas qo'shiqday.
Balki, shundanmikin
uylar zichlashib
daryodan suv ichar podalar kabi.
Yulduzlar keladi cho'milmoq uchun,
bir qirg'oq turkiydir,
biri – arabiy.

Shoir daryoni elning tilidagi o'lmas qo'shiqqa, uylarni daryodan suv ichayotgan podaga o'xshatmoqda. She'rdagi markaziy obraz – daryo. U xalq timsolini ifodalab kelayotir.

Cho'lpon xalqni dengizga, to'lqinga o'xshatgani ma'lum. Shavkat Rahmon esa bu an'anani o'ziga xos davom ettirib, xalq timsolini daryoga o'xshatgan. Tepadan bo'g'ilgan daryo esa shashti sindirilgan, erk va ozodligi to'sib qo'yilgan, haq-huquqi toptalgan xalqni anglatadi. Darhaqiqat, sho'rolar davrida xalqimiz misli bo'g'ilgan daryo kabi hayot kechirdi. U o'z dardini ichiga yutib yashadi. Ayniqsa, ijod ahli ko'nglidagini ochiq-oydin yozolmadi.

“Iching!” – deydi menga o'rnini berib, –
Har daryo suvining o'z bahrasi bor!”⁵⁷

⁵⁶ Zulfiya. Yrati sh dardi / Tonng bilan shom aro. Saylanma. – T.: Shark, 2012. – B.191.

Bu she'riy misralarda xuddi har gulning o'z hidi, har odamning o'z xarakter-xususiyati mavjud bo'lgani kabi har daryo suvining o'z bahrasi borligi ta'kidlanayotir. Bu bilan olamdagi har bir narsa o'ziga xos va betakror bo'lishi anglatilmoqda.

Erkin Vohidov ellik yoshdan so'ng, to bugungacha bitilgan asarlarini "Umr daryosi" nomi bilan chop ettirgani ma'lum.

She'riyatimizda daryo obrazining ko'chma ma'noda kelishini ko'p kuzatish mumkin. Binobarin, u sifatlovchi aniqlovchisini tez-tez o'zgartirib turishi kuzatiladi:

G'uj-g'uj yulduz, oy xoliy,
boqasanmi?
Ishq daryosi oqar xayoliy,
oqasanmi?⁵⁸

Daryo inson fe'lining kengligini o'zida majoziy ifoda etib keladi:

"Ishlayvering, biz o'zimiz gapirishamiz,
Sal daryolik qiling faqat", deyishdi, qaytdim.⁵⁹

Ushbu misralarda "daryolik qiling" tushunchasi orqali "fe'lingizni keng qiling" tushunchasi anglatilmoqda.

Shoirilar daryoni ko'ngilga ham o'xshatishadi:

O'ylasam, o'ylarim etadi zada,
Ko'nglingiz ne o'zi – dengizmi, daryo?⁶⁰

Ko'l ham suv havzalaridan biridir. Qadimgi odamlar ko'llarni sirli manzillardan biri deb bilishgan. Bunga ko'l suvlarining oqmasligi, iste'molga yaroqsizligi asos bo'lgan. Muhammad Alining xalq qo'shiqlari usulida yozilgan "Ko'nglim guli" she'rida ko'l obrazi uchraydi:

Ko'ldan o'rdak uchibdi,
Nimadandir cho'chibdi.
Yorim qoshin qarosi
Yuragiga ko'chibdi.⁶¹

She'rda "nimadandir cho'chibdi" ifodasi bejizga keltirilmayapti. Shu orqali shoir xalqning ko'llarga nisbatan sirli deb qarash an'anasiga ishora qilayotir. Ayni

⁵⁷ Зулфия. Яратиш дарди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.192.

⁵⁸ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.25.

⁵⁹ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.54.

⁶⁰ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.65.

⁶¹ Муҳаммад Али. Кўнглим гули /Сайланма. – Т.: Шарк, 1997. – Б.78.

paytda shu sirni, noaniqlikni anglashga chogʻlangan inson qiyofasida oʻz sevgilisining yuragi qoshining qorasi kabi nega qora boʻlganligini bilishga chogʻlanayotir. Bu oʻrinda “qora” sifatlashini keltirilishi ham bejiz emas. Zero, koʻl suvlari oqmasligi bois koʻpincha qoramtir tusda boʻladi. Shundan “Qorakoʻl” toponimlari ham kelib chiqqan. Lekin qadimgi turklar “qora koʻl”ni “ulugʻ koʻl” maʼnosida ham anglagan. Negaki, qadimgi turklar qora rangni muqaddas va qudratli rang deb bilgan.

Soy – yana bir suv havzalaridan biri. Muhammad Alining “Bolaligim xotirasi” sheʼrida lim-lim oqqan soy timsoli shunday jonli tasvir etiladi:

Jazirada jizgʻanagi chiqqan biyobon,
Sap-sargʻaygan loyqa suvdan lim-lim oqqan **soy**.⁶²

Sadriddin Salim Buxoriyning sheʼrlaridan birida soy timsoli shunday keltirilgan:

Qishloqdan yozib quloch,
Kelar **soy** sari,
Rembrantning yalangʻoch
Farishtalari.⁶³

Oʻzbek xalq topishmoqlarida suv toʻppadan-toʻgʻri uzun boʻyli qiz koʻchimi vositasida ifoda etiladi:

*Uzun-uzun iz ketdi,
Uzun boʻyli qiz ketdi.
Toshga tegdi taq etdi,
Sirgʻalari yarq etdi.*

A.Musaqulov taʼkidlab oʻtganidek, oʻzbek xalq lirikasida uzun boʻy, uzun soch ayol goʻzalligining mezonlaridir.⁶⁴ Shuningdek, qadimgi manbalar orqali etib kelgan asotirlarda suv maʼbudasi qaddi-basti kelishgan goʻzal ayol qiyofasida tasvirlanadi. Bunga “Avesto”dagi suv ilohasi Adrvisura, yaʼni Anaxitani misol qilish mumkin. Demak, shu kabi xalqona tasavvur-tushunchalar asosida Sadriddin Salim Buxoriy soy sari oqib kelayotgan suvni goʻzal malak sifatida ifoda etmoqda.

Anhor – nahr, yaʼni daryo soʻzining koʻpligi. Lekin anhor daryodan kichik, soydan kattaroq boʻlgan suv havzasidir.

⁶² Muhammad Ali. Bolaligim xotirasi /Sailanma. – T.: Shark, 1997. – B.68.

⁶³ Sadriddin Salim Buxoriy. Shergiron kishloqi / Usha kitob. – B.54.

⁶⁴ Musaqlulov A. Uzbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 308 b.

Anhorning bo'yida o'ltirar qizlar,
Yurakda qaynaydi noaniq hislar.
Bo'tana suv oqar lim-lim, limmo-lim,
Suvday olib ketar qizlar xayolin.⁶⁵

Olimlar qadimda qayliqni suv yonida saylash va o'sha joyda nikohdan o'tish odati amal qilganligini bildirishadi. Shu tarixiy dalilni bilgan shoir bejizga yuragida noaniq hislar qaynab, ming hayajon bilan **Anhor** bo'yida o'ltirgan qizlar obrazini yaratmayotir.

Buloq – she'riy asarlarda kurashuvchanlik va intiluvchanlikni ramziy ifoda etuvchi an'anaviy suv timsollaridan biri. Chunki er osti suvlari er yuziga chiqish uchun otilib harakat qiladi. O'ziga kichik bo'lsa ham yo'l topib, oqishga intiladi. Buloq suvi er ostidan sizib chiqqani sabab minerallarga juda boy bo'ladi. Shuning uchun ko'pincha buloq suvlari shifobaxsh sanaladi.

Erkin Vohidov "Buloq" she'rida buloq suvni shunday ta'riflaydi:

Buloq ona-Er siynasidan
She'r singari qaynab oqadi.
Suvning kumush oynasidan
Mehrim bo'lib quyosh boqadi.
To'yib ichdim, suv bilan go'yo
Dilga singdi yurt muhabbati.
Tashnaligim qondi-yu, ammo
Yana ortdi qalb harorati.⁶⁶

Shavkat Rahmon esa buloq haqida quyidagi satrlarni bitgan:

Ulug`vor,
nuroniy tog`lar ortida
teran tomirlarin uzgan gunohkor –
zilol buloqlardan benasib dunyo,
adashgan, yig`lagan
bitta dunyo bor.⁶⁷

⁶⁵ Мухаммад Али. Қизлар ўн еттига кирганда / Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.86.

⁶⁶ Вохидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.27.

⁶⁷ Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 144.

A.Oripovning “Buloq” she’ri kurashchanlikka, mustaqillikka undash g’oyasi bilan sug’orilgan. Unda har bir kishi hayotda o’z o’rnini o’zi kurashib topishi lozimligi aytiladi.

Qutlug` bir saharda ko`z ochdi **buloq**,
Yo`l soldi daryolar sari adashib.
Unga rahm etmoqchi odamlar shu tob,
Tog`u toshlar aro yaqin yo`l ochib.
Odamlar, tegmangiz, mayli toshsin u,
Mayliga tog`ni ham ko`rsin yo`lida.
Qo`ying, o`z yo`lini o`zi ochsin u,
Zavqlansin u ham kurash so`ngida.

Ko`rinyaptiki, buloq – boshdan-oyoq ushbu she`rning asosiy mavzu ob`ekti.

Chashma buloq singari er ostidan otilib chiqadi. Shuning uchun u ham shifobaxsh sanaladi.

Chashma qoshida tiniq suv
Qadrini bilmas kishi,
Sayr etib gulshanda gulni
Ko`ziga ilmas kishi.⁶⁸

Chashmalarning suvi hamisha tiniq va orombaxsh bo`ladi. Shuning uchun shoirlar uni ko`pincha “zilolsuv chashmalar” deya sifatlashadi:

Zilolsuv chashmalar, hayhot, quribdi,
Kelajak yoqamdan tutib turibdi,
Arvo hmi, Xudomi bizni uribdi,
Buxoroni zaxga botirgan kimlar?
Fitrat, Fayzullani ottirgan kimlar?⁶⁹

Shoir Sadridin Salim Buxoriy qalamiga mansub ushbu satrlarda “zilolsuv chashmalar” deganda inson ruhini poklovchi ma`naviy komillik belgilari ifoda etilmoqda. Negaki, shoirning ona yurti sanalgan – ko`hna va boqiy Buxoro aziz qadamjolarga boy shahar. Biroq shu qadamjolarining istiqloq yillarigacha oyoq osti qilingani sir emas. Natijada ular huzuridagi shifobaxsh zilol chashmalar ham ko`pisi qurib ketdi. Shoir she`rda shu hayotiy haqiqatni ochish uchun bevosita chashma

⁶⁸ Воҳидов Э. Ватан кадри / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2010. – Б.27.

⁶⁹ Садриддин Салим Бухорий. Бухорони захга ботирган кимлар / Ўша китоб. – Б.32-33.

obraziga murojaat qilayotir. Qolaversa, Buxoro – tuproq shoʻrlanishi baland boʻlgan hudud. Bu zaminda er osti zax boʻlgan sizot suvlarining miqdori ancha baland. Shuning uchun Buxoroda binolarning zax tufayli emirilishi, tuproq shoʻri oqibatida hosildorlikka zarar etishi hollari koʻp kuzatiladi. Ayniqsa, shoirmi Buxoro dongʻini olamga yoygan tarixiy obidalarining zaxga botib borayotgani koʻproq tashvishlantiradi. Shu orqali shoir “zax suvlar” obrazini ham oʻz maʼnosida, ham koʻchma maʼnoda qoʻllab, dilidagi asosiy fikrni aytishga chogʻlanadi. Jumladan, shoir “Buxoroning yoshi” sheʼrida shunday deydi:

Ikki ming besh yuz yil sana...
Ikki ming... Muarrix hayron.
Shahristonning tubiga etmay
Suv chiqadi, yoʻq oʻzga imkon.
Qavat-qavat shahar qatlami,
Qarilarga hamogʻush yotar.
Ne sir borki, Buxoro suyga
Oʻz yoshini solib yoʻqotar?⁷⁰

Bu sheʼrda shoir zax suvni oʻz maʼnosida qoʻllab, shunday sharoitda ham Buxoro obidalarining bu qadar koʻp yashaganligiga hayratini yashirmaydi. Ayni paytda mavjud sharoitga bu qadar chidamli inshootlarni bunyod eta olgan ajdodlarimiz aqlu shuuriga, bilimdonligi va mahoratiga hayron qoladi.

Muarrix der: “Poyingdagi suv
Qaydan boʻlgan ekandur paydo?
Tubsiz bahr ustida shahar,
Tubsiz bahr ustida sahro?”
Koʻzyosh toʻkding, poyingdagi suv
Shu yoshlarmi etayapman his!
Shuning uchun ekanmi yoxud
Koʻzyosh bilan yosh soʻzi hamjins?
Belgimidi koʻzyosh miqdori
Yo moziyda muborak sindga?
Ey Buxoro! Poyingdagi suv
Ne boʻlsa ham muborak senga!

⁷⁰ Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг ёши / Ўша китоб. – Б.39-41.

Shoir “Buxoroni zaxga botirgan kimlar” she’rida “zax suv” timsolini endi ko’chma ma’noda ham qo’llaydi:

Tug`larni chopgan kim, ruhlar darbadar,
Qaerda haqiqat, qaerda zafar?
Harom zaharga em muqaddas shahar,
Buxoroni zaxga botirgan kimlar?
Fitrat, Fayzullani ottirgan kimlar?⁷¹

Ko’rinyaptiki, shoir she’rda muqaddas shaharni bosib olib, uni vayrona holiga keltirgan, aziz avliyolar qadamjolarini oyoqosti etgan, yiqib toptagan, boyliklarini tortib olgan, atoqli kishilarini yo’q qilgan mustabidchilarni qoralamoqda. Ularning beayovligini zax (achchiq) suvga qiyoslamoqda. Shoir Buxoro tabiatidagi zaxlik tufayli moddiy emrilish yuz bergan bo’lsa, zax kabi bostirib kelgan bosqinchilar tufayli ma’naviy emrilish yuz berganini bildiradi.

Irmoq – suv yo’llaridan biri. Ko’pincha ular tog’dan enib keladi. Shuning uchun shoirlar uni tiriklikning, hayot yoki iste’dodning boshlanishi sifatida ko’chma ma’noda talqin etadilar. Tozalikning boshi, katta yo’lga chiqish azobi, o’z yo’li, o’z ovozi, qiyofasini topayotgan yosh kuch, ijodkor, daryoning qon tomiri irmoq timsolida mujassamlantiriladi.

O’ylayman yashamoq mohiyatini,
Qattiq nigohlarim osmon xatida,
Vujudim sezmayman,
lazzat olaman
har fikr – ruhimning harakatidan.
Biroq o’jar kunduz
tovlanar ekan,
yashil zamzamali yiroq tog`lardan
irmoqlar – jodugar pari qizlari
Boshlab kelar toshloq qirg`oqlarimga.⁷²

Shoir xayoliga quyilib kelayotgan fikr-o’ylarini, kechinmalarini daryoga o’xshatayotir. U shu sokin oqim, hayot qa’rida o’z umri, kurashlarining mohiyatini sezadi, ruhan engil tortadi. Bu misralarda Shavkat Rahmonning irmoqni boshqalardan

⁷¹ Садриддин Салим Бухорий. Бухорони захга ботирган кимлар / Ўша китоб. – Б.32.

⁷² Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 22

farqli badiiy ta'riflaganini kuzatish mumkin. Shoir irmoq obrazini jodugar pari qizlariga, ya'ni o'z go'zalligi va maftunkorligi bilan insonning xayolini o'g'irlaydigan sehrli kuch sohibalariga o'xshatgan. U orqali yangi fikr yangicha tasavvur ifoda etilgan.

Shoir irmoqning yoqimli shildirab oqishini pari qizlarning sho'x va jarangdor ovozigina o'xshatadi.

Ey ko'ngil, Alloh nazargohi erursan, ne sabab,
Men tiniq irmoq deding, irmoqdan ibrat olmading.
Necha ranju har balo to'liqini kelsa basma-bas
O'zni qirg'oq deb atab, qirg'oqdan ibrat olmading.⁷³

Sadriddin Salim Buxoriyning yuqoridagi satrlarida ko'ngil irmoqqa o'xshatilyapti. Chunki irmoq xohlagan tomoniga tarqab oqib ketgani kabi ko'ngil ham ba'zida insonni xohlagan yo'lga va ko'yiga soladi.

Ikki yonbag'irdan tushgan qo'sh irmoq
Birikib soy bo'lib oqqani kabi,
Qamar ko'zgusiyu quyosh shu'lasi
Uchrashib oy bo'lib boqqani kabi.⁷⁴

Bu misralarda "qo'sh irmoq" – kelin va kuyov ramzi bo'lsa, "soy" oila ramzini o'zida badiiy ifodalab kelmoqda.

A.Oripov hayotning jo'shqinligini "shovqin daryolar" timsolida aks ettirsa, o'tayotgan har bir kuni mayda **jilg'alarga** mengzaydi. Jumladan, shoir "Sarob" she'rida shunday yozadi:

Kunlarimiz jilg'alarday o'tdilar oqib,
Maktab bordik – og'ir bo'lib qoldik daf'atan.
Devordagi arslon yolli kartaga boqib
Sekingina shivirlashdik: mana shu Vatan!⁷⁵

Ushbu she'r o'tgan asrning oltmishinchi yillari o'rtalarida, ya'ni mavjud tuzum mafkurasidan norozilik kayfiyatlarini ro'y-rost, ochiq-oshkora aytmay, dildagi alam va istaklarni faqat pinhona, yashirin, ramziy aytish mumkin bo'lgan davrlarda yozilgan. Shunda shoirlar uchun suv obrazi ham ramziy vositalardan biri sifatida yordamga kelgan. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi misralarda shoir "jilg'a" obrazi

⁷³ Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroga Buxoro kelди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.20.

⁷⁴ Вохидов Э. Муборакбод / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2010. – Б.51.

⁷⁵ Оripов А. Сароб / Ўша китоб. – Б.44-47.

vositasida umrining kunlari mustabid tuzum sharoitida befoyda oqqan suv kabi besamar kechgan insonlar hayotini gavdalandirgan. Ayni paytda, “jilg`a” obrazi vositasida shoir, asosan, yoshlar obraziga ishora qilgan. Chunki hayotda jilg`alar, odatda, oqib soylarga ulanadi. Soylar esa daryolarga, daryolar dengizlarga, dengizlar borib ummonlarga tutashadi. Shuning uchun shoir ham mustabid tuzum maktablarida hukmron mafkura izmiga solingan yosh (jilg`a)larning “og`ir bo`lib qolgani”, “sekingina shivirlashi” ramzida o`ylaganlari va o`rganganlari keyingi manzil (yangi tuzum sharoiti)da sarobga aylangan insonlar obrazini yoritgan va shu orqali ular umriga achinishini ifoda etgan.

Yoshlar timsolini “jilg`a” obrazida berish ko`p kuzatiladi. Binobarin, bunda yoshlar timsoli xarakter-xususiyatiga ko`ra ko`pincha “hovliqma jilg`a” ramzida beriladi:

Hovliqma jilg`alar chopar beega,
Qushlar qiy-chuviga to`lmish dala, bog`.
Sening visolingdan quvonmay nega,
Bahor, sog`intirding axir ko`p uzoq!.

Yoshlar hayotini, tabiatini, ruhiyatini bahorga mengzash – she`riyatdagi azaliy an`analardan biri. Bahor kelishi bilan tog`dagi qorlar erib, son-sanoqsiz jilg`alarni hosil qilganча zilol suvga to`lib-toshib oqishi esa betakror go`zal manzaradir. Ayniqsa, uning hovliqib-hovliqib oqishi bevosita yoshlar jo`shqinligini yodga soladi. Ana shu mantiqiy o`xshashlik sabab ko`pincha bahor fasli madhiga bag`ishlangan she`rlarda, albatta, “hovliqma jilg`alar” madhi ham qo`shilib keladi. U orqali she`rga jo`shqinlik ruhi, quloqqa chalinuvchi yoqimli sadolar singdiriladi.

A.Oripovning “Bahor” she`ridagi jilg`a obrazi she`rning asosiy obrazi emas. Bu she`rning asosiy obrazi – bahor. Jilg`a esa uning bir qismi, xolos.

Xullas, xalq she`riyatida bo`lgani kabi zamonaviy she`riyatda ham ummon, dengiz, daryo, ko`l, soy, anhor, irmoq, chashma, jilg`a kabi turli suv havzalari har xil poetik ma`nolarda obrazlantiriladi. Ular goh o`z ma`nosida, goh ko`chma ma`noda qo`llanib, shoirning lirik munosabatini oydinlashtirishga, uning hissiy kechinmalarini yoritishga xizmat qiladi.

II.2. Suv inshootlari talqini

Insonning qo'l kuchi, aql-zakovati bilan yaratilgan suv inshootlari ham bor. **Kanal** shunday suv inshootlaridan biridir. U orqali suvdan yiroqlikda tashkil etilgan ekinzorlarga obi hayot olib boriladi. O'zbekistonda nom qozongan kanallar ham bor. Ulardan biri o'tgan asrda yuz bergan ikkinchi jahon urushi yillarida Farg'onada qirq besh kunda xalq kuchi bilan qo'lda yaratilgan "Katta Farg'ona kanali"dir. Kanallar qishloq xo'jaligining jon va qon tomiri hisoblanadi. Shuning uchun o'lkamizda agrar xo'jalik rivojlangan iqtisodiy tarmoqlardan biri bo'lgani sabab o'zbek shoirlari ijodida kanal obrazi tasviriga ham alohida e'tibor qaratilgani kuzatiladi.

Kanal yoqasida shovullar mag`ur
Osmonga sanchilgan mirzateraklar.
Suvday pok, terakday qaddi tik erur
Seni deb yaralgan toza yuraklar.⁷⁶

Muhammad Alining "O'zbekiston" she'ridan olingan bu misralarda shoir ikki chetiga mirzateraklar ekilganidan atrofi so'lim va bahavo bo'lgan kanalning tarovati yurt go'zalligiga yanada ko'rk qo'shib turganini va bu go'zallikning bunyodkorlari esa suvday pok qalbli, terakday tik qaddu bastli, toza yurakli yurtdoshlari ekanligini faxr bilan ta'kidlayotir.

Shoira Zulfiya ham kanal obrazini qo'llab, "Harorat" she'rida shunday deydi:

Ko'raman: tuprog'im ko'ksida qon tomir singari
Sahroga jon berib oqadi **kanallar**.⁷⁷

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kanallarni qishloq xo'jaligining qon va jon tomiriga mengzashadi. Aynan shuning she'rdagi isboti esa mana Zulfiya ijodida kuzatilmoqda.

Umon Azim suvning analoglaridan biri bo'lgan **ariqni** tasavvufiy ma'nolarda qo'llashga intilgani kuzatiladi:

Ariqdan suv ichsak –
May bo'ladi u.
Dunyo – eski ko'za –

⁷⁶ Мухаммад Али. Ўзбекистон / Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.67.

⁷⁷ Зулфия. Ҳарорат / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.73.

Tugamas mastlik.⁷⁸

Demak, Usmon Azim tasavvufiy tushunchalar asosida ariqni ko'ngilga, uning suvini mayga (ilohiy ishqqa), dunyoni esa eski ko'zaga o'xshatmoqda.

Yana:

Sabolarda o'ynaydi navo,
Ariqlarda suv oqadi shan.
Ohanglarga to'libdir havo,
Benavosan nechun yolg'iz san?⁷⁹

Bu she'riy misralarda ham xalq lirikasidagidek ariq bo'yi dillarni dillarga payvand qiluvchi, ehtirolarni jo'shqinlashtiruvchi joy. Shuning uchun u ko'pincha ishqni talab etuvchi ko'ngil ramzi bilan bog'lab talqin etiladi.

Ariq so'zi Xorazm shevasida “yop” deb yuritiladi. Xorazmlik shoirlar ijodida ariqning **yop** deb berilganini kuzatish mumkin:

Yo'q edim-ku soy, **yoplar** cho'kib,
Suvlar tildan qolgan chog'ingda;
Quyosh seni ovutib, o'pib,
Yana o'zi yongan chog'ingda.⁸⁰

Ariqcha – ariqdan ajralib chiqqan kichkinagina suv yo'lidir. She'riyatimizda ariqchani ham obrazlantirilgani kuzatiladi.

Ishni sozlab, **ariqchada**
Yuvar ekan qo'lini
So'rab borar manzimiz,
Aytdi yaqin yo'lini.⁸¹

Ariqcha she'rdagi farzand g'oyasi bilan ham bog'lanishi mumkin. Yana she'rlarda o'qariq obrazi uchraydi:

Seni yaxshi ko'raman
Tilga kirdi shu bahor bu **o'qariq**,
Gulga kirdi ana, g'o'za ko'karib...

G'o'zalarni sug'orish uchun tayyorlangan ensiz, uzun-uzun ariqchalar dehqonlar tilida “o'qariq” deb yuritiladi.

⁷⁸ Usmon Azim. Фонус. Шеърлар. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2010. – Б.5.

⁷⁹ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.22.

⁸⁰ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.40.

⁸¹ Воҳидов Э. Фарғона йўлларида / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарк, 2010. – Б.149.

Sadriddin Salim Buxoriy she'rlarida ko'hna va boqiy Buxoro timsoli va faxriga aylangan chashma va **hovuzlar** suv analoglari sifatida ko'zga tashlanadi:

Yuragim misoli Buxoro,
Muqaddas – tunlari, kunduzi,
Daryolar qurisa hamki hech
Qurimas **chashmasi, hovuzi**.⁸²

Labi Hovuz – ko'hna Buxoro shahrining ramziy timsoliga aylangan so'lim go'shalardan biri. Kimki Buxoroni ziyorat qilishga kelsa, u erda dam olmay ketmaydi. Ayniqsa, unga soya solib turgan ko'p asrlik tutlar kelganlarga tarixdan so'zlaydi. Shuning uchun shoir bu haqda alohida to'xtalib:

“Labi Hovuz tutlari
Neni xotirda tutgay?
Buxoro burgutlarin
Nahot ular unutgay?” – deb yozadi.⁸³

Shoirming “Ko'milgan hovuzlarga marsiya” she'rida ko'milib, yo'q qilib yuborilgan Buxoro hovuzlariga qattiq achinish hissi ifoda etilgan. Chunki Buxoroda keksa me'mor-muhandis Ismat Muhsinovning yozishicha, o'tgan asrning boshlarigacha o'ndan ortiq hovuz mavjud bo'lgan. Hozir esa juda ozi saqlanib qolgan.

Daraxtni etaklab bo'lmasa,
Hovuzning labiga cho'kdi tiz.⁸⁴
Hovuz betidagi ajinlar
Ertak kabi tuyuldi bu kech,
Hovuz betidagi ajinlar
Asrlarki, ketmaydilar hech.⁸⁵

Shoir hovuz suvining jimirini bejizga ajinga o'xshatmayapti. Bu bilan u ko'hna hovuzlar timsoliga ishora qilyapti. Chunki ajin keksayib qolgan insonlarninggina yuzida bo'ladi. Ana shu sabab shoir hovuz so'zini bevosita “ko'hna” sifati bilan bog'lab, ularni aniqlovchi va aniqlanmish munosabatli birikma ko'rinishida qo'llaydi:

Ko'hna tol, ko'hna hovuz,

⁸² Садриддин Салим Бухорий. Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.44.

⁸³ Садриддин Салим Бухорий. “Рўмолча” номли тўпламдан / Ўша китоб. – Б.36.

⁸⁴ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.61.

⁸⁵ Садриддин Салим Бухорий. Лаби Ҳовузи Девонбегида / Ўша китоб. – Б.57.

Esmoqda yangi shamol.⁸⁶

Bu misralarda ko'hna tol va ko'hna hovuzga yangi shamolning tazod qilinayotgani ham bejiz emas. Bu orqali shoir o'tmish va bugun voqeligini qarshilantirmoqda. Ko'hna Labi Hovuzning istiqloq yillariga kelib, obodonlashtirilganligiga badiiy ishora qilmoqda.

Omon Muxtorning "Hovuz" nomli alohida she'ri ham bor bo'lib, u Buxoro hovuzlarining ta'rif-tavsifiga bag' ishlengandir.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov mustabid tuzum davrida yaratgan "Tilla baliqcha" nomli mashhur she'rida umrini loyqa hovuzda o'tkazib, shu tor hovuzchadan o'zga dunyoni ko'rmagani sabab unigina "dunyo" deb anglagan tilla baliqcha obrazidagi insonlar qiyofasini badiiy ifoda etadi.⁸⁷ Bunda shoir "loyqa hovuz" obrazini ramziy ma'noda qo'llagan. "Hovuz" obrazi she'rida mustabid jamiyatni, unga sifatlovchi bo'lib kelayotgan "loyqa" aniqlovchisi esa bu jamiyatning illatlarga to'lib toshganligini anglatadi.

Quduq ham inson qo'l kuchi va aql-zakovati bilan bunyod etib kelingan suv inshootlaridan biridir. Qurg'oqchilik vaqtlarida, ayniqsa, cho'l zonalarida qanday yashash tajribasi qadimgi tajribalar asosida rivojlangan. Odamlar suvni asrashni, chuqur qazishni va uni toza saqlashni o'rganganlar. Shu asosda quduq qurish, hovuz yashash tajribalari paydo bo'lgan.

Muzday quduq suvi tashna insonning tanasini yayratib yuboradi. Ayniqsa, cho'l-u dashtlardagi quduqlar insonni tashnalik tufayli yuz berishi mumkin bo'lgan halokatdan saqlab qola oladi. Shuning uchun qadimdan ajdodlarimiz quduqni homiy, sirli madadkorlar qo'nim topgan joy sifatida e'zozlab kelishadi. Hatto ertak va afsonalarda quduq o'zga, sirli manzilga olib boruvchi yo'l sifatida badiiy talqin etiladi.

Yarim jon emasman. Bilganingni qil:

Qurit menga taraf yurgan daryoni.

Bir **quduq** qazirman yo'qotib, oy, yil,

Daryoday oqsa-da qo'limning qoni.⁸⁸

She'rida aytilayotganidek, quduqni barpo etish oson ish emas. Shuning uchun xalq orasida "Bir kishi quduq qazar, ming kishi suv ichar" yoki "Igna bilan quduq

⁸⁶ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.55.

⁸⁷ Орипов А. Тилла балиқча / Ўша китоб. – Б.23.

⁸⁸ Раҳимбоева Қ. Қатъий аҳд / Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.15.

qazmoq” deb bejizga aytilmaydi. Bu jihatdan Zulfiyada shunday she’riy misralar uchraydi:

**Igna bilan men qazib quduq,
O’sha chashma ko’zin ochaman,
Kor qilmasa qalbidagi o’t,
Sochim yoqib uchqun sochaman.**⁸⁹

Yana:

Tabiatda bo’shliq bo’lmaganiday,
Umrimda bir benaf yo’qdir oro yo’l,
Quduq hech jahonda to’lmaganiday,
Aslo tugamasin menga oro yo’l...⁹⁰

Favvora – zamonaviy suv inshootlaridan biridir. Ular tevarak-atrofga go’zallik bag’ishlashdan tashqari salqinlik ham bag’ishlaydi. O’zbekistonda Toshkent favvorolari juda mashhur. Hatto yaqinda Toshkentda favvoralar sayli ham o’tkazildi.

Ko’sak shaklidagi billur **favvora**,
Yomg’irida o’ynar bolalar g’ujg’on.⁹¹

Favvoralar turli shakllarda, kishilarga estetik zavq bag’ishlaydigan ko’rinishlarda quriladi. Yuqoridagi misrada paxta ko’sagi shaklida yaratilgan, billur tovlanishli favvora surati tasvirlanmoqda. Sho’rolar davrida paxta yakkahokimligi siyosatini insonlar qalbiga, ong-u shuuriga chuqurroq singdirish maqsadida barcha narsalarga paxtaning surati va siyratini singdirishga katta ahamiyat qaratilgani ma’lum. Hatto bu ish favvoralar ko’rinishi vositasida ham amalga oshirildiki, shoirlar shu haqiqatni o’z she’rlari orqali xalqqa etkazishga intilishdi.

Suvxona – basseynlar ham suv inshootlaridan biri sifatida ba’zan she’rda obrazlantirilgani kuzatiladi:

Adib atrofiga boqar-u to’ymas:
O’ngda yashillanib o’sar nihol bog`,
Choyxona, **suvxona**, gulxona – xullas,
Quyoshdan qochganga mazgil hamma yog`.⁹²

⁸⁹ Zulfiya. Uylar... / Tong bilan shom aro. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.60-61.

⁹⁰ Zulfiya. Орада саҳифа қолибди бўм-бўш / Tong bilan shom aro. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.91.

⁹¹ Zulfiya. Навоий юраги уриб турибди / Tong bilan shom aro. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.197.

⁹² Zulfiya. Навоий юраги уриб турибди / Tong bilan shom aro. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.197.

Xullas, hozirgi o'zbek she'riyatida kanal, hovuz, quduq, ariq, ariqcha, favvora, suvxonaga singari suv inshootlari timsoli obrazlantirilgani kuzatiladi. Ular orqali, asosan, insonlarning bunyodkorligi, yaratuvchanlik qobiliyati madh etiladi.

II.3.Suvga aloqador tabiat hodisalari talqini

Milliy she'riyatimizda suvning obraz va istiora sifatida bir talay o'xshashlik, uyg'unlik, ramzlari yaratilgan. Shulardan biri **shabnam**dir.

Shabnamning sof qadahi sindi...

Kulimizni sovurdi falak –

Sen mendan ayrilding, men sendan.

O'yin tushar rangin kapalak.⁹³

Tunda gul-ko'katlar yuziga qo'ngan namlik, nozik suv rezalari insonga o'zgacha kayfiyat bag'ishlovchi manzaradir. Ayniqsa, uning endi nur taratib chiqib kelayotgan quyosh shu'lasida rangin tovlanib kishiga zavq ulashishi, lekin quyosh chiqqa boshlashi bilan oftob nurlari taftiga bardosh berolmay, sekin-asta kuyib-parlanib, ko'zdan yo'qolishi tabiiy holat sanaladi. Shuning uchun shoir shabnamga xos ana shunday kuyish, ayrilish holatini o'z kechinmalari bilan bog'lab, yoridan ayru ko'ngil dardlarini, ishq o'tida kuygan dil izhorlarini metaforik yo'l bilan o'ziga xos ta'sirchanlikda ifoda etmoqda.

Xalqda shabnam va yomg'ir xosiyatli hodisa, obi hayot darajasigacha ko'tarilgan.

Shudring ham suvga aloqador tabiat hodisalaridan biridir. U ko'pincha salqin havo ta'siridan yuzaga chiqadi. Shuning uchun shoirlar yor taftini tuymagan, undan uzoqlikda yashayotgan qalbni "shudring", ya'ni sovuq suv tomchilari zabt etgan joyga o'xshatishadi.

Dalalarda esar shabboda,

Egiladi nozik chuchmoma,

Yalpizlarning bargidan shoda –

Shoda **shudring** jimgina tomar.⁹⁴

⁹³ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.16.

⁹⁴ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.12.

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf “Rayhon” she’rida suvning birdaniga ikkita: chashma va tomchi (qatra) singari analoglarini ketma-ket qo’llagan:

Gulga tegsa gulxan paydo qiladur,
Suvga tegsa suvni yondirar yuzing.
Sen Arshi a`loda **jannatiy chashma**,
Men yerda yonaman tomchingga tashna.⁹⁵

O’ziga xos mubolag`a negiziga qurilgan ushbu misralarda suvni-da yondirishga qodir muhabbat alangasi ta`rifi keltirilgan. Go`zal va suyukli yor Arshi a`lodagi chashmaga tenglashtirilmoqda. Unga oshiq xokisor yigit esa yuksaklikdagi ma`shuqasining diydoriga shunchalik mushtoqki, uning bu holati tomchiga zor turgan qaqragan er suratini eslatadi.

Ikrom Otamurod “Tag`azzul” to`plamiga kiritgan bir she’rida tomchini Vatanning bir bo`lagi bo`lgan fuqaro (shaxs)ga tenglashtirgan:

Hansiragan oftob tig`ida
chaqnagan maysaga **tomchi suv** bo`lib
chanqog`in bosmasang, behuda,
behuda Vatan deganing to`lib.⁹⁶

Qadimgi insonlar o`limni bir ko`rinishdan boshqa ko`rinishga evrilish ma`nosida tushunganlar. Ko`pincha ular o`lgan odamning ruhi yomg`ir yo shamol, yo biror o`simlik ko`rinishida yorug` olamga qaytadi deb o`ylashgan.⁹⁷ Shunday mifologik tasavvur-tushunchaga ishora buxorolik taniqli shoir Sadriddin Salim Buxoriyning “Onamni sog`inib” she’rida mavjud. Xalq yo`qlovlari mazmuni va ohangida yozilgan ushbu she`rda shunday satrlar bor:

Begonalik qo`yniga sen ham ketdingmi, ona?!
Shamol silar boshimni, yomg`ir to`kar yoshimni,
Shamolu yomg`ir bo`lib tashrif edtingmi, ona?⁹⁸

Qadimgi odamlar yomg`ir, qorlarni ko`rib, barcha suv osmonda ekan deb o`ylagan. Shu bilan ularni ilohiylashtirgan. Suvni osmon va ruhlar dunyosi bilan bog`liq deb tassavur qilganlar.

⁹⁵ Muhammad Юсуф. Биз бахтли бўламиз, 112-бет.

⁹⁶ Икром Отамурод. Тағазул. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2008. – Б.26.

⁹⁷ Ураева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

⁹⁸ Садриддин Салим Бухорий. Онамини соғиниб / Ўша китоб. – Б.49.

Quyidagi misralarda **qor** obrazi vositasida bemehr inson qalbiga ishora qilinadi:

Erimagan qor kabi bag`ir.
Buni faqat angladik faqat.⁹⁹

Suvning sovuqda qotishidan **muz** hosil bo`ladi. Shuning uchun muzni suv analoglaridan biri sifatida qarash mumkin. She`rlarda muz ham obrazlantiriladi:

Uyg`on, ey, malagim, tur o`rmingdan tur,
Otashin muzlarda isinaylik, yur,

Otash – olov degani. Muz olovga bardosh berolmaydi va erib ketadi. Shunday ekan, otash va muz bir-biriga zid hodisadir. Biroq badiiy adabiyotda bunday zid hodisalarni yonma-yon keltirish holati kuzatiladi. Bu o`ziga xos badiiy san`at bo`lib, she`riyatda tazod deb emas, balki oksimoron deb yuritiladi. Aslida hayotda “otashin muz” bo`lmaydi. Muz inson tanasini isitmaydi, balki yaxlatib yuboradi. Ana shu sabab “otashin muzlarda isinish” o`ziga xos oksimorondir.

Ba`zi xalqlar marhumni kuydirib, kulini idishga solib, suvda oqizib yuboradilar. Ehtimol, shu kabi urf-odatlar ham olov va suvni yonma-yon qo`yib obrazlantirishga asos bo`lgan.

Shunday odamlar borki, qahraton qish bo`lishiga qaramay, qalin muzni yorib, muzday suvda cho`miladilar. Bu yo`l bilan inson tanasidagi dardlar shifo topishi aytiladi. Ehtimol, ana shu hayotiy haqiqat muzni “otashin” sifatlashi orqali ifodalashga asos bo`lgandir.

Yong`inli daryoda quloch otaylik,
Bu erdan ketaylik, faqat ketaylik.¹⁰⁰

Muz otashin bo`lmagani kabi daryo ham yong`inli bo`lmaydi. Chunki har qanday yong`in suv bilan o`chadi-qoladi. Shunday ekan, suv manbasi – daryoni “yong`inli” deb sifatlash, oksimorondan boshqa narsa emas.

Yomg`ir – insonlarga suv etkazuvchi tabiat hodisalaridan biri. Qancha ko`p yomg`ir yog`sa, shuncha suv mo`l bo`ladi. Yomg`irning kuchli yoki kuchsiz, ko`p yoki kam darajada yog`ishiga qarab, uning turlari **jala, sel, do`l** tarzida farqlanadi. Usmon Azimning “Sel” she`rida yog`ingarchilikka oid ana shu timsollarning o`zaro tanosib qilib keltirilganligi kuzatiladi:

⁹⁹ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.46.

¹⁰⁰ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.47.

Eru osmon **ko'l** bo'ldi-yo,
Yomg'ir muncha mo'l bo'ldi.
Loyli sellar yo'l bo'ldi-yo,
Oqib o'lmoq o'ng bo'ldi-yo,
Doka ro'mol **ho'l** bo'ldi.
Doka ro'mol ho'l bo'ldi-yo,
Quritmoqqa quyosh yo'q.
Jala bo'ldi, **do'l** bo'ldi-yo,
“Ishqdan kechsang – “o'l” bo'ldi-yo,
Chidamoqqa bardosh yo'q.¹⁰¹

Jala, sel kabilar ko'pincha bahor faslida tez-tez yuz berib turadi. Jala yoki sel kelishidan oldin osmonni qop-qora quyuyq bulut qoplab, kuchli shamol esa boshlaydi. Ayniqsa, bahorning aprel oyida yog'ingarchilik ko'p bo'ladi. Ana shu real voqelikni Usmon Azim o'z she'rida quyidagicha tasvirlaydi:

Bulut shamolga ortdi
Yog'in to'la tanasin...
Qirda shataloq otidi –
Chopdi aprel **jalasi**.
Soylar to'la **sel** oqdi,
Anqib tataron bo'yi.
Loyqa oqdi, el oqdi,
Erkini selga qo'yib.¹⁰²

Jala va sel oqibatida ariqlar, soylar ko'z ochib yumguncha loyqa suvga to'lib, vahima bilan oqa boshlaydi. Ular ekin-tikinlarga zarar etkazishi ham mumkin. Shu sababdan qadimgi insonlar yomg'ir tangrisining borligiga ishonganlar, uning g'azabiga duchor bo'lmaslikka intilganlar. Zero, insonlarga, chorvachilikka va dehqonchilikka zarar etkazuvchi jala va sellarni yomg'ir tangrisining g'azabi oqibati deb anglaganlar. Yomg'irni esa uning marhamati ramzi deb qaraganlar. Shuning uchun yomg'ir yog'sa, xursand bo'lishgan. Hozirgacha yomg'irni “obi rahmat” (xudoning suvi”) deb bilishadi. Zamonaviy she'riyatda ham yomg'irni madh etuvchi she'rilar talaygina. Ulardan birida yomg'ir shunday madh etiladi:

¹⁰¹ Умон Азим. Фонус, 148-149-бетлар.

¹⁰² Усмон Азим. Фонус, 145-бет.

Yomg'ir emas, marvarid yog`ar,
Yomg'ir – kecha shaklinda bu on.
Suv singari jildirab oqar,
Kecha kechar shod va bearmon.¹⁰³

Yomg'irning yog'ishidan nafaqat odamlar, balki butun mavjudot rohat oladi, kuch oladi. Xuddi quyidagi she'rda ta'kidlanayotganidek, mudragan dalalarda hayot jonlanadi. Ona zamin yayrab-yashnaydi:

Mudrar dala bosh yalang,
Yomg'irdan xayoli nam,
Qo'llari bilan ko'm-ko'k
Boshini yopar karam.¹⁰⁴
Cho'milmoqda ona-er to'yib,
Ko'kdan tushar tizilib marjon.
Bexavotir u cho'milsin deb
Parda bilan to'silgan osmon.¹⁰⁵

Ba'zan yog'ayotgan yomg'ir qorga aylansa, ba'zan qorning ketidan yomg'ir yog'a boshlaydi. Hamma narsaga e'tiborli bo'lgan shoirlar nazaridan shu hodisa ham chetda qolmagan. Bu haqda Rauf Parfi yozadi:

Yomg'ir qorga aylanar,
Ko'zingda kular alam.
Ohista bosh aylanar,
Qayga qochib borar g'am?
Qanday go'zal bu olam!¹⁰⁶

Yomg'irning qorga aylanishi natijasida er yuzasi muzlab, yurishni biroz murakkablashtirib qo'yadi. Bundan ko'pincha keksalar qiynalishadi. Shuning uchun bu she'rda “alam”, “g'am”, “olam” so'zlari shunchaki qofiya uchun keltirilmagan. Bu bilan shoir hayotiy haqiqatga – yoshlikning keksalik bilan o'rin almashinishiga, bu esa insonga alam qilib, uni g'amga botirishiga, lekin inson ulg'aygan sari olamning go'zalligini, hayotning shirinligini anglab borishiga ishora qilayotir. Ana shuni badiiy ifoda etish uchun shoir bevosita “yomg'irning qorga aylanishi” belgisidan ramz

¹⁰³ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.27.

¹⁰⁴ Садриддин Салим Бухорий. Бухорони захга ботирган кимлар / Ўша китоб. – Б.56.

¹⁰⁵ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.42.

¹⁰⁶ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.23.

sifatida foydalanayotgani uning kuchli badiiy mahoratidan darakdir. Yomg'ir yoshlikning, qor esa keksalikning ramzini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Qorlar erib suv bo'ladi. Qancha ko'p qor yog'sa, daryolar shuncha suvga to'ladi. Ana shu haqiqatga ishora quyidagi misralarda o'z ifodasini topgan:

Kun tog` o'rkachiga tirmashar asta,
Novvot qoyalarda yaltiraydi **qor**.
Yuksak cho'qqilardan boshlangan bahor
Shalolalar bilan intilar pastga.
To'shab **sohillarga** jilvakor gilam
Daryo bo'lib oqar Amu, Siriga,
Sharqirab kiradi fusunkor ko'klam.¹⁰⁷

Ikrom Otamurodning yana shu to'plamidagi boshqa bir she'rida "halqob" obrazi uchraydi:

Tun – munkillagan chol. Yo'llar loy, halqob,
Usti ochiq uyi ivir, zahali.¹⁰⁸

She'riy parchada shoir ota uyida kechgan beg'ubor yoshligi, beg'am kunlari, unda olgan saboqlarini yodga olayotir. Bunda halqob obrazi ana shu shirin xotiralarning ramziy timsolini o'zida ifodalamoqda. Chunki halqob yomg'irlardan hosil ko'lgan suv to'plamlari ekanligi inobatga olinsa, yomg'ir yoshlikning, halqob esa yoshlikdan qolgan shirin xotiralarning ramzi ekanligi yorqin ayonlashadi.

Muhammad Yusuf dunyoni "ko'lmak"ka qiyoslagan. Ko'lmak ham yomg'irdan hosil bo'lgan suv to'plamlaridan biridir. Shoir "Ota uyi" ta'rifini keltirar ekan, uning oldida bu dunyoni bir ko'lmakcha deb ataydi:

Ota uyin oldida
Bu dunyo bir **ko'lmakcha**.¹⁰⁹

Qadimgi insonlar yig'ida sehr-jodu bor, u sirli suv sifatida marhumga hayot baxsh etadi, uni qayta tiriltiradi deb o'ylab, o'zlarini yig'i vositasida o'lim dahshatidan qutqarishga intilganlar. Ko'z yoshini tiriltirish, jonlantirish xususiyatiga ega bo'lgan hayot suvi deb bilishgan. Shu tushunchalar natijasida yig'i magiyasiga ishonch paydo bo'lgan. Komiljon Imomov xalqning yig'i magiyasiga ishonchini

¹⁰⁷ Вохидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарк, 2000. – Б.35.

¹⁰⁸ Мухаммад Юсуф. Биз бахтли бўламыз, 31-бет.

¹⁰⁹ Мухаммад Юсуф. Биз бахтли бўламыз, 76-бет.

ertaklar misolida o'rgangan bo'lsa,¹¹⁰ D.O'raeva go'yandalarning motam marosimida "yig'i marhumga qayta jon baxsh etadi" degan e'tiqod bilan yig'i uyg'otish vazifasini bajarishlarini ta'kidlab o'tadi.¹¹¹

Umuman aytganda, ko'z yosh sirli suv sifatida qaralib, xalq ijodida ham, zamonaviy she'riyatda ham o'ziga xos obrazlantirilib kelinadi.

Seni olib qolg'ayman
G'amgin bir qaroshimda
O'z **nahrimga** solg'ayman,
Suzarsan ko'z yoshimda.¹¹²

Yoki:

Yosh bilan yuvmoqchi bo'lasan,
Istaysanki, yuzing bo'lsin pok.
Yosh bilan yuvmoqchi bo'lasan,
Ko'z yoshlaring etmagay biroq...¹¹³

Ko'z yoshi inson qalbidagi dardlarni yuvadi. Ko'z yosh to'kkan inson engil tortadi, g'ami chekinadi. Shu boisdan ko'z yoshini poklovchi deb bilishgan. Lekin yolg'ondan ko'z yosh to'kib, atrofdagilar mehrini qozonishga urinuvchilar ham topiladi. Yuqoridagi she'rda bevafo qizning soxtaligi fosh etilmoqda.

Ba'zi shoirlar shivalab yog'ayotgan yomg'irni ko'z yoshiga o'xshatishadi:

Bir maysaning tili qurib qatra suvga bo'lsa zor,
Yulduzlar tun bo'yi **ko'zyosh** to'kib sug'orar gulzor.¹¹⁴

Suv havzalari yo to'lqin urib, yo girdob hosil qilib oqadi. Shunga ko'ra to'lqin va girdob ham suv analoglari hisoblanadi. Agar daryolar, anhor va soylar suvi aylanib-aylanib, tubiga tortib oqsa, girdob hosil qiladi. Girdob suvga tushgan har bir narsani suv tubiga tortishga harakat qiladi. Girdobga tushganlar halok bo'lishi hech gap emas. Girdobning shu tarzda o'lim bilan bog'lana olishi uni "qora" so'zi bilan sifatlashga olib kelgan. She'rlarda "qora girdob" birikmasi halokatga yo'liqish tushunchasini ramziy ifodalashga xizmat qiladi:

Qora girdob qa'riga men yiqildim.
Oqar daryo bo'lib yig'layman bu kun.¹¹⁵

¹¹⁰ Имомов К. Йиғи магияси. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2001. – №2. – Б.60-62.

¹¹¹ Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

¹¹² Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.18.

¹¹³ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.58.

¹¹⁴ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.71.

Ummonlar, dengizlar, daryolar, soy va anhorlar ko'pincha to'lqinlanib oqadi. Ayniqsa, yirik suv havzalarining to'lqinlari vahimali ovoz solib, o'rkach-o'rkach bo'lib eladi va uni tomosha qilib turgan kishiga cheksiz zavq bag'ishlaydi. To'lqinlar – suvning birdamlikda katta kuch bilan oqib kelishidan hosil bo'ladi. Shuning uchun shoirlar ko'pincha birlashgan xalqning kuch-qudratini to'lqin kuchiga tenglashtiradilar.

Toshga boshin urib bo'kirgan
To'lqinlarga sen yo'l ko'rsatding.
Elimizni ezar qora g'am,
Yolvoraman, chora o'rgatgin.¹¹⁶

Shalola yoki sharshara ham suvdan hosil bo'ladigan tabiat hodisalari sanaladi. Zulfiya “Shalola”ga bag'ishlab alohida she'r yozar ekan, uning ilhomboxsh tarovatini shunday tasvirlaydi:

Mehnat bergan oltin shodlikday
Otilib oqadi shalola.
Shovqini ilhomdan yorliqday,
Yurakda ko'tarar tarona.

Sharsharalar juda balandlikdan pastga qarab kuchli sharillagan ovoz bilan oquvchi suvdan hosil bo'ladi.

Ko'zga sig`mas **dengizlar** bor, axir, dunyoda,
Daryolar bor – tovushlari toshni yorguvchi,
To'lqinlarin qo'rqmas qushlar etgan belanchak.
O'tloqlar bor – **yomg'ir** ichib, ko'karib yotgan;
Havolar bor – bir yutumi ming dardga davo,
Tog'lar qancha, **sharsharalar**, o'rmonlar qancha?¹¹⁷

Bu misralarda tog'lardan so'ng sharsharalarning nomi tilga olinayotgani bejiz emas. Chunki sharsharalar ko'pincha baland tog'lar qa'ridan otilib oqadi. Niagara dunyodagi eng katta sharshara hisoblanadi.

Oqim – suvga xos hodisa. Chunki oqish harakati suv bilan bog'liq. Oqim deganda, suvning harakatlanish yo'nalishi anglashiladi. Oqimga qarshi suzish – qiyin ish. Ana shu hayotiy haqiqat sabab shoir yozadi:

¹¹⁵ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.61.

¹¹⁶ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.35.

¹¹⁷ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.39.

Shuning uchun **oqim bilan oqaver**, singlim,
Qarshi yursang, ko'p suzmoqqa quvvating etmas.¹¹⁸

Umuman aytganda, suv va uning analoglari vositasida shoirlar ko'pincha sevgi kechinmalarini, qalb hislarini, oilaviy turmush farovonligini, unda farzand kamolini, hayot yo'lidagi intilishlarini, Vatanga muhabbat tuyg'usini ifoda etgani kuzatiladi.

III BOB

SUV BILAN BOG`LIQ OBRAZLAR VA ANIQLOVCHILARNING POETIK MOHIYATI

III.1. Suv bilan bog`liq obrazlarning turlari va badiiy vazifalari

O'zbek zamonaviy she'riyatida suv bilan ishlovchi shaxslar: suvchi, meshkobchi, g'avvos; suv jonivorlari: baliq, ilon, qunduz, o'rdak, g'oz, oqqush; suvga aloqador daraxt va gullar, o'simliklar: majnuntol, nilufar, suv o'ti; suv idishlari: ko'za, kosa, piyola, chelak, choynak; suv transport vositalari: kema, qayiq, elkan, sol va hokozolarning poetik obrazlari, albatta, biror jihati bilan sevgi, oila, intim kechinmalar, farzand va farovon turmush g'oyalari bilan bog`lanadi. Bu milliy she'riyatimizda xalq qo'shiqlaridan boshlab yuzaga kelgan o'ziga xos an'ana tufayli kelib chiqqan badiiy qonuniyatdir.

Suv bilan ishlovchi g'avvos, meshkobchi, suvchi obrazlari she'riyatda o'ziga xos badiiy vazifada talqin etiladi. Aslida **g'avvos** – suv tubida maxsus moslama bilan yuruvchi inson. G'avvoslar hayotda suv ostini tekshirish yoki uning bag`ridan boyliklar olib chiqish vazifasini bajarishadi. Ayniqsa, dengiz tubidan marvarid olib chiqish uchun mahoratli g'avvos bo'lish talab etiladi. Shuning uchun she'riyatda ba'zan so'zni chiroyli terib, go'zal she'rlar yarata olgan mahoratli shoirlar bevosita g'avvoslarga o'xshatiladi. Shunday o'xshatish Sadridin Salim Buxoriy she'rlaridan birida uchraydi:

Olib chiqqay dengizdan dur
G'avvos senga, qiynab jon.
Baxsh etmoq-chun senga huzur
Shoirlar bitar doston.¹¹⁹

¹¹⁸ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.55.

Ko'rinadiki, she'rdagi shoir timsoli g'avvosga o'xshatilmoqda. Darhaqiqat, g'avvos jonini qiynab dengiz tubidan olib chiqqan duri bilan insonlarga zavq bag'ishlansa, shoir o'z qalbidan olib chiqqan so'z durlari bilan kishilarga huzur bag'ishlaydi.

Siz, ey **lutf bahrida g'avvos**,
U sizni sog'inib ketdi.
Demang, shoir jimib ketdi,
G'azal yozmay tinib ketdi.¹²⁰

Ushbu misralarda ham shoir to'ppadan-to'g'ri lutf bahri (dengizi)ning g'avvosi deb atalmoqda.

O'tmishda mesh (suv solib ko'tarishga mo'ljallangan teri moslama) bilan suv tashuvchi kishini meshkobchi deyishgan. Meshkobchilik qadimiy kasblardan biridir. Azaldan o'zbek to'ylarida xos xizmatkorlar xizmat ko'rsatishgan. Ular xizmatiga qarab turlicha nomlangan. Jumladan, sovchi, dasturxonchi, kayvoni, bakovul, meshkobchi kabi. "Alpomish" dostonida zolim Ultontoz otasi Boybo'ri sultonni egniga qora mesh osib, to'yda suv tashib xizmat qilishga majbur qiladi.¹²¹

Zamonaviy shoirlar tarixiy mavzularda she'rlar yozmoqchi bo'lsalar, ana shu qadimiy suvchilik kasblaridan biri sanalgan meshkobchilik mavzusiga ham ishora qilib o'tadilar. Masalan:

Yuragim misoli Buxoro,
Muqaddas – tunlari, kunduzi,
Daryolar qurisa hamki hech
Qurimas chashmasi, hovuzi.
Yuragim misoli Buxoro,
Namoyon shodligi, azobi.
Ul so'nggi xattoti xat bitar,
Suv tutar eng so'nggi **meshkobi**.¹²²

Muhammad Yusufning "Bobodehqonim" she'rida suvchi obrazi keltirilgan. Chunki dehqon mohir suvchi ham bo'lishi talab etiladi:

¹¹⁹ Садриддин Салим Бухорий. Темури сўзи / Ўша китоб. – Б.94.

¹²⁰ Воҳидов Э. Деманг, шоир тиниб кетди / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2010. – Б.49.

¹²¹ Алпомиш, 350-бет.

¹²² Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.44.

Qora dengiz bo'ylarida
Kim kezar jon yayratib?¹²³
Obi hayot taratguvchi
Buyuk suvchi o'zingsan.

Shoir dehqonni xuddi Yusuf Xos Hojib hamda Alisher Navoiylar singari “Insonga rizq-ro'z ulashuvchi” sifatida ta'riflashni maqsad qilar ekan, buni obrazli tarzda amalga oshirish uchun uni “buyuk suvchi” ta'rifi bilan beradi. Bu bilan u dehqonchilikni suvdan ayri tasavvur qilib bo'lmasligini o'ziga xos tarzda eslatadi. Darhaqiqat, dehqon qishin-yozin dalasidan nari ketmaydi. Unga Qora dengiz bo'ylaridek so'lim va bahavo joylarga borib dam olib kelish tuyg'usi begona.

She'rlarda hayoti bevosita suv bilan bog'liq baliq, ilon, qunduz, qurbaqa singari jonivorlar hamda o'rdak, g'oz, oqqush singari parranda va qushlar, ko'pincha suv bo'yida yoki suv ichida unib-o'sadigan daraxt yoki gul, o'simliklar obrazi ham uchraydi.

Hindlar va eskimoslar mayitni suvga, baliqlarga tashlaganlar. Shuning uchun baliq bu xalqlar orasida muqaddas jonivor hisoblanadi va u homiy kuch sifatida epik talqin qilinadi.

Taniqli o'zbek shoiri Usmon Azimning “Ertakka iqtibos” she'rida baliq obrazi keltirilgan:

Men **baliq**ni ozod qildim
Va tashladim daryoga.
– Buyur!..
Yana jilpangladi
Qarmoq uchida baliq.
Yana uni suvga otdim –
Mangu hurlik ber, xoliq!

She'rdagi “Oltin baliq” haqidagi ertakka ishora qilinayotganini sezish qiyin emas. Ma'lumki, unda oltin baliq tutib olgan insonga baliq katta moddiy yordam beradi. Uning ko'magida baliqchi farovon va to'kin, baxtli turmushga erishadi. Lekin shoir o'z she'rida ana shu syujetga ijodiy yondashmoqda. U mangu hurlik berishni baliqdan emas, balki yaratgan “xoliq”ning o'zidan so'rayapti.

¹²³ O'sha kitob, 46-bet

Qurbaqa – suv jonivorlaridan biri. Lekin qurbaqalar quruqlikda ham yashay oladi. Shuning uchun qadimgi insonlar uning bu xususiyatiga hayron qolib, qurbaqani sirli jonivor deb bilishgan. Qurbaqalar yozda suvdan turib, o'ziga xos ovoz soladilar. Quyidagi she'rda aynan shu hayotiy manzara tasvirlanmoqda:

Hovuzlarni yopinib olgan

Qurvaqalar jimlikni qopar.¹²⁴

Majnuntol – suv bo'yida suvga egilib, unga novdalarini solib o'suvchi ko'rkam daraxt. Mumtoz adabiyotda majnuntol orqali ishqdan qaddi bukilgan oshiq timsoli badiiy ifoda etiladi. Lekin zamonaviy shoir Erkin Vohidovning "Majnuntol" she'rida bu daraxt real ko'rinishi asosida tasvirlangan:

Qubbon **sohil**ida qomating bukib,

Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib,

Nimalar haqida surasan xayol,

So'yla, **majnuntol!**¹²⁵

Shoir yana "Manzara" she'rida u haqda yozadi:

Qora qushlar qo'narlar

Majnuntolning shoxiga.

Boshin suvga egarlar

Boqmay sira holiga.¹²⁶

Majnun – telba oshiq ma'nosini bildiradi. She'rda majnuntolning shoxiga qora qushlarning kelib qo'nishi xalqning telba, jinni, aqlidan ayrilgan kishilar haqidagi tushunchalarini o'zida ifoda etadi. Chunki xalqda bundaylar qora qushning ta'qibiga tushib qolgan kimsalar sifatida talqin qilinadi.

Ikrom Otamurod Voqif Jabroilzodadan ta'sirlanib yozgan bir she'rida suv o'ti obrazidan foydalangani kuzatiladi:

Tog`lardan ham kuchli

bir narsa bor bu dunyoda.

Balki u dev kuchidirki,

bir **soy** yulduzlariga qorishib

oqib ketar suvlarda.

Balki u bir chumchuq bolasining

¹²⁴ Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 47.

¹²⁵ Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.23.

¹²⁶ Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.12

Bo'lajak dev kuchidirki,
bir yashil yafroq kabi
og`ziga olar
suv o'tli bu dengizni.¹²⁷

She'rlarda suv idishlari ham obrazlantirilganini kuzatish mumkin. Ma'lumki, idish to'lsa, unga ortiqcha suv sig`maydi. Shundan kelib chiqib, she'riyatda suvga aloqador idishlar orqali ko'pincha adolat, qanoat tushunchalari ramziy ifoda etiladi.

Suv idishlaridan biri **suvdon**dir. Suvni o'zga olam vakillari bilan uchrashtiruvchi vosita deb qarash tushunchasi hozirgacha marhumlar qabri ustiga maxsus idishga suv solib qo'yish odati misolida saqlanib kelayotir. Hatto bu odatga ishora zamonaviy she'rlarda uchraydi:

Sag`anamning tepasiga
Qushlar uchun yasang *suvdon*,
Har kelganda sepib turing
Sag`anamning ustiga don.¹²⁸

Qabr boshiga ayollar idishda suv, uning ustiga kurtakli yashil novda yoki gul qo'yganlar.

Ko'za – suv solinadigan idishlardan biri. She'rlarda u ko'pincha shu vazifasi asosida obrazlantirilganini kuzatish mumkin:

“Suvni keltirganning qondirmay cho'lin,
Ko'za sindirganga tutishganday suv,
Birov qaymoq eydi, biz tortib elin,
Tenglik, tenglik deysiz. Tenglikmi yo shu?¹²⁹

Xalqda “Suv keltirgan emas, ko'za sindirgan aziz” degan naql bor. Shoiria Qutlibeka Rahimboeva o'z she'rida shu naql asosida mustabid tuzum davridagi xorlik va zo'rvonlikni fosh etayotir.

Qumg'on – qum isig`iga qo'yib suvni ilitib oladigan idish. Shuning uchun ba'zi joylarda u oftoba (oftobda suvni isitib beradigan idish) nomi bilan ham yuritiladi. Quyidagi misralarda aynan qumg'onning oftoba ma'nosida qo'llanganini ilg'ash

¹²⁷ Икром Отамурод. Тағазул, 45-бет.

¹²⁸ Садриддин Салим Бухорий. Онам васияти / Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.56.

¹²⁹ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.68.

mumkin. Chunki urf-odatimizga ko'ra, kelgan mehmonlarga oftobadagi iliq suvni tutib peshvoz chiqiladi va bet-qo'llari yuvdirib olinadi.

Ostonada o'sha yigit
Bizni kutib turardi.
Qo'lda **qumg'on**, elkasida
Sochiq tutib turardi.¹³⁰

Kosa yoki piyola ham suyuqliklarning idishi. Choy qaynagan suvdan tayyorlanadigan ichimlik ekanligi ma'lum. Shuning uchun choy, choynak va piyola obrazlari ham ma'lum ma'noda suv bilan bog'liq obrazlar sifatida ko'zga tashlanadi:

Qo'lidan sirg'ilgan gazet, oynagin,
Balandroq tokchaga qo'yay avaylab.
Choyi sovimasin, o'ray choynagin,
Aytay alla ichra allalar saylab.¹³¹

Chelak (paqir) – suv tashiydigan idishlardan biri. U ko'pincha she'rlarda o'z ma'nosida tasvir etiladi:

Bir kun bahri tugab, to'lsa paymona,
Qo'lda paqir bilan qolganda izg'ib,
Tan ola bilarmi, hech-sa pinsona
Hayotin bergan – shu bag'ridan sizib...¹³²

Suvqog'oz – zamonaviy inson o'ziga qulaylik yaratish uchun kashf etgan narsalardan biri. U polietilen vositasida kimyoviy yo'l bilan tayyorlanadi. Zamonaviy shoirlarning she'rlarida suvqog'oz obrazi ham uchraydi:

Suvqog'ozda pana etib tomorqasini
Pomidoru bodring ekib, bozorga eltar,
Erkaklarga hozir parnik ishqiy yopishgan.¹³³

Ko'rinadiki, suvqog'oz parnik uchun ishlatiladi. Uning panasida pomidor va bodring kabi sabzavotlar muddatidan oldin elektr issig'i vositasida etishtiriladi.

She'rlarda suv transport vositalari ham obrazlantirilgani kuzatiladi. Bu jihatdan zamonaviy she'rlarda ko'pincha **kema, elkan, qayiq** singarilarning obrazlantirilgani ko'zga tashlanadi.

¹³⁰ Воҳидов Э. Фарғона йўллариди / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарк, 2010. – Б.151.

¹³¹ Зулфия. Бугунингга мен бўлай ҳоким / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.142.

¹³² Зулфия. Олдингда оққан сув... / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.148.

¹³³ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.38.

Ohang oqar. Devorda suvrat:

Moviy dengiz ustida **kema**...¹³⁴

Bu misralarda kema o'z ma'nosida talqin etilayotgan bo'lsa, quyidagi misralarda endi uning ko'chma ma'nosi kuzatiladi:

Bo'g'zigacha axlatga botib,

Mag'zavaga botib, vo darig'! –

Cho'kayotir muqaddas **kema** –

Halokatga uchragan yanglig'.¹³⁵

Mag'zava, ko'pik singarilar ham aslida suv bilan bog'liq hodisalar. Mag'zava suvda sovun yordamida hosil qilinadi. Sovun esa kirlarni yuvib tozalash uchun ishlatiladi. Bunda kir tozalansa, mag'zava miqdori shuncha ko'p bo'ladi. Kir zo'rlik qilsa, mag'zava axlatga botib, so'nadi.

Kema ham suv bilan bog'liq narsa. Kema – qirg'oqlarni o'zaro tutashtiruvchi vosita. Shoir Sadridin Salim bu she'rida YuNESKOning ro'yxatidagi Buxoro tarixiy obidalarini haqida yozar ekan, ular o'tmish va bugunni tutashtiruvchi kema yanglig' ekanligini, afsuski, qarovsizlik va e'tiborsizlik oqibatida ana shu kemaning sezilar-sezilmas cho'kib borayotganidan tashvishlanadi.

Kuchli to'lqinlanib turadigan suvliklarda elkanli kemalardan foydalaniladi. Shuning uchun elkan tasviri keltirilgan misralarda, albatta, shamol obrazi ham unga yonma-yon tarzda keltiriladi. Jumladan:

Jilovini shamollarga bergan elkanday,

Suzaverding, o'ylanmoqqa topmading fursat,

Shu tarzda kechaverdi necha yoz, qishlar...¹³⁶

Qayiq – suvda eshkak yordamida harakatlantiriladigan vosita. She'rlarda u ham o'ziga xos badiiy vazifalarda talqin etiladi.

O'zbek tuprog'ining bir kaft yam-yashil

Bepoyon kengligi ipak to'lqinda.

Dengizda suzuvchi bir qayiq shakl

Mazgil tayyorlashgan mezbolar bunda.¹³⁷

¹³⁴ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.42.

¹³⁵ Садриддин Салим Бухорий. ЮНЕСКОнинг рўйхатида / Бухорога Бухоро келди. Шерлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.29.

¹³⁶ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.62.

¹³⁷ Зулфия. Дарёдай уйғок / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.198.

Ushbu misralarga qayiqning turli shakllarda bo'lishi haqidagi ma'lumot zuhurlangan. Qadimda qayiqlar ko'pincha hilol (yangi chiqqan oy) ko'rinishida yasalgan.

Zamonaviy she'riyatda suv bilan bog'liq afsonaviy obraz – **suv parisi** timsolining obrazlantirilgani ham kuzatiladi. Zero, qadimgi insonlar suv mamlakatiga, suv devlari va suv parilariga ishonch bilan qarashgan. Ular haqida turli afsonalar, ertaklar yaratilgan.

Yangi qahramon-la uchrastirdimi,
Yo suv parisiga qildi ro'baru?¹³⁸

Xalq orasida suv parisi haqidagi afsonalar juda keng tarqalgan. Shular asosida Muhammad Yusuf “Suvpari” she'rini yaratar ekan, uni faqat suv bilan emas, osmon (ko'k) bilan ham bog'lab, o'ziga xos originallik yaratadi. Qolaversa, shoir suv parisini “hur” deyish orqali suvning osmon va erni tutashtiruvchi poklik vositasi ekanligiga ishora qiladi. Negaki, hur – jannatga bokira ketgan qiz timsolini anglatasa, ko'kdagi pari uning ilohiyligini, ko'k ko'ldaligi esa uning yanada sirliligini anglatishga xizmat qilmoqda. Shoir “k” harfini alliterastiya sifatida qo'llash vositasida “ko'l” so'zining ma'nosini yanada kuchaytirishga erishmoqda. Chunki xalq ko'l suvi oqmasligi bois, uni nopok deb qaragan. Shuning uchun unga tushgan hur-pari “tinib, jimib” qolgani, ya'ni halok bo'lgani ta'kidlanmoqda:

Sen ko'kdagi harir ko'ylak hur-pari,

Ko'k ko'ldagi tinib qolgan **suvpari**.¹³⁹

Xullas, suv bilan bog'liq mifologik tasavvur-tushunchalar asosida suvning turli ma'nolarda, turli ko'rinishlarda obrazlantirilgani kuzatiladi. Dastlab xalq she'riyati boshlangan bu badiiy an'analar keyinchalik yozma she'riyatda, hatto hozirgi she'riyatda ham davom ettirilayotgani diqqatga sazovordir.

III.2. Suvning aniqlovchilari va suv bilan bog'liq xalq iboralari talqini

She'rlarda suv bo'yi, ariq bo'yi, daryo bo'yi yoki suv yoqasi kabi qaratqich va qaralmish munosabatli suv bilan bog'liq aniqlovchili birikmalarni ko'p uchratish mumkin. Aslida suv bo'yini anglatuvchi bu an'anaviy misralar xalq qo'shiqlarida

¹³⁸ Зулфия. Яратиш дарди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.190.

¹³⁹ Мухаммад Юсуф. Биз бахтли бўламыз, 121-бет.

keng ommalashgan. A.Musaqulov bunday misralar xalq lirikasining an’anaviy poetik formulalariga aylanganligini va tarixan suv kultiga asoslanishini alohida qayd etadi.¹⁴⁰

Qadimda muhim magik-ritual marosimlar suv bo’ylarida o’tkazilgan. Bemorlar o’z kasalini, iztiroblilar o’z muammosini, baxtsizlar o’z omadsizligini suv bo’yiga borib, suvga qarab aytishgan. Hatto yomon tushni ham, avvalo, suvga aytishadi. Ana shu sabab xalq orasida “dardini to’kib soldi” iborasi ishlatiladi. Zero, shunday qilinsa, qiyinchiliklarni suv oqizib ketadi, deb ishonishgan.

Hozirgacha “Mushkulkushod” marosimida tozalanadigan mayizning chiqindilarini yoki eskirgan duolar yozuvini suvga oqizish irimi saqlanib kelayotir. Suvning oqib harakatlanishi uni jonli mavjudot sifatida qabul qilishga olib kelgani sabab badiiy ijodda u eng faol obrazlardan biri sifatida tasvirlanadi. Qolaversa, suvning hayotbaxshlik qudrati, undirish kuchi uni qadimdan kult sifatida ardoqlashga hamda sevgi, oila, farzand g’oyalari bilan bog’lashga asos bo’lgan.

Xalq qo’shiqlari singari zamonaviy she’rlarda suv bo’yi visol va uchrashuvni ifodalab keladi. Suv ayriligni ham anglatishi mumkin. Binobarin, qadimiy tassavurlarga ko’ra suv doimo dunyolar o’rtasida chegara bo’lib kelgan. Shuningdek, oqar suv ramzida umrning o’tkinchiligi ifoda etiladi. Masalan, Zulfiyaning “Rashk” she’rida “daryo bo’yi” birikmasi ayriligi iztirobini tortayotgan, o’z yorining visoliga mushtiq inson kechinmalarini ifodalashga xizmat qilgan:

O’ltiribman **daryo bo’yida**,
Yuragimda rashk bilan havas.
Daryo oqib borar...qo’ynida
Quyosh nuri, bahorgi nafas.¹⁴¹

Ushbu misralarda daryo suvining oqishi vaqtning, o’tayotgan umrning orqaga qaytmasligini bildiradi.

Ba’zi shoirlar “suv qoshi” birikmasini qo’llagani kuzatiladi:

... suv qoshi
Yalpizlar kuyunchak:
ikki qirg’oq aro siqilmasin deb,
to’planib kelishdi suvning qoshiga.¹⁴²

¹⁴⁰ Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

¹⁴¹ Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.44.

Zamonaviy shoirlarning she'rlarida suv analoglarining turli sifatlashlarini uchratish mumkin. Masalan, quyidagi she'riy parchada “moviy buloq” va “loyqa daryo” sifatlashli birikmalaridan foydalanilgani kuzatiladi:

Moviy buloqlarning umri uzundur,
Kuygan sahrolarning kunlari uzun,
Loyqa daryolarning unlari uzun.¹⁴³

Bu she'riy parchada loyqa daryo obraziga ishora qilinayotgan bo'lsa, keyingi she'riy badda “tip-tiniq daryo” obraziga e'tibor qaratiladi. Agar daryo shiddat bilan tez oqsa, uning suvi loyqa bo'ladi. Aksincha, daryo sekin-asta oqsa, uning suvi tip-tiniq bo'ladi.

O'zini ko'rsatmay hikmatlar so'zlab,
Tip-tiniq daryolar oqadi asta.¹⁴⁴

She'rlarda suv obrazining sifatlashlari turli ma'nolar tashishga xizmat qilar ekan, loyqa suv – omadsizlik, axloqsizlik, tiniq suv – iffat, baxt kabilarni anglatib keladi.

Qishda suvlar muzlaydi. Bunda suvning beti muzlashi tufayli uning oqish ovozi eshitilmay qoladi. Ana shu real holatga ishora quyidagi misralarda o'z ifodasini topgan:

Mana, qish tindirdi shovqinni...
Ezma yaproqlarni uzdirib tashlab,
shamolni qaydadir muzlatdi.
Baqiroq soylarning betini esa
yiltiroq oynaqlar qo'yib bekitdi.¹⁴⁵

Demak, shoirlar suvning oqish holati va ovozigacha qarab ularni turli sifatlashlar orqali ifodalab kelishadi. Shundan “baqiroq soy”, “sukut dengizi”, “sho'x jilg'a”, “mushkul nahr” singari turfa obrazlar paydo bo'ladi. Masalan:

Biz nochor bir-biriga ezilib boqib,
Sukut dengiziga og'ir botardik.¹⁴⁶

Yoki:

Sho'x jilg'asi toshotar o'ynab,

¹⁴² Рахимбоева К. Ўзбекистон. Баҳор / Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.7.

¹⁴³ Рахимбоева К. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.8.

¹⁴⁴ Рахимбоева К. Қиш яхши / Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.29.

¹⁴⁵ Рахимбоева К. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.26.

¹⁴⁶ Зулфия, Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.215.

O'ynoqlaydi **toyday har to'lg'in,**

Yana:

Yashaymiz shu noyob taqdiridan mag`rur,
Hayot deb atalmish **mushkul nahrda.**¹⁴⁷

Nafaqat o'tmish, balki zamonaviy shoirlar she'riyatida suvdan badiiy obraz yaratish an'ana – uslubga aylanganini kuzatish mumkin. Suvni har bir shoir o'z she'rida turli-turli yangi ma'noda, yangi bir fikr yoki g'oyani ifodalashda qo'llashga harakat qilgan.

Umrni, vaqtni oqar suvga o'xshatish – folkloriga xos an'ana. Shu badiiy an'ananing zamonaviy she'riyatda davom etayotganini asoslovchi misollar ko'plab topiladi. Jumladan, A.Oripov “Vaqt” to'rtligida yozadi:

Suv kelayotir, dedi bitta nabiram,
Suv kelayotir, dedi boshqasi shu dam.
Men ular fikriga bir so'z demadim,
Chunki, haq edi-da, ikkalasi ham.¹⁴⁸

Umrni va vaqtni oqar suvga o'xshatib, Muhammad Ali yozadi:

Qadimda bu erlar cho'l edi taqir,
Bo'liq g'o'zalarga qarang, yopiray!
Chigit tashlangan kun kechaydi axir,
Umr ham oqar suv, vaqt ham chopqir-ey!¹⁴⁹

Yoki:

Hayot – oqar daryo, osoyish bilmas,
Hayot ehtirosiga tashna maydondir.¹⁵⁰

Xalqda “Oqqan daryo oqaveradi”, “Oqqan ariqda oqar suv” yoki “Bir oqqan daryo qirq yil bo'lsa ham o'z o'zanidan yana bir marta oqib o'tadi” kabi maqollar bor. Quyidagi she'riy misralarda bevosita shu maqollarning qayta ishlangan oddiy folklorizm sifatidagi tarzini kuzatish mumkin:

Yuragimni ochib ko'rdim bir-ikkoviga.
Yoshullimiz ularga ham imlab qo'yganmi,
“*Oqqan daryo bilan oqqan yaxshi*”, – deyishdi.¹⁵¹

¹⁴⁷ Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.172.

¹⁴⁸ Орипов А. Вақт / Ўша китоб. – Б.229.

¹⁴⁹ Муҳаммад Али. Сайланма. – Т.: Шарк, 1997. – Б.54-56.

¹⁵⁰ Муҳаммад Али. Изтироб чекмоқ нима / Сайланма. – Т.: Шарк, 1997. – Б.91.

¹⁵¹ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.51.

Yoki:

Qolar do'stlik, sadoqat,
Ta'nayu keklar ketar, derlar,
Oqar oqquvchi daryo,
Xas-cho'pu chirkalar ketar, derlar.¹⁵²

She'riyatda suv – poklik, jo'shqinlik, kuch-qudrat, bunyodkorlik, yaratuvchanlik singari ma'nolarda qo'llanadi. Ayniqsa, u ko'pincha poklik, halollik timsolida talqin etiladi. U haromni yuvib poklashi aytiladi. Suv yumshoq va toza bo'lib, inson kirlarini yuvadi, deb qaraladi. Doim harakatda bo'lgan suv faqat tekislikda to'xtay olishi nuqtai nazaridan halollik ramzini bildirib keladi. Jumladan:

Daryo haromni yuvib
Halol eta biladi,
Yo'q, daryo bo'lolmadik.¹⁵³

Muhammad Yusuf o'zbek ayollarini suvdan ham halol va guldan ham pok hisoblaydi:

Suvdan halol,
Guldan pok,
O'zbekning ayollari.

She'riyatda suv – yorug'lik, ezgulik va yaxshilik ramzi sifatida ham ko'p qo'llanadi:

Suv izlab, qumlarga duch keldim ba'zan,
Madad berolmadim do'stga da'atan.
Yovlarim qurshadi misoli tikan,
Ne-ne orzularim armon bo'ldilar.¹⁵⁴

Bu misralarda suv izlab qumga duch kelish ezgulik istab yovuzlikka duch kelishni, orzu-istaklarning sarobga aylanganini anglatadi. Negaki, cho'lda tashna qolgan inson ko'ziga qumlar barxani sarob bo'lib ko'rinishi bor gap. Qum suvga tazod, ya'ni uni o'ziga shimib yo'q etuvchi qarshi kuch ramzini ifoda etayotir.

Tashna so'zi – aslida suv bilan bog'liq tushuncha. Lekin ba'zi she'rlarda uning ko'chma ma'noda mehrga tashnalik, ishqqa tashnalik, haqiqatga tashnalik shaklidagi

¹⁵² Voxidov Э. Ажаб эрмас / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2010. – Б.15.

¹⁵³ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.70.

¹⁵⁴ А.Орипов. Бўлдило / Мен нечун севаман Ўзбекистонни, 228-бет.

parallellari ham uchraydi. Jumladan, A.Oripovning “Genetika” she’rida shunday misralar bor:

Tashna yashadik biz mehrga mutloq,
Ishqqa, muhabbatga tashna o’tdik biz,
Goh esa quyoshdek porloq va yiroq
Haqqa, haqiqatga tashna o’tdik biz.

Bu tashnalik istiqloлга erishish, o’z vatanining egasi bo’lish orzusi bilan bog’liq edi. Biroq bu istakni she’r yozilgan 70-yillarda ochiq aytib bo’lmas edi.

Suv – chegara ma’nosini ham anglatadi:

Osiyoni, Ovruponi
Ayirmish suv ikki yon.¹⁵⁵

Yoki:

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonida,
Boburing – Hindistonida.¹⁵⁶

Qirg’oq suvning boshlanish yoki tugash chegarasini anglatadi:

Daryoni sog’insang, yotmaysan bo’zlab,

Qirg’oqqa chiqasan. Qaraysan pastga.

Suvning ikki qirg’og’ini, odatda, ko’prik o’zaro bog’lab turadi. Shu sabab ko’prik ham suv aniqlovchilaridan biri sanaladi. Folklorda ko’prik visol, ko’prikdan o’tish nikoh va onalik dunyosi sari borish ma’nolarini tashishi ma’lum. Shu an’anadan kelib chiqqan holda zamonaviy she’riyatda ko’prik bir-biriga mushtoq qalblarni tutashtiruvchi vosita vazifasida talqin etiladi.

Ko’priklar ko’pincha suv ustiga quriladi. O’lganlar o’lim ummonidan suzib o’tishi haqidagi mifologik tasavvurlar badiiy ijodda ko’prik obrazining shakllanishini ta’minlagan. Shoir Shukur Qurbonov “Ko’prik” deb nomlangan sakkiz misralik she’rida shunday yozadi:

Yog’ochdan qurildi ko’prik bir zamon...
Uzoq sohillarni bog’lagan ko’yi,
Juda ko’p jonni u soppa-sog’, omon

¹⁵⁵ Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.223

¹⁵⁶ Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз: Шеърлар тўплами. – Т.: Нихол, 2008. – Б. 4.

Asov bu daryodan o'tkazib qo'ydi.¹⁵⁷

Shoira Qutlibeka Rahimbоеva suvning boshlanishini “sog`alar” deb ataydi:

Ko`lmakni qo`zg`atgan shiddatkor to`lqin,
Suvning boshlanishi – sog`alar deyin.¹⁵⁸

Sir emaski, suv doim yuqoridan pastga oqadi. Suv bilan bog`liq shu hayotiy holat shoirlar nazaridan chetda qolmagan. Bu haqda shoir Erkin Vohidov yozadi:

Hamma bolam, deydi.
Shu kori olam!
Bola ulg`ayib, so`ng u ham der, bolam,
Suv pastga oqadi.¹⁵⁹

Pastdan yuqoriga oqayotgan suvni kuzatib bo`lmaydi. Shu jihatiga ko`ra, she`riyatda suv kamtarlik g`oyasini ifodalashga xizmat qiladi.

Suv obrazi vositasida vatanparvarlik g`oyasini ham singdirish mumkin. Masalan:

Bu o`lka bog`ida bitarkan durlar,
Suvlari sharbatli, eri zar ekan.¹⁶⁰

Darhaqiqat, O`zbekistonda shirin suv miqdori ko`p. Ana shu shirin suvlar ta`sirida yurtimiz zamini zarga aylangan. Uning bog`larida etilgan mevalar bolga to`la bo`lsa, polizida etishtirilgan shirin qovun-tarvuzlar ta`mi til yoradi. Ana shuning uchun uni shu zaminda yashayotgan har bir katta-kichik fuqaro chin dildan sevadi va ardoqlaydi. Tuprog`ini to`tiyo bilib, ko`ziga suradi.

Shoir E.Vohidov Farg`onaning Oltiariq tumanida tug`ilgani ma`lum. Ijodkor o`z qishlog`idan faxrlanar ekan, uning nomi qanday kelib chiqqanligini izohlashga intiladi. Aytishicha, qishlog`ining oltita ariqdan suv ichishi uning nomi Oltiariq deyilishiga sabab bo`lgan:

So`lim Farg`onaning munis bag`rida
Bor olti ariqdan suv ichgan qishloq.
Unda
Chorak asr mendan narida

¹⁵⁷ Курбонов Ш. Бир калб манзараси: Шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б.6.

¹⁵⁸ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.64.

¹⁵⁹ Вохидов Э. Ҳамма болам, дейди / Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарк, 2010. – Б.85.

¹⁶⁰ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.52.

Bolaligim chopar to'zg'itib tuproq.¹⁶¹

Suv – erning qoni. Lekin urush bo'lsa, er suvning o'rniga qonni shimadi.
Quyidagi baytda ana shu manzaraga ishora bor:

Suv o'rniga qon ishlatgan,
Halovatsiz, bechora zamin.¹⁶²

Suvga cho'kish – o'lim, yo'q bo'lish tushunchasi bilan bog'liq. Shoir Rauf Parfi shundan kelib chiqqan holda o'tgan yoshlik davrini “Suvga cho'kib ketgan bolam – yoshligim” deya xotirlaydi.

Kuylolmadim
yaproqlar kabi,
quruq shoxday titrar ovozim –
so'lib qoldi bahorim tag'in,
suvga cho'kdi yana bir yozim.¹⁶³

Yoz mavsumida ariqlar, odatda, suvga to'lib charx bilan tez oqadi. Shunda suv beti singan chiziqlarni eslatadi. Singan suvlar deganda, shu holat nazarda tutilmoqda.

Tun gurkirab o'sar yovonda
o'sganiday bir tup gulxayri.
Boshlanadi singan suvlarda
Yalangoyoq oylarning sayri.¹⁶⁴

Suv bilan bog'liq iboralar ham talaygina. Shulardan biri “tagiga suv quymoq” iborasi bo'lib, u o'z ma'nosida ham ko'chma ma'noda qo'llanib keladi. Buning isboti quyidagi misralar vositasida o'z tasdig'ini ko'rsatadi:

Deylik, biror joyda *nihol ko'rdimi*,
Albatta, tagiga suv quyay.
Chanqab kelganda-ku biror tashna lab,
Albatta suv ichar, miriqar, to'yar...
Inson suvdan yana qanday zavq tuyar?
Bekor qolganida, ba'zida sekin
*Bir-birin tagiga suv quyay.*¹⁶⁵

¹⁶¹ Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.357.

¹⁶² Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 22.

¹⁶³ Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 79.

¹⁶⁴ Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.51.

¹⁶⁵ Орипов, А. Сув / Мен нечун севаман Ўзбекистонни. Шьёрлар ва драматик дoston. – Т.: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б.97-98.

She'rd a suvning nafaqat insonlar, balki butun borliq: nabotot va hayvonot dunyosi hayoti uchun, ularning yashashi va tirikligi uchun zaruriy ehtiyoj ekanligi ortiqcha bo'yoq-bezaklarsiz aniq ifoda etilmoqda. Bunda "suv" tushunchasi o'z ma'nosida ijobiy ottenkada talqin qilinmoqda. Biroq keyingi satrlarda endi unga ko'chma ma'no yuklatilib, u orqali salbiy tushuncha bayon etilmoqda. Shoir oldingi misralarda "tagiga suv quymoq" so'zlari bog'lanmasini boshqaruvli so'z birikmasi sifatida qo'llagan bo'lsa, keyingi misralarda uni omonimik xarakterda ibora sifatida qo'llagan. Xalqda "tagiga suv quymoq" iborasi "yo'q qilmoq", "qitmirlik bilan ma'naviy zarar etkazmoq" ma'nolarida yaxlit bir ko'chma ma'noni bildirib keladi.

Suvni u dunyoga eltuvchi vosita sifatida qarash tufayli suv orqali insonni o'ldirish usuli ham kashf etilgan. Jumladan, gunohkor deb topilgan insonni suvga g'arq qilish yoki "qiynoba"dan foydalanish, qaynab turgan suvga uni tashlash kabilar shular sirasiga kiradi. Masalan, Sotim Avazning "Qiynoba" she'rida shunday jumlar uchraydi:

Qiynoba – laqamcha solgan og'izga
Quyilgan qiynoq suv – oddiy namakob!¹⁶⁶

Qiynoba yoki laqamcha – ikki uchiga ip bog'langan taxtacha bo'lib, u orqali gunohkor sanalgan va qattiq jazoga, o'limga mahkum etilgan mahbuslar og'ziga namakob suv solingan. Chingiz istilosi tufayli Ko'hna Urganchga olib kirilgan bu jazo turi oxiri o'lim bilan tugashi sabab insonlarni qattiq qo'rquvga solgan.

Sotim Avaz shu haqda to'xtalarkan, ayni paytda Orolning tilka-tilka qilib, quritilayotgani sabab o'sha hudud aholisi "qaqroq lablarini sho'r suvga tutayotganini" dildan achinib kuylaydi. Buning halokatli natijalarini dildan his etib, o'rtanadi:

Xalq axir g'animat shu vatan uchun
O't kechdi, suv kechdi – ayamadi jon.
Laqamchani uzgan og'zidan butun
Qiynoba ustiga tomchilaydi qon!¹⁶⁷

Xalq orasida gapirmay, jim turgan kishiga nisbatan "og'zingda laqamchang bormi?" yoki "og'zingda qattiq uyutganmisan?" kabi iboralar qo'llanadi. Demak,

¹⁶⁶ Сотим Аваз. Қийноба / Хуқуқ. Шеърлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б.18.

¹⁶⁷ Сотим Аваз. Қийноба / Хуқуқ. Шеърлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б.19.

shoir laqamcha obrazini qo'llash orqali sho'rolar zulmi kuchaygan davrlarda o'z dardini aytolmagan xalqning ruhiy holatini ochishga urinadi.

Obxona – Arkda bo'lgan. U haqda shoira Zulfiya shunday yozadi:

Obxona, obxona, ey mudhish kunjak,
Balki ezgulik-chun qurgan edilar?
Uzoqlardan kelgan musofir jindak
Bo'lsa ham tashnasin bosar, dedilar.
Bunda suv saqlamoq, hayot saqlamoq
Demak, boqiylikni qilganlar ardoq.
Lekin amirlikning tojdori olchoq
Butun ezgulikka solganday sirtmoq –
Seni asl burching – hayotdan tortib
Oldi-yu, aylanding qamoqxonaga.¹⁶⁸

Xalq orasida suv bilan bog'liq keng tarqalgan iboralardan yana biri “suv qilib ichmoq” turg'un birikmasidir. U ko'pincha biror fanga yoki sohaga tegishli tushunchalarni puxta egallagan kishilarga nisbatan ishlatiladi. E'tiborli jihati shundaki, bunday iboralarni shoirlar ham o'z she'rlarida ishlatganining guvohi bo'lish mumkin:

Nabirasi bilan bir yilda tug'ilgan,
Qonunlarni suv kabi ichgan
Eng bilimdon sanalgan hakam...¹⁶⁹

Xalqimizda tushda suv ko'rish yorug'likka ta'bir qilinadi. “Tushni suvga aytmoq” iborasi esa xalqning tushga nisbatan ishonch-e'tiqodlari ta'sirida kelib chiqqan.

Tonggacha suhbat qurdim daraxtlar bilan,
Tushlarimni suvlarga aytdim.
Kel, yo'qolib ketma, dedilar.¹⁷⁰

Suvga faqat xavotirli, yomon narsalar aytilgan. Yaxshi narsalar aytilmagan. Quyida shu ko'hna odatga ishora bor:

Seni sog'inganimni so'zga aytmadim,

¹⁶⁸ Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.189.

¹⁶⁹ Сотим Аваз. Тақдир / Хуқук. Шеърлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б. 32.

¹⁷⁰ Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.119.

Raqiblar bilmasin deb ko'zga aytmadim,
Oqar suvga yoki muzga aytmadim.¹⁷¹

Xalq orasida “suv bossa to'pig'iga chiqmaydi”, “siyratiga suv yuqtirmaydi” singari iboralar, odatda, beparvo va boqibeg'am kimsalarga nisbatan qo'llanadi. Masalan:

Siyratiga suv yuqtirmay –
Davralarda xushsurat bo'b
O'ltirgan ul suratlarining
Fikri-ko'shki ravon bo'ldi.¹⁷²

“Suv purkamoq” iborasi insonlarga qutqu soluvchi, gumoni yoki alami bor kimsalarni tezlatuvchi kishilarga nisbatan aytiladi.

Kechagina qora zahmat farzandi eding,
Bugun esa **volg'onlarga suv purkkan kimsa...**
Sening uchun etmish ikki tomirim yonar!¹⁷³

Ishning natijasini va samarasini o'lchashda “g'alvirni suvdan ko'tarmoq” iborasi ishlatiladi:

Kuz ham keldi: **g'alvirimiz suvdan ko'tardik.**
Hosil bo'ldi, emgagimiz qolmadi erda.¹⁷⁴

“Suv boshidan loyqa” iborasi hukmron tabaqa vakillarining kirdikorlariga nisbatan aytiladi:

Onam, “**suv boshidan loyqa**” derdingiz,
Bilmasdik bu gapda haqiqat zuhur,
Muhtasham binoda sirli, yashirin
Asl yigitlarga qazilardi go'r.¹⁷⁵

Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” dostonidan misol olinayotgan ushbu misralarda qatag'on siyosatini amalga oshirgan tuzumning nobopliklari “suv boshidan loyqa” iborasi orqali fosh etilayotir.

Inlarini suv sovutgan chumolilarday
Tizim-tizim odamlarning ichidasan-ku.¹⁷⁶

¹⁷¹ Садриддин Салим Бухорий. Ўша китоб. – Б.45.

¹⁷² Икром Отамурад. Тағазул, 70-бет.

¹⁷³ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.66.

¹⁷⁴ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.54.

¹⁷⁵ Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.214.

¹⁷⁶ Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – Б.38.

Bu she'riy baytda bezovta odamlar galasi “inlarini suv buzganidan bezovtalanib, turli tomonga qochib, jonini qutqarayotgan, hayotga tashna chumolilar”ga o'xshatilmoqda.

Oldda oqqan suvning qadri yo'q, derlar,
G'o'rlikda noshukur hukmi deb yurdim.
Mana, qancha suvlar oqib o'tdilar,
Birovni suvga zor, birni ser ko'rdim.¹⁷⁷

“Oldda oqqan suvning qadri yo'q” iborasi, odatda, noshukur, bee'tibor odamlarga qarata aytiladi.

Odamlarda “kishi suv ichayotganida uni hatto ilon chaqmaydi” degan e'tiqodiy ishonch bor. Yana xalq orasida “O't balosidan, suv balosidan, bevaqt qazodan, tuhmatdan o'zi saqlasin” degan ezgu niyat – olqish keng tarqalgan.

“Suvday serob bo'ling” olqishi serfarzand va farovon turmush niyatini bildiradi.

Sharq she'riyatida yaratilgan «Arbain»larda avval hadisning arabcha, forscha yoxud turkiy tarjimasi keltirilib, keyin she'riy varianti berilar edi. A.Oripov ushbu an'anadan chekingan – u to'g'ridan-to'g'ri hadisning she'rga solingan shaklini o'quvchilar diqqatiga havola qilgan. Lekin shunga qaramay, shoir maqsadiga erishgan. Chunki gap shaklda emas, mazmun va mohiyatdadir. Abdulla Oripov o'zining «Haj daftari» va «Hikmat sadolari» she'riy to'plamlari bilan bugungi she'riyatimizga diniy-ma'rifiy g'oyalarni birinchi bo'lib olib kirdi.

Shoir ellikta she'riy hadisni o'z ichiga olgan «Hikmat sadolari» turkumida diniy manbalardan olingan lavhalar va xikmatlardan samarali foydalangan holda kishilarni poklikka, to'g'rilikka da'vat etadi.

U senga ko'rsatdi hidoyat yo'lin,
Yurgil yo yurmassan, o'zing bil inson,

¹⁷⁷ Зулфия. Олдингда оққан сув... / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.148.

Balki sen tuttgaysan Iblisning qo`lin,
Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon.

Abduvali Qutbiddin ham islomiy yo`lda talay she`rlar yozgan shoir. Uning she`rlarining mag`zini maxsus tayyorgarliksiz tushunish birmuncha qiyin. Uning she`rlaridan bahra olish uchun Ma`lum darajada islomiy bilimga ega bo`lish talab qilinadi. Masalan, Qurr`onda oxirat hayoti bu dunyo hayotidan yaxshiroq ekanligi ta`kidlanadi. Lekin unga bu dunyoda yaxshi tayyorgarlik ko`rmasa etishib bo`lmaydi. Bu dunyo hayotidan afzal oxirat hayoti borligiga ishonish dunyoda musibat etgan, azobda qolgan kishilarning ko`nglini tinchitadi, musibatlarga nisbatan bardoshli bo`lishga chorlaydi. Abduvali Qutbiddinning «Baliqning tishila tilimni tildim» misrasi bilan boshlanuvchi she`rining mohiyatini shu xil fikr tashkil etadi

Baliqning tishila tilimni tildim,
Yuragimni urchuqday uch aylantirdim.,
Ko`zimni qiynadim,
Qiynog`im qiziq... yayradim.

Bu misralarni o`qigan kitobxonda kishi qiynoqdan ham yayrashi mumkinmi, degan tabiiy savol tug`iladi. Bu erda qiynoq jismoniy manoda emas, balki poklanish yo`lidagi ruhiy azoblanish, ruhiy qiynoqdir. Kishi ko`p gunohni tili orqali qiladi. Ma`lumki, baliq har jihatdan pok va begunoh. Chunki u hech qachon gapirmaydi. Shoir gunohlarga yo`l qo`ygan o`z azolarini jazolash bilan poklanadi, tavba qilish bilan gunohlardan tozalanadi. Lirik qahramon shundan keyin pok bo`lgan ruhiga ergashadi. Keyingi ishlari faqat ezgulikdir. Oqibatda jannatga erishadi. Oxirat hayotini shunday tasvirlaydi:

Majnuntol darchasin ochdi, kiritdi,
Yuz bitta qiizidan birin tanladim.
Xivich qasrlarda barglandim biram...
Yayradim.
Dunyoni tark etdim, hur safar etdim,
YOrimla tuyqusu bexabar ketdim.
O`n besh kun to`y berdim
Dorulbaqoda...
Yayradim,
Yayradim,
Yayradim-a-a-a!

Guvohi bo`layotganimizdek, Abduvali Qutbiddin o`z g`oyasini g`ayritabiiy manzaralar, tasvirlar zamiriga singdiradi. Sirtidan qaraganda uning iashbehlariga yukalatilgan fikr, tuyg`ular ko`ngil ko`zgisida aks etgan mutlaqo noreal, tushdagi kabi tartibsizday ko`rinadi. Lekin chuqurroq mushohada qilinsa, uning mohiyati anglashiladi.

Shoir Sirojiddin she`riyatining muayyan qismi islomiy asotirlar va g`oyalar asosida yaratilgan. U «Dunyo masali» she`rida shunday yozadi:

Ranju g`am va azaldan barobar kelur,
Alar bir-biriga birodar kelur,
Nechun sevinchlaring bir xil, ey, dunyo,
Nechun armonlaring bunchalar rangin? –

- degan savol qo`yarkan, insonlarning amallardan hayron bo`ladi. Yani xoru zabunlikda qolgan insonga ko`mak uchun o`z jinsi emas, sut emizgani jayronlar kelganidan, kishilarning badbinligidan kuyinadi. Ushbu she`rni tushunish uchun ham kitobxon muayyan darajada Qurr`oni Karimda ilgari surilgan fikrlar bilan, musulmonchilikning bazi qoidalari bilan tanish bo`lishi darkor.

Umuman olganda, islomiy qarashlar, diniy falsafa barcha zamonlarda bo'lgani kabi hozirgi kunda ham Ma'naviy-axloqiy qarashlarimizning asosi sifatida, tarbiya manbai sifatida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Istiqol davri she'rlarining katta ko'pchiligida hamma davrlardagidek muhabbat mavzusi keng ifoda topmoqda. Ma'lumki, ushbu tuyg'uning sarhadlari nihoyatda keng. Shoir o'z ishqiy tuyg'usini yaratganga, Vatanga, xalqiga, ota-onasiga, do'stiga nisbatan izhor qilishi mumkin. Lekin bular orasida mahbubaga nisbatan muhabbatga bag'ishlangan she'rlarning umri uzoq va tasirchan bo'ladi. Haqiqiy muhabbat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan she'riyatning tasir kuchi har narsadan kuchliroq bo'ladi. Bugungi muhabbat haqida bitilalyotgan she'rlar ichida mana shu xil quvvatga egalari ham oz emas. Bu asarlarning aksariyati shoirlar va yosh shoirlar tomonidan yaratilayotgani she'riyatimizda ro'y berayotgan evrilishdan dalolatdir.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida haqiqiy oshiq haqida shunday yozadi: «Haqiqiy oshiq deb sen bilki, u dard bilan yashaydi, uning tili ham, dili ham, ko'zi ham pok bo'ladi. Ishq uni «men»idan pok qilib, hatto fano o'tiga hashak qilgan bo'ladi. Yuzini sariq qilib, dardini yashiradi, ko'zini ariq qilib yosh oqizadi.»¹ Bundan ko'rinadiki, haqiqiy oshiqning axvoli dil izhoridan emas, holatidan bilinadi. Shoir o'zlarining ishqqa muhtaloligini so'zda izhor qilishmaydi, ruhiy kechinmalarini shunchaki so'z bilan aytmaydi, balki holatlarini tasvirlash orqa'li bildirishadi. Hosiyat Bobomurodova «Bir daryo oqa'r ko'nglimda» turkumiga kirgan she'rlaridan birida shunday yozadi:

Kim chertar eshikni ohista, bilmam,

Ko'ksimdan sug'rilib chiqqanday tikan.

Qushday uchib borsam, chopiblar borsam,

Bag'ri cho'g' hamdamim hazonlar ekan.

Ushbu misralarda bironvga intiq odamning holati, ruhiyati bor ranglari, ohanglari bilan ifodalangan. Ma'lumki, kimgadir intiq odamning butun vujudi quloqqa aylanadi, xayolida faqa't uning yodi kezadi, qo'li har qanday

ishdayu, fikri- yodi kutganida bo`ladi. She`rdagi lirik qahramon xuddi shu holatda. Uning iztiroblari ayniqsa, to`rtinchi misrada yaxshi ochilgan. Lirik qahramonning kayfiyati keyingi bandlarda yanada yaqqolroq namoyon bo`la boradi:

Yomg`ir, shamol, hazon, to`xtang, qaytinglar,

Eshitib ketinglar qo`shiqlarimni.

Yo`qlab kelmasimga borib aytinglar,

Yig`lab ochib qo`ydim eshiklarimni.

FOR AUTHOR USE ONLY

Jismoniy emas, ruhiy iztirobdan yig'lash ruhiyatning poklanishidir. Haqiqiy muhabbat hijroni esa, botiniy iztirobdir, yani bu ham poklanishdir.

X.Bobomurodova

«Jonimning egasi» she`rida o`z sevgilisiga shunday murojaat qiladi:

Bahor olib ketsa bahorlarimni,
G`amlar bosib olsa ne horlarimni,
Kuzlar to`kib ketsa ohorlarimni,
Jonimning egasi, so`nsam maylimi?

Bu iltijo albatta, umumlashma xarakteriga ega bo`lib, mashuqalar sadoqati, vafosi haqida ajoyib topildi.

Shoira Zebo Mirzayeva she`rlarini o`qiganda «Haqiqiy she`rning mazmunini gapirib bo`lmaydi, uni his qilish kerak» degan fikrning to`gri ekanligini etirof qilasan kishi. Darhaqiqat, tuyg`u va hissiyotni hikoya yoki bayon yo`li bilan aniq tasvirlab, suratini chizib berish mushkil bil amal. Lekin uni muayyan matn orqali his qilish, tuyish mumkin. Bu amal kishi Ma`naviyati va ruhiyatini boyitadi va oziqlantiradi. Shoiraning «Tamom» she`rini kuzatib ko`raylik.

Men endi ketaman...
Uni kechirdim.
Kechirdim eng so`nggi g`animimni ham.
Endi tinch yashayman tog`lar yurtida
Daraxtlar,
Shamollar,
Maysalar bilan...

Ushbu misralarda lirik qahramon «men»i sevimligidan yoki dil izhori rad etilganidan tushkil kayfiyatda emas, balki ruhiga yaqin odamni topmaganidan ko`ngli o`ksiyapti. Hayotda ruhi uyg`oq kishilar kamligidan o`ksiyapti. Chunki uning ruhi baland, Ma`naviyati g`oyat yuksak. Shundan nihoyatda kechirimli, hatto g`animini ham kechira oladi. Axir odam tabiatan noqis bo`lsa, buning uchun uni ayblab bo`lmaydi-ku. U tabiatdan ko`ngliga yaqinlik izlaydi. Majnun – Qays odamlardan mehr-oqibat ko`rmagach, dala-dashtda yovvoyi hayvonlar bilan do`stlashganidek, Zebo Mirzayevaning lirik «men»i ham tabiat qo`ynidan panoh topadi:

...Dardsiz nigohlardan, g`amsiz ohlardan,
Shu o`t-o`lanlarga yaqinman ko`proq.
Avliyodek cho`kka tushib o`tirgan
Qoyalar bag`ridan topaman panoh.

Pahlavon Mahmud bir ruboiysida:

Ko`xna qalam tole emas, dog` bitar,
Dard ekaman, bir-bir unib bog` bitar,-
deya yozgan edi. Demak shoiraning qoyalar, daraxtlar, maysalarni diliga yaqin olishi bejiz emas, chunki ularning bag`ri to`la dard, lirik qahramonga «dardsiz oh»lardan ko`ra yaqin. Shoiraning tabiatga ko`chgan iztirobi, dardlari ham meva tugadi. Bu ruhiy erkinlik, Ma`naviyat va ma`rifatdir. She`ming quvvati ham mana shunda. Shoira yozadi:

Ko`zim tushsa kuyadi oftob,
Qo`lim cho`zsam, to`kilar dilim.

Aytsam, gunoh aytmasam azob,

Bu qanday dard,

Bu qanday o`lim?

Bu ishq dardi. Uning otashi shunday kuchliki, yaqinlashsa oftobni kuydiradi. Uning g'am shulasi dilni shunday iztirobga soladiki, bunga dosh berolmagan ko`ngil oh uradi. Bu o`x o`tidan butun olam yonadi. Bu o`tda lirik qahramon ham qaqnus misol kuyadi. Mana shu xil kuyib-yonishdan haqiqiy oshiq-mashuqlik yuzaga keladi. Bunday fikrlarni muhabbatning mohiyatini qalban his qilgan, hamda butun vujudidan o`tkaza olgan ijodkorgina ayta oladi. Zebo Mirzaeva shunday shoir.

O`zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning she`riyati tabiat bilan uyg'un, muhabbat bilan limmo-lim. Yurakda ildiz otib Vatan tuprog'ida ko`kargan, yurt osmoni tomon bo`y cho`zayotgan sermeva daraxtga o`xshaydi

Milyon yilda meni yaratdi hayot,

Meni so`rab tog'lar qator cho`kdi tiz.

Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot,

Axir men bittaman, yagona yolg'iz?!

Shoirming «Yolg'iz» she`riy – falsafiy asar. Shoirming lirik qahramoni – «men»i inson bilan birlashib, umuminsoniylik tuyg'usi ifodasi darajasiga etadi.

Iqbol Mirzo she`rlarining ohangi ravon, qofiyasi to`q, satrlari to`kilib keladiki, shoir badiiy tasvir vositalarini qo`llay deb fikrlamaydi, balki quyilib kelgan misralar qatidan badiiy vositalar ko`z ochaveradi:

Dirillardi mendan qochib varraklar,

Varragimdan cho`chib uchga laylaklar,

Hurkak-hurkak titrab tunda yuraklar,

To`lqin-to`lqin tortar edi nolalar.

Birinchi misrada jonlantirishning tashxis ko`rinishi bor, birinchi misrani yakunlagan «varraklar» so`zi ikkinchi satrni boshlagani uchun radd ul-ibtidoning tasbe ko`rinishi zohir bo`lmoqda. Uchinchi-to`rtinchi misralardagi takror so`zlar mukarrarni hosil qilgan. Keyingi ikki misrada ham tavze – tovush takrori mavjud. Iqbol Mirzo tuyg`ularni manzaralarda ifodalaydigan musavvir shoir. Bunga bolaligidayoq qalb ko`ziga muhrlangan tabiat sabab:

Ho`qandi latifda

Karnayguldan uchar bolari kuyi,

Rayhonlar chayqalib chaladi g`ijjak.

Gumbazlarga etar tufroqning bo`yi,

Sipohi teraklar qoqmaydi mijja.

Dil uyg`oq.

Shoir she`rlarida tovushlar, so`zlar o`zlari hosil qilgan ohangda yayrab raqs tushayotgandek go`yo.

Shimoldan shaqaloq shamollar kelur,

Xalqumga xanjardek hilollar kelur,

Siynadan sitrilgan savollar kelur,

Rahmingiz kelmasmi?

Barcha misralarda tavze – tovush mutanosibligi bor, bandlar bir xil ibora bilan – refren bilan yakunlanadi. Shoir she`rda o`z holatining bag`oyat nochorligi haqida gapirib mahjubadan shafqat tilaydi. Lirik qahramonning «bo`m-bo`sh bog`lariga ko`klamlar keladi», «Azoblar, anduhlar, alamlar

keladi», uning «tunlari tangaday to`kiladi», ammo yorning rahmi kelmaydi. Shoir ko`ngini tashbehlar bilan bezab, tabiatni jonlantira turib, kutilmagan so`z o`yini bilan she`rxonni lol qoldiradi:

Rahmingi kelmasa,
O`zingiz keling.

Sher davomida ibora bo`lib kelgan to`rtinchi misra oxirgi bandeda erkin birikmaga aylanadi, rahm jonlantiriladi: oshiq oldiga yorning rahmi kelmasa, o`zi kelsin. Odatda so`z o`yini shakldosh so`z, ibora, erkin birikma yordamida yuzaga keladi va u mahorat mevasidir. Shoir so`z o`yini qo`llarkan, radd ul-ajuz sanatini ham aynan «tovon» so`zi orqali hosil qilgan. «Tovon»ni shakldosh so`z sifatida qo`llab, tajnis sanatini paydo etgan.

Tovonimni qo`msab qabarar tuproq,
Qolarman tuproqning tovonlariga.

Shoir «Yuzim qaro bo`lg`usi» ham ibora, ham erkin birikma «yuzim qaro»ni qo`llab, so`z o`yini qilarkan, iyhom sanatini maydonga keltirgan. Umuman, Iqbol Mirzoning kutilmagan so`z o`yinlariko`p uchraydiki, bu shoir uslubidagi o`ziga xosliklardan biriga aylangan.

Dedim: «Qorasoch dilbar,
Dilimni tig` tilgusi.
Zulfga tegursam agar
Yuzim qaro bo`lg`usi!»

Iqbol Mirzo she`rlari insonning shaxsiy dardlarini insoniyatning dardlariga qo`sha olgan, insoniyatning dardlarini esa, shaxsiy dardlarga

aylantira olgan qalbdan to`kilgan fikr va ohang vobastaligidan hosil bo`lgan. «Huzur», «Ko`rinadi», «Dard», «Xudoga soldim», «Muhabbat», «Bug`doy so`z», «Dadam qabri», «Singan odam», «Bachkana kun» kabi she`rlar fikrimiz dalilidir.

Zamonaviy o`zbek she`riyatining faol ishtirokchilaridan biri Xosiyat Rustamovadir. Uning she`rlarida dunyoviylik va ilohiylik birlashib ketadi. Shoir she`riyatiga munosabat bildirgan adabiyotshunolar uning o`lim haqida ko`p yozishini ta`kidlaydilar. Sinchiklab qraganda bu fikrga qo`shilib bo`lmaydi. Uning she`rlari o`lim haqida emas, tiriklikka, hayotga behad muhabbat natijasi o`laroq yuzaga kelgan asarlardir.

Barcha narsaning tiriklik va hayotdir. Insonning mavjudligi shu ikki narsaga bog`liq. Shu ikki narsani sevmaslik anoyilikdir. Shoir o`lim haqida so`z yuritganda tiriklikka, hayotga katta muhabbatni kuylaydi. Axir oshiqlik va mahbublik ham shu ikki narsaga bog`liq-ku. Xullas, Xosiyat Rustamovaning she`rlari kishida tushkunlik kayfiyatini emas, nekinlik tuyg`usini uyg`otadi, ularni o`qib, hayotni qattiq sevib qolasiz, yashashga ishtiyoqingiz ortadi.

Shamollar ermaklab o`ynar,

Xazonni –

Taqdir chirpiratib otadi erga.

Rabbim, o`zing bergan mana shu

Jonni

O`zingdan yashirib qo`yay qaerga?!

Bu misralarni o`qib, vujudingiz zirqira ketadi. Shoiraning hayotni, tiriklikni sevishini hech kim aytmagan shaklda juratkorlik bilan ifodalashiga qoyil qolasiz. Uning istedodiga tan berasiz.

Qancha o`lik bo`lsa -

Ko`rdim demas er.
G'amni parvosiga keltirmaydi ko`k.
Yo`lovchi!!!
Yo`lovchi!!!
Qo`llaringni ber –
Men seni ertaga ko`ramanmi, yo`q?

Yo`lovchi kim? U – siz bilan biz. Shoira odamlarni, zamondoshlarini behad sevadi. Chunki hayotning shirinligi, turmushning tarofati ular bilan. Afsuski, ular omonot, ayniqsa, XXI asr taloto`plari zamonida ularni ertaga ko`rish, umuman, ertaga ham tirik bo`lish gumona. Shoiraning she`rlarida muhabbat tushunchasi ijtimoiylashadi, falsafiydashadi. Ma`lumki, insonning vujudidan tashqari hamma narsa uniki emas, unga vafo qilmaydi. Eru Osmon, Quyoshu Oy, yulduzlar, dov-daraxtlar – brchasi. O`zidan keyin ham ularning qolishidan lirik qahramon ularga tana qiladi. Lekin darrov fikridan qaytadi. Chunki dunyo deb aytilgan narsada halovat degan narsaning o`zi yo`q.

Davr she`riyatida o`z ovozi va sozi bor ijodkorlardan biri shoira Xurshidadir. U ko`pincha mumtoz adabiyot an`analari asosida asarlar yozadi. Uning she`rlarining aksariyati g`azal, masnaviy va muxammaslar ko`rinishida. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Hurshida mutoz she`riy shakllarga zamonaviy yuk yuklashga, ularning mavzu ko`lamini ijtimoiy, axloqiy-ma`rifiy mazmun bilan boyitishga harakat qiladigan ijodkordir. Xurshida mumtoz adabiyotdagi an`anaviy poetik obrazlardan foydalangan holda zamonaviy shaklda ham she`rlar yaratadi. Natijada mumtoz an`anaviy timsollar zamonaviylashadi, Ma`naviy, axloqiy yo`nalish olib, bugungi kun talablariga xizmat qiladi. Bu hodisa «Bulbul Gul domiga tushganda nogoh» misrasi bilan boshlanadigan she`rda yaqqol ko`zga tashlanadi. Gul va bulbul an`anaviy manoda, oshiq va mashuqa timsoli sifatida istifoda qilinadi. Lekin shoira asarida ular konkretlashgan,

insoniylashgan. Shoira buni atoqli otlar bilan atash orqali anglatadi. Bulbul gul bog'iga kelib o'z nag'masini boshlaydi:

Xonishin boshladi Bulbul ohista –
Zohiran xush chah-chah, botinan xasta
Ekanligin oshkor qildi bu kecha.

Lekin soxta oshiq bu safar maqsadiga erisha olmaydi, yani «Oriyat mulkiga» rahna sololmay, Gul yonidan jilishga majbur bo'ladi. Biroq Gulning dardida o'zining botinan xasta ekanligini oshkor etib, kuylashda davom etadi. Nihoyat o'z maqsadiga erishadi. Gul uning nolasiga ishonib, taslim bo'ladi.

Tuyg'ularini aqlga bo'ysundira olmagan Gulning nadomatlarida katta haqiqat bor. Tafakkurdan tashqari harakatning barchasining oxiri voy ekanligi she'rdada o'ziga xos ifoda topgan.

Zamonaviy o'zbek she'riyati yaltiroq g'oyabozlik va quruq chaqiriqdan kutilib bormoqda. Bu hol katta avlodga mansub shoirlar ijodini ham yashartirib, asarlarining jozibadorligini oshirmoqda. Oylin Hojjevaning keyingi davr she'rlarida tashqi dunyoning holati emas, balki shoira ichki olamining nozik va o'zgaruvchan manzaralari chiziladi. Shoira teran mazmun bilan birgalikda ifodalar nazokatiga teran etibor qaratadi. Uning manzara she'ridagi

Kovushchalar to'la keng ayvon
Tunni haydab, turadi ushlab,
Tun xonaga kirolmay hayron,
Sahargacha chaladi hushtak.

Bu to'rtlikdagi har bitta so'z o'ziga xos majoziy mano tashiydi. Ayvonning kovushchalarga to'laligi o'zbekning ko'p bolali oilasini,

ayvonning tunni uyga kiritmay haydashi xona ichidagi chiroqdan boshqa xona ichidagi chiroqdan boshqa yorug'ligi bo'lmagan qishloq sharoitini, tunning sahargacha uyga kirolmay, hushtak chalishi izillagan qish izg'irini bildiradi. Aytmay bildirish usuli she'ning tasir kuchini oshirib, unga samimiyat bag'ishlaydi.

Mavjud poetik an'analar soyasida qolib ketmaslikka urinish zamonaviy she'riyatning etakchi xususiyatlaridan biridir. Hozirgi shoirlar biron u yoqda tursin, hatto o'zini ham takrorlab qo'yimaslikka intiladi. Usmon Qo'chqor she'rlaridan birida hamma uchun tanish bo'lgan, eski tuyg'u muhabbatniahorli ifodalaydi:

Men ishq degan qismatning og'ir
Kiprigida yoshga aylandim.
Tomchi-tomchi tomdiu oxir,
Oxir, gulim, toshga aylandim.
Men tosh edim, o'tlar – sharorlar
Ushatmadi, ushatolmadi.
Kuzlar, qishlar, yozlar, bahorlar
Yumshatmadi yumshatolmadi.

Sevgining toshday qattiq yuraklarni ham yumshata oladigan qudrati she'rda «Sen ketdingu evrildi dunyo» tarzida ifoda etiladi. Usmon Qo'chqor she'rlaridagi «Zoriqar, zo'riqar, chingillar yodim» yoki «Qahqaha borligin angladi bulut, Quyosh orligini angladi olam, Ko'ngillar angladi dardning dardligin. Og'ochlar angaldi gullash shartligin. Qaytish lozimliging angladi qushlar» kabi ajoyib topildiq misralar kitobxon yuragini qitiqlaydi, tuyg'ularini toblaydi, ong-shuurini boyitadi.

Zamonaviy she'riyatda xalqona ohanglarga ehtiyojning ortib boratgani kuzatilmoqda. Mumtoz she'rshunoslikda «Sahlu mumtani» deb ataluvchi sanat

mavjud. Bir qarashda bu usulda yozishdan osonroq narsa yo`qdek ko`rinadi. Biroq buni uddalash maholdir. Unda fikrni ohorli aytish, fikrni lo`nda va maromiga etkazib aytish hammaning ham qo`lidan kelavermaydi. Mahmud Toir ijodida shunday misralar bor:

Ko`klam qabog`i

Muncha uyuldi.

Osmon ko`zidan

YOshi quyuldi.

Jismu jonimda

G`alat titroqlar.

Shabnamdan sharob

Ichar yaproqlar.

Tuyg`ularning obrazli tasvirini bu tarzda berish dushvor. Chinakam ilhom samarasi o`laroq yaraladi bu xil misralar.

Qutlibeka Rahimboeva «Qorako`zlarim» to`plamiga kiritilgan she`rlar xalqona tashbeh va metaforalarga g`oyat boy. Shu bois ham ular tasirchan va kishi ruhiga tasir etadi:

Oyning huqqasidan kumush keltirsam,

Yulduz tokchasidan idish keltirsam,

Nayson bulutidan yog`ish keltirsam,

Darmon bo`larmanmi, dardlaringizga.

«Oyning huqqasi (qutichasi)», «yulduz tokchasi» metaforalari, birinchidan she`rning badiiyatini taminlagan bo`lsa, ikkinchidan, qutichadan kumush, tokchadan idish keltirish istagida ayollargagina xos nazokat, ulargagina tegishli nafasat sezilib turibdi. Parchadagi «Darmon bo`larmanmi

dardlaringizga» yurakka yaqin, xalqona ibora ekani bilan ham fikrning tasir kuchini oshirgan.

Yosh shoir Bobomurod erali she'rlariga xos xalqchil ifoda tarzi ham, obrazli tasvir vositalari ham hech kimnikiga o'xshamasligi, ohorliliigi bilan ajralib turadi. Shoirning «Sukunat sibizg'asi» to'plamidagi «Arg'amchi yo'l» she'ridagi bu xil misralar diqqatga loyiq:

Arg'amchi, yo, arg'amchi

Dunyo ayyor do'konchi.

Sharbat uzatar, unda –

Ilon zahri bir tomchi.

Shoir to'rt misra she'rda benihoya tasirli va ohorli ohorli obrazni shundaygina o'quvchi ko'z o'ngiga muhrlab qo'ya. Qolaversa har bitta ijodkor dunyoga nisbatn ilon zahridan tayyorlangan sharbatni uzatayotgan ayyor do'kondor tashbehini qo'llagan emas. Umuman xalqona usuldagi she'r namunalari she'riyatimizning ildizlari millatimizning qadim kechmishiga borib tutashadigan asl o'zanlaridan mudom quvvat olayotganidan darak beruvchi hodisadir.

Poetik obrazda yangilik qilish shakldagiga qaraganda ancha murakkab vazifa. Lekin she'riyatning chin manoda yuksalishi ana shu poetik hodisaga ko'proq bog'liq. Ustoz shoir Abdulla Oripov yozadi:

Bir marta ko'rganman,

Faqat bir marta.

Oyning o'rog'iga yulduz qo'nganin.

Oyning o'rog'iga yulduz qo'nishi tabiatda umuman ro'y bermaydigan hodisa, ilmiy nuqtai nazardan mutlaqo xato gipoteza. Ammo shoir xayoli

samari bo`lgan ushbu yolg`onni she`rxon lirik qahramonning dilining oniy bir farahi, shuurning tuyg`u vatasavvur oldida chekinishi sifatida qabul qiladi, shoir yolg`oniga «ishonadi».

Abdulla Sherning «Gul yillar, bulbul yillar» kitobida yomg`ir obraziga shu paytgacha kuzatilganidan o`zgacha mano yuklatiladi:

Yomg`irlar oralab o`ta umrim,
Har tomchi – bir umr, o`zi bir dunyo.
Yomg`irlar oralab kuzataman jim,
Yuvinib boradi asta kir dunyo –
Yomg`irlar oralab...

Shoir yomg`irning har tomchisini bir umrga, o`ziga xos alohida bir dunyoga tashbehlaydi. Natijada bizningcha, hech bir boshqa shoir ijodida kuzatilmagan original umumlasmaga, kir dunyoning yomg`irda yuvinib, tozarib borayotgani haqidagi poetik xulosaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri she`riyati davr bergan, milliy istiqlo bergan ijod erkinligidan foydalanib, yaz mavzu qamrovini tobora kengaytirib borayotgan, turli shakllar vositasida kitobxonlar ruhiyati va shuuriga yo`l ochayotgan she`riyatdir. Ijtimoiy ongning barcha sohalari singari she`riyat ham taraqqiyot jarayonida davom etmoqda. Uning bugungi samalarini chu`kurroq kuzatish, taraqqiyot tamoyillarini, tarqqiyotni taminlayotgan asoslarni o`rganish va targ`ib qilish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Zamonaviy o`zbek she`riyati o`zining yangi ko`rinishlari, shakl va mazmun borasida izlanishlari bilan ham kishi ko`nglini quvontiradi. Ma`lumki, har qanday yangilik, taraqqiyotning ildizlari davr bilan, zamonn, davrni to`g`ri idrok qilish bilan bog`liq ravishda paydo bo`ladi. Inson tafakkuri takomillashgan sari xayotga munosabati qarashi ham yangilana

boradi. Adabiyotimizda keyingi yillarda modernizm atamasi bilan atalayotgan ijodiy yo`nalish ham shunday yangilik xarakteriga ega hodisadir.

XIX asr o`rtalariga kelib ayrim ilg`or fikrli Evropa ijodkorlari voqelikni bevosita tasvirlash va unga taqlid qilishdan bevosita chekina boshladilar. Ularning nazdida voqelik ijodkorlar imkoniyatini ko`p jihatdan cheklab qo`yadilar. Bu borada norveg olimi adibi va munaqqidi Esplen Xovardsxolm shunday yozadi: «Bugun biz shunday sanat bilan ro`parama-ro`para kelib turibmizki, bu sanat haqiqatga o`xshashlik talabini inkor etadi. Bu sanat voqelikni boshqacha tarzda qabul qilishga intiladi. Boshqacha biron yaxshiroq so`z topa olmaganlari uchun zamonaviy sanatni «modern sanat» deb atamoqdalar.»¹

Norman Meyler «Pikassoning yoshligi» asarida modernizmning tug`ilishi haqida shunday fikrlarni o`rtaga tashlaydi: «Ikki asr oralig`ida ilgari hatto tasavvur qilib bo`lmaydigan kashfiyotlar qilindi. Markoning simsiz aloqa bilan bog`lash singari kashfiyotlari odamlarni shoshirib qo`ydi. Mana shu singari g`aroyibotlarning estetik ahamiyati ham bor: madomiki, axbarotni bir manzildan ikkinchi manzilga simsiz ham uzatish mumkin ekan, insonning holati ham elektr quvyatiga bog`liq bo`la oladi, u bilan aloqaga kirisha oladi ham. Bu esa, shoirlar va ijodkorlarni befarq qoldirmadi. Chunki ular texnologik inqilobning faqat texnika bilan cheklanib qolmaydigan yalpi ommaga vaqtinchalik noMa`lum mazmun mohiyatini botinan idrok qila bilgan edilar. Biron bir masofini faqat ot yordamida emas, boshqa vositalar ko`magida, boz ustiga aql bovar qilmas tezlikda bosib o`tish mumkin ekan, ijod maydoniga ham boshqacha andozalar bilan yondashmoq kerak degan tushuncha-aqidalar paydo bo`ldi. Ana shu yillari Freyd o`ziga xos tushlar tabirini keng jamoachilikka havola qilgandi. Bu esa ko`plab ijodkorlarni hayotga yangicha nigoh bilan qarashga unday boshladi. Insonning botiniy

¹ Jahon adabiyoti. 2001 yil, 1-son, 197-bet.

olamiga ilk yo`lak ochilgandi. Azaliy tushunchalar, an`analar chil-parchin bo`lib ketgandi.»²

Shunisi quvonchlik, jahon adabiyotining ilg`or qarashlari, shakl va aqidalari bilan qurollanib, uning taraqqiyotini taminlashga harakat qilayotgan o`zbek shoirlari tomonidan ham modern she`riyatning sara namunalari yaratilmoqda. Rauf Parfi, Faxriyor, Bahrom Ro`zimuhammad kabi ko`plab shoirlarimiz yaratgan modern she`riyat namunalari allaqachon she`rxonlarimizning ko`ngil mulkiga aylanib ulgiranligi fikrimizning dalilidir. Ma`lumki, moddiy brliqning aniq tasviri tasirchanlikni oshirish bilan birga lirik qaxramonning eng nozik tuyg`ulari va kechinmalarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Rauf Parfi she`rlarida mana shu holni ko`plab kuzatamiz. Shoirming «Yo`lovchi» turkumiga kirgan she`rlaridan birini kuzatamiz.

Ko`zimning g`orida parchalangan Ko`k,
Bulutlar, to`lqinlar haddan sochilgan.
Sening chiroyingda gard yo`q, g`uor yo`q,
Aldangan gullarning bag`ri ochilgan.
Sen-da sochilgansan, ochilib gulim,
Sen balki men uchun yasharsan endi.
Sen yolg`izsan bu dunyoda, sevgilim,
Cheksiz chidamimning sinchlari sindi.
Cho`nqaygan cho`qqidan so`rayman seni,
Qarigan bahordan seni so`rayman.
Topgin, deyman mening Buyuk Sevgimni,
Er tishlab so`rayman, so`ng bor ko`ray man,
Chaqinlar jimlikka chaqar jismingni,
Ko`kning sinig`iga seni o`rayman.

² Andre Breton. Syurrealizm manifesti // «Jahon adabiyoti», 2000, 5-son, 179-bet.

Ko`rinib turibdiki, sonetdagi har bir so`z jozibasi kishini maftun etadi. Lekin ular zamirida yashiringan fikrni, yani shoir niyatini kishi tezda ilg`ab ololmaydi. Uni anglash uchun holatni ko`z oldimizga keltirishimiz lozim. Ma`lumki, ko`z soqqasi – g`orida g`avhar joylashgan. Unda tiniq osmon – butun borliq jilolanadi. Tiniq narsada gard, g`ubor bo`lmaydi. Dunyo, olam har kishi ko`ziga shunday ko`rinadi. Lekin odam yashagan sari uning haqiqiy qiyofasini seza boradi. Shoir sof degan narsa ro`yo bo`lib chiqadi. Hayotning turfa nayranglaridan cho`qqilar ham charchab cho`nqaygan, bahor ham qarigan. Lekin shoir soffikka, komillikka intiladi. Komillikning birinchi asosi chin sevgiga muyassar bo`lishdir. Shoirning «Yo`lovchi» she`rida shunday misralarni o`qiyimiz:

So`zning gulxanida ruhim isindi,
Ul yulduz, oylarning so`zin o`qirdim...
Alamzor qo`ynida ezilgan bir barg.
So`nggi Unut so`zin daryosi oqar.

Sirdan qaraganda so`zning ham gulxani bo`ladimi, degan savol tug`ilishi mumkin. Lekin ong oqimini ishga solib, mushohada yuritilsa, mohiyat oydinlashadi. Xalq orasidagi «Bug`doy noning bo`lmasa ham, bug`doy so`zing bo`lsin» degan naql bejiz aytilmagan. Insonning isyoni, itoati, muteligi, shijoati ham so`z tufaylidir. Ikkinchi misrada «yulduz» va «oy» so`zlari sayyora yoki osmon jismlarini anglatmaydi. Ular Ma`naviyat osmonidagi yulduz va oylardir. Shoir o`shalarning so`zini o`qiydi, idrok etadi. «ezilgan bir barg» - bu shoirning yuragi.

Modern she`riyatning sara namushalarini yaratayotgan shoirlardan biri Fahriyordir. Uning she`rlari kutilmagan tashbehlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Umidlarim kulini sochdim,
Men boshimga oqarar sochim.
Qolaverdim, qayonlar ketding,
Sen mendagi o`zingdan qochib? –

deya yozadi Fahriyor. Umidlar ushalavermagach, hijronda qalb otashga aylanadi. Umid eng oxirida o`ladi deganlaridek, yana umidlar... Ular otashda kuyib, kulga aylanadi. Umidlar qalangani sari umidko`proq alanganadi...

O`ziga xos shoir Aziz Saidning «Suvdagi izlar» degan she`riy turkumidagi asarlarni kompozitsion jihatdan milliy she`riyatimizda yangilik deyish mumkin. Negaki, qofiyasiz, faqat teskari mano va ichki mantiqiy ohangga tayanilgan uch yoki to`rt qatorlik she`ming ilk ikki yoki uch satrida muaayyan bir holat ifodalanadi, oradan bir satr tashlab bitilgan uchinchi yoki to`rtinchi daxlsiz misrada o`sha holatni keltirib chiqargan hayotiy asos aks etadi.

So`zga aylana olmay qiynalar
Rangli sharlar ichidagi
Nafasim
Yohud
Tuyoq tozalayotgan shaharlik ayol
Qo`llariga yopishib qolar
Olis yaylovdagi maysalar sasi.

Borliqdan ko`ra ko`ra yo`qliqqa yaqinroq yurak titroqlari va ko`ngil tovlanishlari qolipga sig`maydi. O`zini tinimsiz tekshirib, ruhiyatdagi evrilishlar mohiyatini anglashga urinayotgan davr kishisi, ayniqsa, ijodkor o`zi va zamondoshlarining suvdagi mavj, qumdagi yozuv singari noturg'un va

o`zgaruvchan ko`ngil holatlarini kutilmagan yo`sinda ifodalashga urinalar. Shaira Go`zal Begim to`rt maktubdan iborat bitta she`rni «Qummaktublar» deb atagan. Garchi o`zgachalikning o`zi hm bazida sanat darajasiga ko`tarilsa-da, bu shunchaki o`zgacharoq ko`rinish istagi emas. Qumdagi imorat omonotligi, undagi tasvir lahzalik bo`lgani kabi qummaktublarda ham odamning soniya sayin o`zgarib turadigan, o`zga tugul o`zi ham anglab etishi mushkul tuyg`ulari aks etadi. Shaira na bosh harf va na tinish belgilari bor she`rida o`z tuyg`ularini shunday ifodalaydi:

yugirib yugurar bo`g`zimda hovur
sanchilib og`riydi barmog`imda baxt
ipak gulkosada yovqur tabassum
og`ir hislarimga to`kilar
bosh chayqaydi tasvirim
sog`inch

Bu she`rni shunchaki o`qigan she`rxon chigal ruhiy holat ifodasini tuya olmaydi. Muallifga tuyg`udosh bo`lib, estetik istemolchidan ijodkor maqomiga yuksala boshlagan kitobxongina bu mavhum tasvirlar zamiridagi konkret holat ifodasini ilg`ash mumkin.

Modern she`riyatning yana bir xususiyati shundaki, unda so`z an`anaviy she`rlardan o`zgacha quriladi., shoir pozitsiyasi aniq ko`zga tashlanib turmaydi. Aksariyat holda tinish belgilari ham qo`yilmaydi. Chunki fikr ong oqimi kabi miyada tinimsiz oqadi, kishiga tinchlik bermaydi. Bahrom Ro`zimuhammadning she`rlari shunday. U «Jarayon» nomli she`rida shunday yozadi:

Ruhimda yashaydi bir vahshiy odam
kuzatib yotadi fel-atvorimni

qancha sipo ko`rinsam shuncha darg`azab.

Agar kishi ong oqimini fikrlashga yo`naltirsa, «vahshiy odam» kimligini anglab etadi. U iblis-shayton. Ma`lumki, shayton ezgulikdan bezovta bo`lsa, yomon amollardan gul-gul yonadi.

betoqat bo`ladi gohida
gul hidlasam yoki she`r yozsam
bexosdan irillagan kuchuk singari
ixcham sakrab ketar quvonganidan
shunday o`kirarki bu qichqiriq
fosh etadi meni va uni.

Inson insonlida qolish uchun ruhidagi shaytonga nisbatan isyon ko`tarishi kerak. Shundagina bu «vahshiy kishi» junbushdan to`xtaydi.

Miyani chatnagudek fikrlashga majbur etish modern ruhidagi she`rlarga xos xususiyat. Bunday namunalarga misolni ham Bahrom Ro`zimuhammad she`rlari orasidan topishimiz mumkin.

Daraxt kovagining mehmoni qo`rquv
ilonning ishq tushdi ninachiga
tanovul qilaman g`ussa bo`tqasin

Ma`lumki, daraxt kovagi hamisha ilon, boyo`g`lilarning makoni. Shundan kovakka yaqinlashish qo`rqinchlidir. Ilon ninachini sevib qolgani yo`q, uni eyishga ishtiyoqli. Daraxt bu o`rinda dunyo ma`nosida. Dunyoda esa, ojiz ustidan kuchli hukmron. Shoir buning bilan murosa qila olmaydi, shundan uning g`ussasi ko`p

Ko`rib turganimizdek, modern she`riyat hayotni, olam va odamni yomon illatlardan yiroq ko`rishni istaydi. Bunday xususiyatni Abduvali Qutbiddin, Davron Rajab, Boltaboy Bekmatov, ikrom Iskandar, Go`zal Begim she`rlaridan topish mumkin. Lekin zamonaviy she`riyatda beo`xshov tashbehtar, umuman izohlash mumkin bo`lmagan tasvirlar ham uchraydiki, ular ham modern she`riyat nomi bilan gazeta jurnallarimiz sahifalaridan o`rin olmoqda.

«Aytaylik, atoqli shoirimiz R.Parfi bir she`rida:
«Chaynagim keladi ko`zlarimni og`zimga solib» degan edi.
Bahrom Ro`zimuhammad:

O`z qonimni ichkim
keladi juda
maydalagim kelar
suyaklarimni, -

deydi. Sh.Hasan o`zini o`zi «eb qo`yadi»:

O`z yog`imda
o`zni qovurib,
So`ng o`zimni
etdim tanovul.

H.Ahmedova «Yurak yuki» degan she`rida barcha qovurg`a va umurtqalarini sindirib, ularni «oshiq-moshig`i bilan oppoq bo`yniga osib» olganligi va bundan sevinib, qiyqira boshlagani haqida yozadi. Bunday tashbehlardan badaningizga ilon o`rmalagandek Bizningcha, kishilarni modern she`riyatidan bezdiradigan ushbu xil holatlardan qanchalik tez qutilinsa, shuncha yaxshi bo`ladi. Negaki she`riyat

barcha zamonlarda ham kishilarni estetik jihatdan ham tarbiyalab kelgan bebaho qadriyatlarimizdan biridir.

Xullas, suv bilan bog'liq mifologik tasavvur-tushunchalar zamonaviy she'riyatda ham o'ziga xos ifoda etilishi alohida e'tiborni tortadi. Zamonaviy she'riyatimizda shunday ash'orlar borki, ularda suv obrazi asosiy talqin ob'ekti bo'lib kelgan. Masalan, E.Vohidovning "Sirdaryo o'lani", A.Oripovning "Dengizga", "Buloq", Muhammad Alining "Irmoq", "Obihayot" afsonasi va hokazo kabi qator she'rlar shular jumlasidandir.

Yapon olimi Masaru Emoto "Suvnoma" deb nomlangan maxsus publististik asar ham yaratgan. Uning o'zbekcha tarjimasi "Jahon adabiyoti" jurnalida chop etilgan.¹⁷⁸

Yana shunday she'rlar borki, ularda suv shunchaki yo'l-yo'lakay obraz vazifasida uchrab, asosiy g'oyaning qaysidir nuqtasini yoritishga xizmat qiladi.

¹⁷⁸ Масару Эмото. Сувнома. Публицистика. – Жаҳон адабиёти. – Тошкент. – 2007. – 2010. – Б.100-134.

UMUMIY XULOSALAR

1. Suv tabiatdagi to'rt muhim unurning biri. U ko'p bor she'rga solingan va har bir istiorada, nazmda o'zining betakror qirrasini namoyon etgan.

2. Suv istioraviy o'xshatishlardan badiiy obraz darajasigacha ko'tarilgani kuzatiladi. U o'ziga xos ma'no, qirra, ramz, falsafa aks ettiradigan an'anaviy obrazlardan biridir.

3. Xalqimiz orasida suv bilan aloqador e'tiqodiy qarashlar tizimi shakllangan bo'lib, ularning kelib chiqishi ibtidoiy insonlarning mifologik tasavvur-tushunchalariga borib taqaladi. O'zbek xalq she'riyati bilan birga o'zbek zamonaviy she'riyatida ham suv kultining poetik ifodalari juda kuchli saqlanib qolgan.

4. Suvsiz hayotni, tiriklikni tasavvur qilib bo'lmagani sababli insonlar o'rtasida suv kultiga aloqador e'tiqodiy qarashlar shakllangan. Bora-bora shu kultni ulug'lovchi va sharaflovchi, unga sig'inishni aks ettiruvchi o'ziga xos marosim va urf-odatlar paydo bo'lgan. Suvga e'tiqod asosida turli marosimlar bilan bog'liq udumlarni ado etish ancha keng tarqalgan.

5. Suvni obrazlantirish vositasida suvga ekologik munosabatda bo'lish tuyg'ulari jonlantiriladi.

6. Nafaqat o'tmish, balki zamonaviy shoirlar she'riyatida suvdan badiiy obraz yaratish an'ana – uslubga aylanganini kuzatish mumkin. She'riyatda suv juda ko'p timsoliy ma'nolarda qo'llanadi.

7. Suvni har bir shoir o'z she'rida turli-turli yangi ma'noda, yangi bir fikr yoki g'oyani ifodalashda qo'llashga harakat qilgan. Aslida she'rlarda suv va uning analoglarining badiiy-estetik vazifalari, anglatgan ma'nolari g'oyat ko'p. Qizig'i shundaki, ko'pincha suv obrazi intim kayfiyatlarni badiiy ifodalashga xizmat qiladi.

8. Suvsiz hayot bo'lmasligi hammaga ma'lum. Shuning uchun xalq uchun yaratilgan badiiy asarlarda suv va uning aniqlovchilariga ko'p urg'u qaratilgan. Ularda suv obrazi turli poetik ma'nolarda keng talqin etilgan. She'rlarni suv

obrazlarisiz tassavur etib bulmaydi. Suv ulardagi eng faol obrazlardan biri sanaladi.

9. Xullas, suv bilan bog'liq mifologik tasavvur-tushunchalar asosida xalq she'riyatida suvning turli ma'nolarda obrazlantirilgani kuzatiladi. Xalq she'riyatiga xos ana shu badiiy an'analar keyinchalik yozma she'riyatda, hatto hozirgi she'riyatda ham davom ettirilayotgani diqqatga sazovor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Маънавият, 1994. – Б.7.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.:Маънавият, 2008. – 174 б.
3. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т: Ўзбекистон, 2010. – 40 б.
4. Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959. – 316 б.
5. Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.
6. Асотирлар ва ривоятлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 128 б.
7. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б.
8. Бўлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро, 2004. – Б.100.
9. Вохидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000. – 414 б.
10. Вохидов Э. Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2010. – 208 б.
11. Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Ҳ.Раззоқов. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 248 б.
12. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – 340 с.
13. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 312 б.

14. Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184 б.
15. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори.–Т.: Фан, 2008.– 290 б.
16. Жўраев М., Худойкулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 48 б.
17. Жўраев М. Наврўз байрами. – Т.: Фан, 2009. – 230 б.
18. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари.: Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2009. – 192 б.
19. Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – 224 б б.
20. Иқром Отамурод. Тағазул. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2008. –
21. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
22. Имомов К. Йиғи магияси. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2001. – №2. – Б.60-62.
23. Ипак йўли афсоналари. (Жой номлари билан боғлиқ афсоналар). Тузувчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Жўраев. – Т.: Фан, 1993. – 102 б.
24. Конкка У.С. Карельская свадебная причитальница «itkettaja» - возбудительница плача // Фольклор и этнография. Обряды и обрядовый фольклор. – Л.: Наука, 1974. – С. 236-243.
25. Масару Эмото. Сувнома. Публицистика. – Жаҳон адабиёти. – Тошкент. – 2007. – 2010. – Б.100-134.
26. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т., Фан, 2010. – 308 б.
27. Муҳаммад Али. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – 448 б.
28. Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз: Шеърлар тўплами. – Т.: Нихол, 2008. – 192 б.
29. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-жилд. – Т., 1990. – Б.94-95.

30. Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Т., 2007. – 23 б.
31. Орипов А. Мен нечун севаман Ўзбекистонни. Шеърлар ва драматик дoston. – Т.: Ф. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б. 97-98.
32. Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М. Алавия. – Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 232 б.
33. Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 136 б.
34. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007. – 260 б.
35. Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – 72 б.
36. Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – 370 б.
37. Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – 128 б.
38. Рўзимбоев С. Халқ қўшиқларида параллелизмларни юзага келтирувчи манбалар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1972. – № 1. – Б. 81-85.
39. Садриддин Салим Бухорий. Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. –
40. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.
41. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2004. – 128 б.
42. Сагтор М. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – 222 б.
43. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. T.: "Musiq", 2010. – 368 b.
44. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 132 с.
45. Сотим Аваз. Ҳуқуқ. Шеърлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 48 б.

46. Топишмоқлар. ЎХИ. Кўп томлик. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи З.Хусаинова. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 99-бет.
47. Турдимов Ш. Лирик кўшиқларда рамз. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1982. – №3. – Б.16-19.
48. Усмон Азим. Фонус. Шеърлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2010. – 160 б.
49. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. Исследование магии и религии. 2-е изд. М.: Политиздат, 1983. – 704 с.
50. Шода-шода марварид. Ўзбек халқ кўшиқлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э. Очиллов. – Т.: Шарқ, 2006. – 416 б.
51. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши.: Насаф, 1999. – 172 б.
52. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011. – 304 б.
53. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.
54. Ўзбек халқ мақоллари. Кўп томлик. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусақулов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 512 б.
55. Ўраева Д.С. Ўзбек халқ лирик кўшиқларида параллелизмларнинг характери ва бадий-композицион вазифалари: Филол. фан. номз. ...дисс. авторф. – Т., 1993. – 20 б.
56. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.
57. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек поэмачилигида жанр ва услуб ранг-баранглиги. – Т.: Фан, 2010. – 144 б.
58. Қурбонов Ш. Бир қалб манзараси: Шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б.6 (144).
59. Ғафуров Ғ. Удумларда халқ қалби. – Т.: “Ёш гвардия”, 1986. – 192 б.
60. www.wikipedia.com.
61. www.ziyouz.uz/index.php.

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY